Izoh 1.: (6)-(9) masala yechimini tuzishda birinchi kasr qadamlarda issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun Koshi masalasi yechiladi, ikkinchi kasr qadamlarda - ko'chish tenglamasi uchun Koshi masalasi, uchinchi kasr qadamlarda esa - oddiy differensial tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi yechiladi. Masalaning yechimi quyidagi ko'rinishga ega:

$$u^\tau = u_0(x) + \frac{3\tilde{b}}{b}(v_0(x) - u_0(x))(1 - e^{-\tilde{b}t}),$$

$$v^\tau = v_0(x)e^{-\tilde{b}t} + \frac{3\tilde{b}}{b}v_0(x)(1 - e^{-\tilde{b}t}) + \frac{3\tilde{b}}{b}u_0(x)(1 - e^{-\tilde{b}t}),$$

bu yerda $\bar{b} = 3(b + \tilde{b})$.

(5) munosabatlar bajarilgan bo'lsin va C_1 , \tilde{C}_1 va t^* doimiylar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin

$$1 - c_1 t^* > 0, \quad 1 - \tilde{c}_1 t^* > 0 \quad (10)$$

U holda $\Pi_{[0,t^*]}$ sohada u^τ va v^τ yechim mavjud va \mathcal{X} , \mathcal{X} o'zgaruvchilar bo'yicha o'zining barcha hosilalari bilan chegaralangan. Aniqki, ixtiyoriy fiksirlangan τ da (6)-(9) masalaning u^τ va v^τ yechimi τ kattalikka bog'liq bo'lmagan xolda chegaralangan.

$$\left| u^\tau(t, x) \right| \leq c_0, \quad \left| v^\tau(t, x) \right| \leq \tilde{c}_0. \quad (11)$$

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni takrorlab, u^τ va v^τ yechimlarning x bo'yicha ixtiyoriy tartibli xususiy hosilalari τ bo'yicha chegaralanganligini ko'rsatish mumkin:

$$\left| \frac{\partial^k u^\tau(t, x)}{\partial x^k} \right| \leq C_k, \quad \left| \frac{\partial^k v^\tau(t, x)}{\partial x^k} \right| \leq \tilde{C}_k, \quad (t, x) \in \Pi_{[0,\tau]},$$

$$k = 0, 1, \dots \quad (12)$$

bu yerda C_k , \tilde{C}_k - biror musbat o'zgarimaslar bo'lib, $C_k \leq c_k$, $\tilde{C}_k \leq \tilde{c}_k$. (11), (12) tengsizliklar va (6)-(9) tenglamalardan τ bo'yicha tekis baholashlar kelib chiqadi:

$$\left| \frac{\partial^{k+1} u^\tau(t, x)}{\partial t \partial x^k} \right| \leq c_k, \quad \left| \frac{\partial^{k+1} v^\tau(t, x)}{\partial t \partial x^k} \right| \leq \tilde{c}_k, \quad (t, x) \in \Pi_{[0,\tau]},$$

$$k = 0, 1, \dots \quad (13)$$

Bu baholashlardan u^τ , v^τ va ularning \mathcal{X} bo'yicha ixtiyoriy tartibli hosilalari $\Pi_{[0,t^*]}$ da tekis chegaralangan va tekis darajada uzluksiz ekanligi kelib chiqadi.

Arsela teoremasiga asosan, diagonal usuli bilan $\{u^\tau\}$, $\{v^\tau\}$ ketma-ketlikning $\Pi_{[0,t^*]}$ sohaning har bir chegaralangan qism sohasida o'zining x bo'yicha barcha hosilalari bilan mos ravishda u va v funksiyalarga tekis yaqinlashuvchi $\{u^{\tau_k}\}$, $\{v^{\tau_k}\}$ qism ketma-ketliklarini tanlab olish mumkin, buning natijada u va v funksiyalar x bo'yicha ixtiyoriy

tartibli hosilaga ega bo'ladi va quyidagi munosabatlar bajariladi:

$$u \Big|_{t=0} = u_0(x), \quad v \Big|_{t=0} = v_0(x), \quad (14)$$

$$\left| \frac{\partial^k u(t, x)}{\partial x^k} \right| \leq C_k, \quad \left| \frac{\partial^k v(t, x)}{\partial x^k} \right| \leq \tilde{C}_k, \quad (t, x) \in \Pi_{[0,\tau]},$$

$$k = 0, 1, \dots \quad (15)$$

Yechimning yagonaligi standart usul bilan isbotlanadi.

Natijada, u^τ, v^τ funksiyalar ketma-ketliklarining o'zi ham $\tau \rightarrow 0$ da o'zining barcha hosilalari bilan $\Pi_{[0,\tau]}$ da mos ravishda u va v ga tekis yaqinlashadi. $u_0(x), v_0(x) \in C^2(\square^1)$ bo'lgan hol o'rtacha funksiyalar yordamida isbotlanadi. Shunday qilib, quyidagi teorema isbotlangan.

Teorema 1. $u_0(x), v_0(x)$ - funksiyalar (3.3) shartni qanoatlantirsin. U holda (6)-(9) masalaning $u^\tau(t, x)$ va $v^\tau(t, x)$ yechimi $\Pi_{[0,\tau]}$ sohada $\tau \rightarrow 0$ da (1), (2), (3) masalaning $u^\tau(t, x)$ va $v^\tau(t, x)$ yechimiga tekis yaqinlashadi. $\frac{\partial^k u(t, x)}{\partial x^k}, \frac{\partial^k v(t, x)}{\partial x^k}, k = 0, 1, \dots$, hosilalar $\Pi_{[0,\tau]}$ sohada $u(t, x)$ va $v(t, x)$ ning tegishli hosilalariga tekis yaqinlashadi.

Burgers tipidagi sistema qo'sh suyuqlikli muhit modelining tenglamalar sistemasini soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib, bosim o'zgarimasligi va siqilmaslik shartining yo'qligi bilan qo'sh suyuqlikli muhit modelining tenglamalar sistemasidan farq qiladi. Shu sababli, Burgers tipidagi sistema uchun masalalar to'plami ba'zan o'zgarimas bosimga ega bo'lgan ikki tezlikli suyuqlik dinamikasi deb ataladi.

Ikki tezlikli gidrodinamikada yuzaga keladigan Burgers tipidagi tenglamalarning bir o'lchovli sistema uchun Koshi masalasi ko'rib chiqildi. Kuchsiz yaqinlashish usulidan foydalanib, Burgers tipidagi bir o'lchovli sistema uchun Koshi masalasi yechimining mavjudligi va yagona ekanligi isbotlangan. Riman tipidagi tenglamalar sistemasining harakatlanuvchi to'lqinlar ko'rinishidagi yechimi ko'rib chiqildi [4:10], [5:20], [6:5], [7:153], [9:11].

Adabiyotlar

1. Куликовский А.Г., Свешников Е.И., Чугайнова А.П. Математические методы изучения разрывных решений нелинейных гиперболических систем уравнений. –Москва: 2010. –С. 37-45.
2. Доровский В.Н. Континуальная теория фильтрации. // Геология и геофизика. 1989. №. 7. -С. 39-45.
3. Доровский В.Н., Перепечко Ю.В. Теория частичного плавления. // Геология и геофизика. 1989. №. 9. -С.56-64.
4. Гегечкори З.Г., Демидов Г.В. О сходимости метода слабой аппроксимации. // ДАН Россия, 1973, т. 213, № 2, -С. 264-266.
5. Белов Ю.Я., Демидов Г.В. Решение задачи Коши для системы уравнений типа Хопфа методом слабой аппроксимации. // Численные методы механики сплошной среды. - Новосибирск: ВЦ СО АН Россия, 1970. Т.1, № 2. - С. 3-16.
6. Имомназаров Х.Х., Турдиев У.К. Исследование задачи Коши для одномерной системы уравнений типа Бюргерса методом слабой аппроксимации//Проблемы информатики. № 3 (44)/2019. -С. 20-30. (05.00.00, № 67)
7. Turdiev U., Imomnazarov Kh. A system of equations of the two-velocity hydrodynamics without pressure // AIP Conference Proceedings. 2021. –P. 070002-1–070002-5. (3, Scopus IF=0.4)
8. Турдиев У.К. Задача Коши для одномерной системы уравнений типа Бюргерса. // Мухаммад Ал-Хоразмий авлодлари. № 4 (18)/2021. –С. 153-157. (05.00.00, №10).
9. Imomnazarov B.K., Turdiev, U.K., Erkinova, D.A. Weak approximation method for the 30auchy problem for a one-dimensional system of hopf-type equations mathematical notes of nefuthis link is disabled // Mathematical Notes of NEFU. 29(4)/ 2022. –P. 11–20. (3, Scopus IF=0.167).

РЕЗЮМЕ. Ikki tezlikli gidrodinamikada paydo bo'lgan Burgers tipidagi bir o'lchovli tenglamalar tizimi uchun Koshi masalasi ko'rib chiqildi. Bir o'lchovli Burgers tipidagi tizim uchun Koshi masalasini yechimining mavjudligi va o'ziga xosligi zaif approksimatsiya usuli bilan isbotlangan.

РЕЗЮМЕ. Рассмотрена задача Коши для одномерной системы уравнений типа Бюргерса возникающая в двухскоростной гидродинамике. Методом слабой аппроксимации доказано существование и единственность решения задачи Коши для одномерной системы типа Бюргерса.

SUMMARY. The Koshi problem for a one-dimensional system of Byurgers type equations arising in two-velocity hydrodynamics is considered. By the method of weak approximation, the existence and uniqueness of the solution of the Koshi problem for a one-dimensional Byurgers type system is proved.

**SHARQIY USTYURTTA O'SUVCHI MADANIY O'SIMLIKLARINING YOVVOYI AJDODLARIDAN BIRI
AGROPYRON DESERTORUM SCHULT. NING HOZIRGI HOLATINI BAHOLASH**

A.B.Ajiev – biologiya fanlari doktori (DSc), professor

E.T.Allamuratov – stajyor-tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Ustyurt platosi, endemiklar, noyob turlar, tsenopopulyatsiya holati, Agropyron desertorum.

Ключевые слова: плато Устюрт, эндемики, редкие виды, статус ксенопопуляций, Agropyron Desertorum.

Key words: Ustyurt plateau, endemics, rare species, xenopopulation status, Agropyron desertorum.

Ustyurtning Qoraqalpog'iston bo'limi O'zbekiston Respublikasining g'arbida joylashgan bo'lib, sharqidan asosiy qismi cho'lga aylangan Orol dengizi bilan chegaradosh. Ustyurtning umumiy maydoni 27,2 mln ga bo'lip, shundan 7,2 mln ga Qoraqalpog'iston hududiga to'g'ri keladi [4:1, 245; 6:7, 335].


Ustyurt asosan 160-300 m balandlikdagi (dengiz sathidan) platodan tashkil topgan. Uning sharqida (Aqtumsuq burni atrofi 219 m), markazida (207 m) va janubi-g'arbida (Qorabaur ko'tarilmasi, 275 m) bir nechta baland joylar mavjud. Asosiy botiqlari Borsa-kelmas sho'rhog'i (dengiz satqidan 50 m), Asaka ovdan cho'kmasi (dengiz satqidan 29 m) va Sariqamis ko'li bo'lib sanaladi. [5:5].

O'rta Osiyoni va Qozog'istonning, shuningdek O'zbekistonning botanika-geografik rayonlashtirilishiga ko'ra, Ustyurt platosi Shimoliy Turon provintsiyasining Shimoli-G'arbiy Turon kichik provintsiyasiga tegishli [2:13,18].

Ustyurt iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozning quruq issiqligi va qishining qattiq bo'lishi bilan ajralib, kuchli shamollar, atmosfera yog'inlarining kam muqorda bo'lishi (70-110 mm/yil), barqaror bo'lmagan qor qoplam, yuqori o'zgaruvchanlik va yilning fasllariga va kunga qarab haroratning keskin o'zgarishi bilan ifodalanadi. Mutloq maksimal harorat +45,5°C (iyul), -37°C (yanvar). Kundalik havo harorati +10°C ga o'tish sanasi aprel oyining uchinchi on kunligidir. Qishda tuproq 5-15 sm chuqurlikda muzlaydi. Umumiy quyosh radiatsiyasi 130-140 kkal/sm²ga etadi. [2:13-18-b., 3; 261-267-b.] radiatsiya balansi esa yiliga 45-50 kkal/sm²ni tashkil qiladi.

A.Ajiev (2023) ma'lumotlariga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida uchraydigan oliy o'simliklarning madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining tarkibi tahlili xulosasidan 39 oila, 117 turkum va 171 turdan iborat bo'lib, kamida 6 xil xo'jalik qimmatli turlar guruhi mavjudligi aniqlandi. Ulardan 140 tasi yem-xashak, 79 tasi oziq-ovqat, 44 tasi asal beruvchi, 119 tasi dorivor, 75 tasi texnikaviy o'simliklardir (1-rasm).


Eng ko'p bo'lgan yem-xashak guruhi 140 turni tashkil etib, eng ko'p soni 27 tur bilan ifodalangan Chenopodiaceae oilasiga to'g'ri keldi. Poaceae oilasi 25 tur, Fabaceae 15 tur bilan ifodalanadi. Keyin Brassicaceae oilasi 13, Asteraceae 9 va Polygonaceae 7 tur o'simlik bilan ifodalandi.



1-Rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining iqtisodiy qimmatli guruhlarga taqsimlanishi. [A.Ajiev (2023) ma'lumotlariga ko'ra]

B.Sariboev (1987) ma'lumotlariga ko'ra Ustyurt florasida 60 tuqimlas, 295 turkum, 724 tur quraydi. Oilalar spektrida etakchi o'rinni ko'p yillik o'simliklar Chenopodiaceae, Asteraceae, Brassicaceae, Poaceae va Fabaceae egallaydi, undan keyin bir yillik o'simliklar, ikki yillik o'simliklar butalar va daraxtlar.

Tadqiqot ob'ektlari: 2024 yil tashkil etilgan ekspeditsiyalar davomida Qoraqalpoq Ustyurt florasida biologik xilma-xillikni saqlash tamoyillarini integratsiya qilish, o'simliklar tsenotik populyatsiyalari shu jumladan madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining *Agropyron fragile* (Roth.) P. Candargy, *Agropyron desertorum* Schult. hozirgi holatini o'rganidik.



2-Rasm *Agropyron desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyasining joylashuvi

Agropyron fragile (Roth.) P. Candargy (Sibir bug'doy o'ti yoki mo'rt) tabiiy sharoitda G'arbiy Sibir, Quyi Volga, Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonning qumli dashtlarida o'sadi. Ukraina janubida va Kavkazda ham topilgan. Rossiyaning janubiy-sharqiy hududlarida qishloq xo'jaligida qo'llaniladi.

Agropyron desertorum Schult. (Cho'l bug'doy o'ti) Kaspiy bo'yi pasttekisligi va cho'l dashtlarida uchraydi. Qurg'oqchilikka eng chidamli turlar.

Ko'p yillar davomida qayta-qayta o'stirilishi mumkinligi sababli *A. desertorum* qishloq xo'jaligida foydali ekinga aylandi. Bu o'simlik turi oddiy yaylov ekinlari sifatida ishlatiladigan turli xil bug'doy o'ti hisoblanadi. Gullar: mayda, yashildan binafsha ranggacha, boshloqlarda joylashgan.

U ayniqsa, inson oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun boqiladigan go'shtli qoramollar uchun ishlatiladi [7]. To'pgullari: ro'vak, boshqosimon (zich) ro'vok.

Meva: donli yoki turli xil karyopsis

Urug'lar: kichik, qattiq, yaltiroq

Poyasi: tik, balandligi 90 sm ga etadi.

Barglari: tekis, qinlarining cheti tutash

Sovuqqa chidamliligi va qishga chidamliligi yuqori, bu xususiyatlarda u bedadan ustundir. Qurg'oqchilikka chidamliligi yuqori, uzoq vaqt qurg'oqchilikka dosh bera oladi va yog'ingarchilikdan keyin yaxshi o'sadi. Neytral va ozgina sho'rlangan tuproqlarda o'sadi. U hosildorligi bo'yicha bug'doy o'tlarining boshqa turlaridan ustun bo'lib, oz miqdorda chiqindi hosil qiladi.

O't aralashmalarida u dastlabki ikki yilda sekin rivojlanadi, ayniqsa namlik etarli bo'lmaganda, kuzga kelib faqat 1-2 poyga hosil qiladi, ekishning atigi 10-15% ni egallaydi. Hayotning birinchi yilidagi butalar har bir o'simlikda 20-30 poyadir.

Ekspeditsiyalar davomida *A. desertorum* Schult. turning 5 ta tsenopopulyatsiyasini topdik. Yashash joylarida tsenopopulyatsiya holatini baholash uchun biz beshta tsenopopulyatsiyasining ontogenetik tuzilishini o'rganidik.

Quyida ushbu 5 ta tsenopulyatsiyalarning qisqacha eko-fitostenotik hususiyati keltirib o'tiladi. Tsenopulyatsiyalar joylashgan maydonlarni GP etib belgiladik.

GP1 (44°26'49.0"N 58°11'34.2"E). Sharqiy Ustyurtning dala yo'li atroflarida shakllangan *Salsola orientalis* S.G. Gmel jamoasining bir qismi sifatida o'rganildi. Tadqiqot maydonining relefi notekis, chuqur bo'lmagan jarlikta joylashgan. Tuproqg'i gipsli-ohaktoshli, yirik toshlar aralashgan qumoq tuproqlar.

Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 40% dan oshmaydi. Jamoaning floristik tarkibi oz sondagi (12 tur) turlardan iborat. Jamoa tashkil etuvchisi *Salsola orientalis* 33% qoplam hosil qiladi, *A.desertorum* Schult. ning ulushi qolgan GP2 va GP3 lardan yuqori bo'lib 22% tashkil etadi

GP2 (44°25'24.7"N 58°11'46.5"E). Ustyurt shimoliy-sharqida qayd etiladi. Mazkur GP *Malacocarpus crithmifolius* (Retz.) C.A.Mey jamoasi tarkibida ajratildi. Hudud GP1 kabi yo'l atrofida joylashgan, boshqa GPLarga nisbatan salbiy ekologik omillardan holi sanaladi. Yomg'ir suvlarining yig'ilishi tuproq namligining uzaq vaqt saqlanib qolishiga va kuchli shamollardan holi bo'lishi, yuvenil o'simliklarning paydo bolishiga muhit yaratmoqta. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35%ni *A.desertorum* Schult. ning ulushi 9% tashkil etadi. Jamoaning floristik turlar soni 19 tadan iborat.

GP3 (44°28'38.7"N 58°11'17.2"E). Rele'fi notekis tuprog'i gipsli-oxaktoshli, yirik toshlar aralashgan gipsli tuproqlar, Sho'rhoq maydonlar ham uchraydi. Ayirim joylarda ona jins qatlamlari ko'rinib turadi. GP 10-15 metrlik jarlikta joylashgan. Hudud antropogen omillarning ta'siridan holi. Jumladan, bunda o'zida gips saqlaydigan va ohaktoshdan tashkil topgan chink ustunlarining emirilishidan hosil bo'lgan jarlikdir. O'simliklar uchun asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida yomgir suvlari jarliklarni o'pirishi va yuvilishi. Shu bilan birgalikda, yumronqoziqlarni haddan tashqari faoliyatini salbiy tasir etuvchi omillar jumlasiga kiritish mumkin. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35-38% dan oshmaydi. Floristik tarkibi 14 turni o'z ichiga oladi. Dominant tur *Medicago sativa* L. va *Artemisia diffusa* Krasch. ex Poljakov ko'rsatish mumkin.

GP4 (44°30'39.6"N 58°11'10.1"E). Sharqiy Ustyurtning Chink yo'l bo'yida joylashgan. GP4 joylashgan jarlikning o'pirilishi xavfi bor, agar bu roy bersa o'simliklar tsenopulyatsiyasiga qanday ta'sir qilishi no'malum, GP5 singari kuchli shamol ta'sir etuvchi yirik toshli-gipsli tuproqqa ega. Bu ekologik omillar tasirida yosh o'simliklarning paydo bolishiga muhit yaqshi emas, yuvenil va immatur singari yosh spektorlar % juda kam. Lekin jamoa joylashgan tarkibida tuplar soni ko'pligi bilan birgalikta kuchli shamol tasiri natijasidan o'simliklar bo'ylari boshqa GP o'simliklardan pas. Jamoani tuproq yuzasini qoplash darajasi 35-40% tashkil qiladi. *A.desertorum* Schult. ning ulushi 11% dan oshmaydi. Floristik tarkibi unchalik boy emas – 12 ta turdan iborat.



3-Rasm *A.desertorum* Schult. dominant va sodominant turlar sifatida ko'rsatiladigan (GP5)

GP5 (44°30'35.0"N 58°11'18.9"E). Chinkning sharqiy qiyaligida joylashgan. Hudud notekislikdan iborat, yirik toshli-gipsli tuproqqa ega. Antropogen va boshqa ekologik omillarning kuchli salbiy ta'siri mavjud emas. Hudud muntazam kuchli shamol tufayli tuproq eroziyasiga ushramoqta.

Floristik tarkibi unchalik boy emas – 9 ta turdan iborat bo'lib, qoplash da'rajasi 40%. Dominant va sodominant turlar sifatida *Artemisia terrae-albae* Krasch (28%) va *A.desertorum* (Schult) (25%) ning o'zini ham kiritsa bo'ladi. *A.desertorum* Schult. ning ulushi qolgan GP lardan yuqori 25% tashkil etadi.

Turlarning ontogenezini o'rganishda T.A.Rabotnov [11:7, 204] tomonidan taklif qilingan, A.A.Uranov [12:3, 8; 13:7, 33] va uning sho'girdlari tomonidan yanada takomillashtirilgan va batafsil ishlab shiqilgan ontogenezning diskert tavsifi tushinchasi qabul qilindi. Yuqorida keltirilgan adabiyotlarda o'simliklarning hayotiy tsikli to'rt davrga bo'lingan: latent (yashirin), virginil, generativ va senil.

A.desertorum Schult. tsenopulyatsiyasining ontogenetik spektrlari: j-yuvenil; im-immatur; v-virginil; g1 - yosh avlod; g2-o'rta yoshdagi generativ; g3-eski generativ; ss-sub-senil; s-senil qilib o'rgandik.

№ GP	Yosh fraksiyalarining ulushi, %						
	j	im	v	g1	g2	g3	S
Gp1	0	9,88	25,86	38,24	14,76	13,26	-
Gp2	2,28	14,55	27,01	37,21	10,08	8,15	-
Gp3	-	7,19	22,14	27,13	23,32	15,76	4,46
Gp4	-	2,8	15,23	13,48	36,61	26,63	5,25
Gp5	-	4,2	12,76	16,18	33,25	29,92	3,69

1-jadval. *A.desertorum* Schult. tsenopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi.

A.desertorum Schult. tsenopulyatsiyalari ontogenetik strukturasi qaydagi ontogenetik spektrlarga ega bo'lishi aniqlandi.

Chap tomanlama ontogenetic spektr. Tur tsenopulyatsiyasi uchun chap tomanlama ontogenetik spektor GP1 va GP2 lar uchun hosdir va ushbu tsenopulyatsiyalar spektr tartibiga ko'ra dinamik populyatsiyalar, dep baholandi.

GP1 va GP2 lardagi yosh guruhlarning o'zaro uhash fraksiyalarda taqsimlanganligini aytib o'tish kerak. Unga ko'ra g1 individlarining ulushi bir biriga yaqin (GP1-38,24%, GP2-37,21%). GP1da generativ oldi novdalarining ulushi 35,74 % tashkil etadi. GP5 kabi yo'l atroflarida tarqalish mazkur tsenopulyatsiya uchun ham hosdir. Yo'l boyida joylashgan jarlikning eng chekkasida joylashganligi, yomg'ir suvlarining yuvilishi va muntazam kuchli shamol bo'lishi tuproqlarda tuplar yohari zichli va novdalari uncha chuqur bo'lmagan holda joylashgan. GP2 tsenopulyatsiyada qisman virginil (v) (27,01%) va asosan etuk generativ tuplar (g1) (37,21) ulushining ustunligi bilan GP1 ga ju'da yaqin turadi. Ushbu tsenopulyatsiya *A.desertorum* Schult. ning (j) tuplar uchraydigan yagona tsenopulyatsiya sifatida ham qarash mumkin. Bizningcha, *A.desertorum* Schult. da ontogenezining immatur bosqichi (im) ju'da qisqa davom etadi. Va generativ oldi davrining asosiy bosqichi (v) ga to'g'ri keladi. GP2 da bolsa sal boshqacha joy olgan o'simliklarga etarlicha suv uzgudori va jarlikta jo'ylashganligi sababli namlikning uzaq vaqt saqlanib qolishi sababli kam sonli namlik ham juvinil (j) lar ko'zga tashlanadi.

Markazlashgan ontogenetic spektr. Tsenopulyatsiyalarda qayd etilgan generativ individlarning (g2) ustunlik qilishi GP4 va Gp5 da kuzatildi. Subsenil tuplar ham uchraydi (5,25%). (g3) generativ individlarning ulushi (v) va boshqa qolgan (29,92%) tsenopulyatsiyalardan yoqari (GP4, Gp5). Agar spektorlar tarkibiga nazar tashlanadigan bolsak (1-jadval), GP3 va boshqa GPLar nisbatan yaqin

individlar tarkibiga ega ekanligini ko'rish mumkin. Yoqarida takidlaganimizdek, GP3 tuprog'i gipsli-oxaqtoshli, yirik toshlar aralashgan gipsli tuproqlar, Cho'rhoq maydonlar ham uchraydi. Bizningcha GP3ning ontogenetik spektri omillar tasiri sabab nisbatan chap tomonlama spektrga ega.

Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. tuplari soni va shunga ko'ra o'rtacha zichligi eng yohari bo'lgan tsenopulyatsiyalar sifatida yol yo'qasida joylashgan GP5, GP4 va jar yo'qasida joylashgan GP1 ni keltirish mumkin.

Barcha keltirilgan dalillar shundan iboratki, kamyob turlar saqlanuvchanligi uchun eng ko'p sadir bo'ladigan real tahdid ular evolyotsiyasi davomida moslashgan yashash joylarining buzilishi hisoblanadi.

Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. Tsenopopu-

lyatsiyalarining holati uchun to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va ayniqsa antropogen omillar ko'zga tashlanmaydi. Yoharida ta'kidlanganidek, tur tarqalgan yashash joylaridagi suv tuprog' eroziyasi, kemiruvchilar faoliyatini tsenopopulyatsiyalarining holatiga qisman salbiy ta'sir etuvchi omil sifatida keltirish mumkin.

Ayni ushbu omillar ta'sirida va turning biologik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, *A.desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyalari o'ziga hos struktura shakllantirishi aniqlandi. Agar tahlil etiladigan bo'lsa Sharqiy Ustyurtda *A.desertorum* Schult. tsenopopulyatsiyalari normal, lekin to'liq emas. Jumladan, GP1 va GP3, GP5 tsenopopulyatsiyalarda yuvini (j) tuplarni, senil (s) tuplarning esa GP1, GP2 tsenopopulyatsiyalarda uchramasligi hosdir (1-jadval).

Adabiyotlar

1. Айтмуратова Р.П. Динамика флоры Каракалпакстана / Динамика и потенциал природной среды Каракалпакстана. –Нукус Илим, 2017. –С 78-79.
2. Рачковская Е.И. Природные особенности растительности равнин / Ботаническая география Казахстана и Средней Азии (в пределах пустынной области). –Санкт-Петербург, 2003,С 13-18.
3. Shomuratov Kh., Saribaeva ., Akhmedov A. Distribution pattern and modern status rare plant species on the Ustyurt Plateau in Uzbekistan. // Arida ecosystems, 2015. Vol 5, №4. P, 261-267
4. Zonn I., Glantz M., Kostianoy A., Kosarev A. The Aral Sea Encyclopedia // Berlin Heidelberg: Springer-Verlag 2009. –P. 1-245. Doi: 10.1007/978-3-540-85088-5
5. BSAP. Biodiversity Strategy and Action Plan of Uzbekistan, 1998.-P 5-188
6. Kostianoy A.G., Kosarev A.H. The Aral Sea Environment / The handbook of Environmental chemistry/ -London, Verlag Berlin Heidelberg, 2010. Vol.7.-P. 7-335
7. Биркедал, Э. Дж., Ивааса, А. Д., Джефферсон, П. Г. (2014). Поведение мясного скота при выпасе отличается у диплоидных и тетраплоидных хохлатых пыреев (*Agropyron cristatum* и *Agropyron desertorum*). *Канадский журнал растениеводства*, 94, 851-855.
8. Ажиев А.Б., Бекбергенова Г.С. Изучение дикорастущих сородичей культурных растений Каракалпакстана из семейства Poaceae Varnbart // Материалы X международной конференции по экологической морфологии растений, посвященной памяти Ивана Григорьевича и Татьяны Ивановны Серебряковых.- Москва (Россия).- 2019.– С.32-36.
9. Ajiev A.B. Prospects for using the gene pool of wild relatives of cultivated plants of the Karakalpak Ustyurt flora // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.- 2021.- p. 95-100.- <http://khorezmscience.uz/en/index/single/3>.
10. E.S. Sulaymonov, X.Q. Haydarov, M.A. hasanov, X.H.Jalov, A.Q. Axmedov, Y.Sh. Toshpo'latov "Botanika fanidan o'quv dala amaliyoti uchun" Tashkent-2015
11. Работнов Т.А. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах / Тр. БИН АН СССР.- Москва, Ленинград, 1950. Серия. 3.-вып 6.-С. 7-204.
12. Уранов А.А. Онтогенез и возрастной состав популяций // Онтогенез и возрастной состав популяций цветковых растений. –М.: Наука, 1967, -С 3-8
13. Уранов А.А. Возрастной спектр фитоценопопуляции как функция времени энергетических волновых процессов // Научные доклады высшей школы. Биол. науки.- М.: Высшая школа, 1975, №2.-С7-33
14. https://organiclawn.ru/agropyron_desertorum/
15. https://organiclawn.ru/agropyron_fragile/
16. <https://universityagro.ru/растениеводство/житняк/>

REZYUME. Maqolada Sharqiy Ustyurtda o'siuvchi madaniy o'simliklarining yovvoyi ajdodlaridan biri *Agropyron desertorum* Schult. ning hozirgi holatini baholash, iqtisodiy ahamiyati o'rganish va o'simlikning ontogenezi o'rganish bo'yicha tahlillar olib borilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье *Agropyron Desertorum* Schult — один из диких предков культурных растений, произрастающих на территории Восточной Устюрты. Проведены анализы для оценки современного состояния растения, изучения его хозяйственного значения и изучения онтогенеза растения.

SUMMARY. In the article *Agropyron Desertorum* Schult is one of the wild ancestors of cultivated plants growing in the territory of Eastern Ustyurt. analyzes were carried out to assess the current state of the plant, study its economic significance and study the ontogenesis of the plant.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ZIZIPHUS JUJUBA MILL., O'SIMLIGINING INTRODUKSIYASI

U.T.Azilova – doktorant

A.B.Ajiev – biologiya fanlari doktori (DSc)

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: introduksiya, flora, anemiya, pulpa, chaylon, astma, chechak, gipertoniya.

Ключевые слова: интродукция, флора, анемия, пульпа, чойлон, астма, оспа, гипертоническая болезнь.

Key words: introduction, flora, anemia, pulp, choylon, asthma, smallpox, hypertension.

Bugungi kunda o'simliklar olamiga kuchli salbiy ta'sirlar ko'rsatilayotgan davrda Qoraqalpog'iston Respublikasi florasining bioekologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish, inson xo'jalik faoliyatiga foydali o'simliklarni shu jumladan *Ziziphus jujuba* Mill., (chilonjiyda) istiqbolli o'simlik turlarini ilmiy jihatdan tatbiq etish, o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitini inobatga olgan holda istiqbolli chilonjiyda turlarini introduksiya qilish orqali biz Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zarrachalarining sa'lbiy ta'sirini kamaytirishga erishamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-sonli "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarori 09/21/545/0832-sonli respublikaning tuprog'-iqlim sharoitlariga mos limon, unabi va grek yong'og'ining serhosil, kasalliklarga chidamli, eksportbop yangi navlarini yaratish bo'yicha seleksiya ishlarini jadallashtirish, yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va amaliyotga yangi navlarni joriy etishni nazarda tutgan ilmiy loyihalar belgilangan tartibda kiritilishini taminlashda chilonjiyda

(unabi) navlarini tatbiq etish orqali Qoraqalpog'iston Respublikasida degradatsiyaga uchragan yerlari uchun istiqbolli o'simlik sifatida ekish nazarda tutilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Markaziy Osiyo va O'zbekiston sharoitida *Ziziphus jujuba* Mill., (unabi) o'simligini introduksiya qilish qator olimlar tomonidan ko'p yillar davomida o'rganilib kelingan. Jumladan, bu boradagi dastlabki tadqiqotlar E.T.Axmedov, E.T.Berdiev, S.A.Ostroukova, L.V.Ponomarenko, A.V.Rindin, L.T.Tashmatovlar takidlashicha Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarida kam miqdorda bolsa ham bu ekin ekilgan, dastlabki ilmiy tadqiqot ishlari esa o'tgan asrning o'rtalarida olib borila boshlagan. Lekin, unabining yovoyi turlari ancha avvaldan bu hududlarda uchrab asosan buta tikanli yoki 4-9 m gacha balandlikdagi daraxt holda o'sgan [4:6-97]; [5:32-33]; [6:15,95].

MDX mamlakatlarida ta'kidlanishicha, bu ekin erta meva beradigan, qurg'oqchilikka chidamli, tuproq sharoitiga mos kelmaydi, nafaqat oziq-ovqat, balki dorivor va dekorativ ahamiyatga ega. A.P.Dragatsev (1966), V.A.Kolesnikov (1973), V.V.Vorontsov, U.G.Shteyman (1982), A.D.Mikeladze (1988) va boshqalar, unabi mevalarida 30% gacha quruq moddalar, asosan shakar (21-25%), kislotalar (0,47-1,87%) mavjudligini ko'rsatib o'tgan. Mevalar vitamin C ga boy (350 dan 735 mg% gacha), pektin moddalari (2,1-5,8 mg%), shuningdek, vitamin P moddalari (25-100 mg%) mavjud. Shuning uchun ular nafaqat oziq-ovqat mahsuloti, balki dorivor mahsulot sifatida ham qimmatlidir. Mevalar xom va quruq shaklda, shuningdek konserva ishlab chiqarishda qo'shimchalar sifatida iste'mol qilinadi. R.E.Loiko (2003) ma'lumotlariga ko'ra, pulpa tarkibida 17-76% quruq moddalar mavjud. Uglevod miqdori o'sayotgan maydonga qarab 14,5 dan 27,5% gacha o'zgarib turadi. Mevalarda 1,7% dan 3% gacha organik kislotalar (molik, süksinik va zipinik) mavjud. Mevalarda 1,2-1,6% oqsil, 0,1-0,3% yog', 0,6-1,4% tola mavjud [7].

Chilonjiydaning botanik ta'vsifi. Chilonjiyda (unabi) jumrutdoshlar - Rhamnaceae oilasiga mansub bo'lib bo'yi 2-5 m bo'ladigan tikanli daraxt, shoxlari har tomonga qarab tarvaqaylab o'sgan. Yosh shoxlari tuklar bilan qoplangan. Barglari choziq tuxumsimon yuqori tomoni bir oz cho'ziq plastinkasi assimetrik, yirik tomirli, qisqa bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket joylashgan. Barg plastinkasining uzunligi 3,5-4 sm, eni 1,5-2 sm, chetlari tishsimon, ustki tomoni tüksiz, yaltirok, rangi yashil pastki tomoni och yashil, tomirlari tuk bilan qoplangan. Barg bandi kam tukli, mayda yashilsimon rangli gullari barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan yarim soyabon to'pgulda joylashgan. Mevasi sharsimon yoki cho'zinchoq, to'q sariq-qizil rangli, mayda (uzunligi taxminan 1,3 sm, eni 1,2 sm) shirasi kam, yumshoq qismi quruqroq, mazasi nordon-shirin [8:15-95]; [9:3-22].

Meva danagi qizgish-qongir rangda, cho'zinchoq yirik, o'tkir uchli va qattiq bo'ladi. Mevaning 25-30% ni tashkil etadi may-iyun oylarida gullaydi, mevasi sentyabr-oktyabrda pishib yetiladi. Gullari yulduzchali, yashilsimon sariq, xidli, mayda 0,3-0,4 sm diametrga ega, ikki jinsli, qisqa bandlarda joylashgan [10:43-68]; [11:225-226], [8:12-54].

Chilonjiyda (unabi) mevasining urug'lari uzunchoq shaklda, ikkala uchi o'tkir bo'lib urug'i juda qattiq, unib chiqishga xalaqit beradigan alohida moddalarning (ingibitorlar) mavjudligi sababli aksariyat urug'lar unib chiqmaydi. Urug'lar unib chiqishi uchun tabiatda kuzatilgandek sharoitlarni yaratib, ularni stratifikatsiya qilish lozim.

Tadqiqot ishini o'tkazish uchun avvalo urug' sifati xalqaro talablarga ko'ra tekshirib ko'rildi [12]. Urug'lar Petri likobchalarida filtr qog'ozda t +22⁰ C haroratda 14


kun davomida undirildi (1-rasm). Urug unuvchanligi ungan, qattiq va chirigan qismlarga ajratib o'rganildi.

Uy sharoitida erta bahorda *Ziziphus jujuba* Mill., o'simligini urugidan hamda ko'chat sifatida ekish mumkin. Ekishdan oldin urug'larning tashqi qattiq qobigi olinib tashlanadi bu urug'larning tezda unib chiqishiga yordam beradi. Uruglar soni bazilarida ikki dona bo'lishi mumkin. Urug odatda +23 ° C da 1 hafta ichida unib chiqadi. Chilonjiyda (unabi) ko'chatlarini ko'chirib o'tkazish mumkin.



a)

b)



c)



d)

1-rasm. a) chilonjiyda urug'i, b)bo'rtish fazasi, c)ekish jarayoni, d)ko'karib chiqqan maysalari.

Tadqiqot ob'ektlari sifatida *Ziziphus jujuba* Mill., ning bir necha navlari Ta-yan-zao, U-sin-xun tanlab olindi. Mazkur navlarning ko'chatlari akademik M.Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti, va Samarqand Davlat Universiteti meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrasining ilmiy-tadqiqot markazidan olindi.

Tadqiqot ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasida Nukus shahri va Orolboyi xalqaro innovatsiya markazi tajriba uchastkasida olib borilmoqda. O'simlik navlari tajriba maydonlariga aprel oyining 2-dekadasida qator uzunligi 2m eni 3m uzunlikda ekildi. O'simlik navlarining qaysi turga tegishli ekanligi O'zFA "Botanika" ilmiy-tadqiqot instituti Markaziy gerbariysi tomonidan ishlab chiqilgan «Informatsionnaya sistema FLORUZ» (2013) yordamida aniqlandi.

Tajriba dalalarida bajariladigan barcha agrotexnik jarayonlar shu mintaqada keng qo'llanilayotgan uslublar asosida hamda o'rganilayotgan o'simliklarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

O'simlikning o'sishi va rivojlanishi yuzasidan fenologik kuzatuvlar olib borilmoqda. Dala tajribalarida o'simliklar 5 qator bo'lib joylashgan kuzatishda 3 ta yerdan konvert usulda jami 27 ta o'simlik kuzatishga olingan (2-rasm).



1

2



3



4

2-rasm. 1) *Ziziphus jujuba* Mill., ni tajriba maydoni, 2) gullash fazasi, 3) yaproqlarining tuzilishi, 4) xom mevasi.

Chilonjiyda o'simligining 2 yillik ko'chatlari 2024-yilning 10-aprel kuni tajriba maydoniga ekib chiqildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sho'rlangan tuproq sharoitida unuvchanligi yuqori darajada. O'simlik vegetatsiya davridan to generativ davrga o'tgungacha har 3-4 kun oralig'ida o'rtacha uzunligi, bargining soni, uzunligi hisoblab borildi. *Ziziphus jujuba* Mill., ning dorivorlik xususiyati yuqori baholanadi.

Adabiyotlar

1. Azilova U.T. *Ziziphus jujuba* Mill., Qoraqalpog'istonda./ Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti "Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini innovatsion texnologiyalar asosida barqaror rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman to'plami, 2024-yil 24-25 may, Andijon.
2. Azilova U.T., Ajiyev A.B. Перспектива внедрения унаби-*Ziziphus jujuba* Mill., в Республике Каракалпакстан. /Guliston Davlat Universiteti "O'simlik mahsulotlarini yetishtirishda kimyoviy, biotexnologik va molekulyar genetik yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami, 2024-yil 23 aprel. –Guliston:
3. Azilova U., Ajiyev A.B. *Ziziphus jujuba* Mill.,ni Qoraqalpog'iston Respublikasida tatbiq qilish istiqbollari./ Нукусский Государственный Педагогический Институт имени Ажинияза «Табиий фанларнинг долзарб масалалари» mavzusidagi V-xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari TÛPLAMI 16 may, 2024 й. Нукус
4. Ахмедов Э.Т., Бердиев Э.Т. Чилонжийда - истикболли шифобахш усимлик. –Тошкент: 2017. 97-б.
5. Остроухова С.А. Китайские финики в Узбекистане. // Садоводство. 1972. №1. -С. 32-33.
6. Пономаренко Л.В. Китайский финик на Кубани. Сб. материалов региональной научно-практической конференции. Кубанский ГАУ. Краснодар, 2005. -С. 15-95.
7. Пономаренко Л.В. Биологические особенности хозяйственная оценка Китайского финика в Прикубанской зоне садоводства материалов автореферат Кубанский ГАУ. –Краснодар: 2005. - С. 5-8.
8. Синько Л.Т. Методические рекомендации по возделыванию зизифуса в Крыму. –Ялта: 1992. –С. 36.
9. Бурлей Г.В., Бурлей М.В. Унаби юба. –Краснодар: 1996. - С. 43-68.
10. Губанов И.А. Унаби юйюба - *Ziziphus jujuba* Mill. /И.А.Губанов. //Дикорастущие полезные растения СССР. – Москва: 1976. - С.225-226.
11. Колесников А.И. Китайский финик (ююба)/ А.И. Колесников. –Москва: 1956. - С. 15- 54.
12. Международные правила анализа семян.- М.: «Колос», 1984. –С. 310.
13. Хаджиматов М. Дикорастущие лекарственные растения Таджикистана. –Душанбе: 1989. –С. 368.
14. Асқаров И.Р. Табобат комуси. -Т.: "Мумтоз сўз". 2019. 1142-б.

РЕЗЮМЕ. Мақоллада Қорақалпоғ'истон Республикасига *Ziziphus jujuba* Mill., ni интродукция қилишнинг мақсади, вазифаси ва уни yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati, dala sharoitida o'stirish usullari bo'yicha tahlillar o'lib borilgan. Unabi mevasining ko'pgina shivobaxsh xususiyatlari keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы цель и задача интродукции унаби в Республику Каракалпакстан, экономическое значение его выращивания, а также способы выращивания в полевых условиях. Было упомянуто множество лечебных свойств плодов унаби.

SUMMARY. In the article, the goal and task of introducing *Ziziphus jujuba* Mill., to the Republic of Karakalpakstan, the economic importance of its cultivation, and the methods of cultivation in field conditions were analyzed. Many medicinal properties of unabi fruit have been mentioned.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ БИОРАЗНООБРАЗИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ

У.К.Кудайбергенова – доктор философии биологических наук, доцент
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: жанубий Оролбўйи, Устюрт платоси, мониторинг, биохилма-хиллик, экотуризм.

Ключевые слова: южное Приаралье, плато Устюрт, мониторинг, биоразнообразие, экотуризм.

Key words: southern Priaralie, plateau Usturt, monitoring, biodiversity, eco-tourism.

В настоящее время регион Южного Приаралья с ее обширной территорией, с разнообразием экосистем и видовым составом нуждается в развитии специальных исследований, направленных на инвентаризацию, оценку состояния биоразнообразия, развитие системы мониторинга, на разработку принципов и методов сохранения природных биосистем [7:784-792].

Проблема состояния биоразнообразия фауны, и их динамика в условиях интенсивной аридизации региона Приаралья требует всестороннего углубленного изучения. В связи с этим необходимо провести инвентаризацию биоресурсов нашего региона и разработать меры и

пути их охраны. Изменения природной среды Каракалпакстана под воздействием экологического кризиса привели к деградации и трансформации всех компонентов экосистем региона. За последние десятилетия в природе исчезли и продолжают исчезать многие виды животных и растений, разрушаются уникальные природные комплексы, что вызывает большую тревогу и серьезные опасения.

Трансформация местообитаний приводит и к угрозе сокращения видового богатства, численности, ареалов многих видов животных и растений. Быстрыми темпами происходит сокращение биологического раз-

нообразия. Только за последнее столетие исчезли такие крупные виды млекопитающих, как кулан, гепард. На грани исчезновения находятся такие виды, которые еще недавно встречались сотнями тысяч - сайгак, джейран, азиатский муфлон, из птиц дрофа-красотка [2:11-12].

Плато Устюрт является одним из древнейших пустынь Евразии. Поверхность плато Устюрт представляет возвышенное плато с абсолютными высотами 160-300 м над уровнем моря, окаймлённые со всех сторон более или менее отчётливыми обрывами, так называемыми чинками, высотой 190-256м. В зависимости от климатических особенностей и физико-географических условий, закономерности строения растительного покрова и засоленности почвы на территории Каракалпакской части Устюрта выявлены гипсовые, солончаковые и песчаные пустыни [1:48-51; 6:20-21].

В последние годы с интенсивным освоением территории Устюрта резко возросло влияние антропогенных факторов (строительство железных дорог, газопроводов и т.п.) на динамику ландшафта и растительных сообществ, видового разнообразия фауны и ее биопродуктивности.

С экологической точки зрения, для оценки устойчивости биоты может применяться критерий наличия разнообразных редких таксонов (редких видов живых организмов, существенно различаемых по экологическим нишам, трофическим уровням, а также по размерным классам территории, необходимой для существования их популяций) в пределах всей экологической амплитуды их местообитаний [8:117-143; 9:132-159]. Так, например, для многих видов (сайгак, джейран и др.) произошло резкое сокращение численности, а отдельные виды (гепард, кулан и др.) совсем исчезают из фаунистического комплекса региона. Они занесены в Красную книгу Республики Узбекистан, Красный список Всемирного союза охраны природы (МСОП), а также в Приложение Конвенции по торговле исчезающими видами (СИТЕС), членом которой является Республика Узбекистан.

В настоящее время в нашей республике поэтапно проводятся комплексные мероприятия по созданию системы охраняемых природных территорий в целях сохранения уникальных природных комплексов, генофонда растений и животных, предотвращения антропогенного прессинга на природную среду, а также изучения природных процессов, проведения мониторинга окружающей среды, экологического просвещения и воспитания молодого поколения. Созданы новые виды охраняемых природных территорий - государственные биосферные резерваты, комплексные (ландшафтные) заказники, способствующие сохранению и восстановлению ландшафтов, видов растительного и животного мира, в том числе редких и исчезающих, занесенных в Красную книгу Республики Узбекистан, других природных объектов и комплексов, а также улучшению экологической обстановки, обеспечению рационального использования природных ресурсов.

В соответствии с постановлением Президента 20.03.2019г. № ПП-4247 «О мерах по совершенствованию системы государственного управления в сфере охраняемых природных территорий» принято постановление Кабинета Министров от 11.11.2020 г. № 707 «Об организации национального природного парка «Южный Устюрт». Согласно данному Постановлению в целях улучшения состояния экосистемы на территории природного парка, сохранения и восстановления уникальных видов растений и животных создан национальный природный парк «Южный Устюрт» общей площадью 1447443га на территории Кунградского района Республики Каракалпакстан (рис.1). Национальный природный Парк является структурным подразделени-

ем Министерства Экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Республики Узбекистан и имеет особое природоохранное, эколого-просветительское и рекреационное значение как уникальный природный комплекс, в составе которого имеется большое биоразнообразие флоры и фауны.




Рис.1. Карта схема расположения ОПТ «Южный Устюрт»

Южный Устюрт представляет собой широко-волнистую равнину, которая местами нарушается пологими волнообразными склонами и широкими котловинами (солончаками и такырами). Почвенный покров – бурые почвы разной степени засоления, переходящие в серозем с соответственным распределением растительности. По данным ученых, здесь зарегистрировано 426 видов растений, относящихся к 41 семейству и 225 родам. Эдифицирующие виды биюргун, боялыш, кейреук и полынь занимают огромные территории [1:48-51; 3:95].



Рис.2. Флористический состав южной части плато Устюрт

В растительном покрове этой ассоциации широко распространена *Haloxylonaphyllum*, следующие растения - *Zygophyllumpinnatum*, *Gypsophilaperfoliata*, *Artemiziaterrae* - *albae*, *Lyciumruthenicum*, *Zosimaorientalis*, *Scorzonerapusilla*, *Salsolaarbuscula*, *Atraphaxisspinosa*, *HaplophyllumBungeti*, *Sisymbriumsubspenescens*, *Alliumborszczowii* характеризуются малочисленностью. Большая часть кустов чёрного саксаула в полумёртвом состоянии, выделяются молодые саксауловые заросли (рис.2).

Также ученые и специалисты отмечают, что в глинисто-пустынных равнинах с полынно-солянковой растительностью, занимающих обширные пространства плато, встречается 35 видов млекопитающих, многие из которых являются обычными [4:11-12]. Грызуны составляют почти половину видового состава фауны млекопитающих. Местами высока плотность гребенщи-

вой и полуденной песчанок, желтого суслика [4:115-128; 5:14-19]. Солончаки, глубокие впадины и такыры и имеют бедную, но своеобразную фауну. Здесь обитает 19 видов млекопитающих. Численность почти всех видов невысокая. В результате проведенного обследования нами были отмечены 15 видов млекопитающих, пять из которых: индийский медоед *Mellivoracarpensis* (рис.3), туркменский каракал *Caracalcaracalmichaelis*, туркменский кулан *Equushemionuskulan*, джейран *Gazellassubgutturosa* внесены в Красную книгу РУз (2019).



Рис.3. Индийский медоед *Mellivoracarpensis* (2023)

Основными угрозами для биоразнообразия плато Устюрт считаются сокращение и фрагментированное деление участков местообитания, нарушение путей миграции, неустойчивое использование пастбищ, усиленное промышленное освоение разведка эксплуатация природного газа строительство рельсовых и асфальтированных дорог и т.д. [2:12].

В таких условиях изучение перестройки сообществ наземных позвоночных и влияние техногенных факторов на биоразнообразии приобретает большое научно-теоретическое и практическое значение. Причины сокращения численности редких видов и их исчезновение из занимаемых биотопов, происходят, в

большинстве случаев, на относительно ранних стадиях деградации экосистемы, когда такие изменения носят обратимый характер и многие функционирующие свойства природных сообществ полностью не утрачены (рис.4).



Рис.4. Влияние антропогенного фактора на экосистему плато Устюрт

Поэтому на Южном Устюрте еще сохранились менее деградированные площади, которые представляют интерес с точки зрения организации охраняемой природной территории, как для редких видов, так и, особенно, для сохранения биомных видов. Сбереечь таки территории является важная и необходимая задача. Неблагополучное состояние редких видов представителей флоры и фауны может быть использовано для ранней диагностики нарушения экологического баланса.

Таким образом, на основе научных инновационных технологий, позволяющих проводить экологический мониторинг за путями миграции и мест зимовки животных считаем необходимым использовать вновь созданные охраняемые природные территории как научно-исследовательские базы для подготовки молодых специалистов и дальнейшего развития экологического туризма.

Литература

1. Аймуратов Р.П., Пиржанова Р.К. Состояние биоразнообразия экосистем южного подрайона плато Устюрт в условиях техногенного и антропогенного пресса. // Вестник ККО АНРУз. 2009. № 3. - С. 48-51.
2. Аймуратов Р.П., Матекова Г.А., Пиржанова Р.К. Современное состояние растительного и животного мира Каракалпакской части Устюрта. // Проблемы рационального использования и охрана биологических ресурсов южного Приаралья. Тез. докл. Междун. научн.-практ. конф. (22-23 июня 2012 г.) – Нукус: 2012. - С. 12.
3. Аймуратов Р.П., Пиржанова Р.К., Танирбергенова А.Б. Современная динамика тенденций антропогенных и техногенных изменений растительного покрова плато Устюрт // Сб. тезисов VI Международ. научно-практ. конфер. «Проблемы рационального использования и охрана биологических ресурсов Южного Приаралья». – Нукус: 2018. Ч.1. - С.95.
4. Реймов Р.Р. Грызуны Южного Приаралья (систематика, экология и хозяйственное значение). –Ташкент: 1987. –С. 128.
5. Реймов Р.Р. Эколого-географическая характеристика териофауны Южного Устюрта. // Вестник Каракалпакского филиала АН РУз. 1981. № 4(86). -С. 14-19.
6. Тажимуратов П.А. Современный флористический состав Каракалпакской части Устюрта. // Вестник ККО АН РУз. – 2001. №6.-С. 20-21.
7. Шакин В.В. Биосистемы в экстремальных условиях. // Журнал общей биологии. 1991. Т.52. № 6. - С. 784-792.
8. Шварц С.С. Экологические закономерности эволюции. – М.: «Наука», 1980. –С. 288.
9. May R. M. Stability and complexity in model ecosystems. PrinntonUniv. Press, Prinnton, 1973. № 4. -P. 33-35.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Жанубий Оролбўйи биохилма-хиллигининг бугунги ҳолати ва ушбу минтақада экотуризмни ривожлантиришни истикболли ёналишлари муҳокама қилинади. Устюрт платоси ҳудудининг жадал ривожланиши кузатишмоқда, бу антропоген омилларнинг ландшафт динамикасига, ўсимликлар жамоаси ва фаунанинг тур хилма-хиллигига таъсири билан бирга келади. Шу муносабат билан биологик хилма-хилликни доимий мониторинг қилиш, шунингдек, туризм инфратузилмасини ривожлантиришга инвестициялар киритиш зарур.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются вопросы современного состояния биоразнообразия Южного Приаралья и перспективные направления развития экотуризма в данном регионе. Происходит интенсивное освоение территории плато Устюрт, которое сопровождается влиянием антропогенных факторов на динамику ландшафта растительные сообщества и видовое разнообразие фауны. В связи с этим необходим постоянный мониторинг биоразнообразия, а также инвестиции в развитие туристической инфраструктуры.

SUMMARY. In the article the questions of the modern state of biodiversity of Southern Priaralie and perspective directions of development of ecological tourism in this region. There is the intensive mastering of territory of plateau Usturt, that is accompanied by influence of anthropogenic factors on the dynamics of landscape, vegetable associations and specific variety of fauna. In this connection the permanent monitoring of biodiversity, and also investments is needed in development of tourist infrastructure.

УДК 581.52:582.951.4

**ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН *ATROPA BELLADONNA L.*,
ECHINOPS RITRO L. ЎСИМЛИКЛАРИНИ ИНТРОДУКЦИОН БАҲОЛАШ**

Г.А.Кутлымуратова – биология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар. *Atropa belladonna L. Echinops ritro L.*, доривор ўсимликлар, интродукция, интродукцион баҳолаш, шкала.

Ключевые слова: *Atropa belladonna L. Echinops ritro L.*, лекарственные растения, интродукция, оценка интродукции, шкала.

Key words: *Atropa belladonna L. Echinops ritro L.* medicinal plants, introduction, the introduction of the evaluation, scale.

Кирриш. Республикамизда илмий тиббиёт ва халқ табобатида фойдаланиладиган доривор ўсимлик турларини баҳолаш ва маҳаллий ўсимлик хом ашёлари асосида табиий дори воситалари ишлаб чиқариш, маҳаллий фармацевтика тармоқларида кенг фойдаланиладиган доривор ўсимликларни аниқлашга доир қатор илмий изланишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «фармацевтика саноатини янада ривожлантириш, аҳолини ва тиббиёт муассасаларини арзон, сифатли дори воситалари билан таъминлаш» [1] каби муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу эса Қорақалпоғистон шароитида истиқболли доривор ўсимликларнинг биоэкологик хусусиятларини аниқлаш, интродукциясини амалга ошириш ва етиштиришнинг агротехник тадбирларини ишлаб чиқиш янада долзарб аҳамият касб этишини кўрсатади.

Интродукция қилинаётган доривор ўсимликларнинг биологик хусусиятларини ўрганиш, уларнинг турли шароитларга мослашув йўллари излаш, турли даражадаги таксонлар структурасидаги филогенетик ўзгаришларни билиш алоҳида долзарб масала. Ундан ташқари биохилмаҳилликка таҳдид олиб бориши шароитида интродукция қилинаётган ўсимликлар ҳақидаги материалларни кўпроқ тўплаш керак. Бундай маълумотларни таҳлил қилиш интродукция жараёнида интродуцент ўсимликларни баҳолаш ва уларнинг истиқболли эканлигини аниқлаш имкониятларни кенгайтиради [6,7].

Хўжалик доирасида химояга мухтож ерларни ажратиш олиш зарурати пайдо бўлди. Ташкил этилган, кўриқхоналар кўпгина ўсимликларни ёввойи ҳолда унумли фойдаланиш мақсадида, маданий ҳолга киритиш учун биологик хусусиятларини ўрганиш зарур. Шунинг учун доривор ўсимликлар устида олиб борилаётган тадқиқотлар захираларни максимал сақлаб қолишга интродукция жараёни интродукция қилинаётган ўсимликларни ҳар томонлама (ўсиши ва ривожланиши, ҳосилдорлиги ва муайян шароитга чидамлилиги) интродукцион баҳолаш билан тугалланади [2,7].

Материал ва тадқиқот методлари. Интродукция қилинган ўсимликларнинг мослашиш жараёни ва натижаларини интродукцион баҳолаш, ўсимликлар ўсаётган интродукция шароити, ўсиш ва ривожланиш хусусиятлари, уларнинг ҳаётий шаклига асосланиб шкалаларда балл билан баҳоланади ёки турли хил усуллар ёрдамида амалга оширилади.

Субарктика шароитида интродукция натижаларини баҳолаш бир йиллик ўсимликларда Г.Н.Андреев (1972) ва кўп йиллик ўт ўсимликларда Б.А.Головкин (1973) лар томонидан тақлиф этилган [4,5,6].

Н.А.Базилевская (1964) ўт ўсимликларининг интродукцияси ва иқлимлаштирилиши натижаларини 6 балли шкала асосида баҳолаган. П.И.Лапин, С.В.Сиднева (1975)лар дарахт ўсимликларнинг интродукция натижаларини 100 балли шкалага асосан, ўсимликнинг габитуси, пояларнинг ўсиши, қишда сақланиши ва уларнинг кўпайишини эътиборга олиб визуал усулда баҳоладилар. Н.А.Карписонова (1978) эса, ўт ўсимликларининг интродукцияси натижаларини баҳолашда, ўсимликнинг уруғдан кўпайиши, юқори ва паст ҳароратнинг таъсири, касаллик ва ҳашаротлардан зарарланишига асосан балли шкалани тавсия этган [2,3,4].

Республикамиз шароитида И.В.Белоліпов (1971-1983) томонидан тавсия этилган ўсимликлар интродукциясининг натижаларини баҳолаш экоинтродукцион шкаласи 0 дан 5 баллгача бўлиб: 5 балл ўсимликлар турларини бегона ўсимликларга нисбатан устунлиги ва улардан яхши ўсиши, 4 балл агротехник тадбирлар қўлланилмасдан, ривожланишнинг ҳамма даврини ўташи ва уруғларнинг тўқилиши билан ўз ўзидан кўпайиши, 3 балл ўсимликлар турлари ҳар йили кўпаймайди ва агротехник тадбирлар амалга оширилмаса ўсмайди, 2 балл ўсимликлар турлари ҳар йили гулламайди ва меваларнинг шаклланиши узлукли, уруғдан табиий ҳолда кўпаймайди, вегетатив йўл билан кўпайтирилади, 1 балл ўсимликлар турлари интродукция шароитида 2-3 йил ўсади, лекин табиий ҳолда кўпаймайди, 0 балл ўсимликлар турлари интродукция шароитида ўсмайди, баъзи бир ҳолларда эса, 1-вегетация давомида ёки ундан кейин куриб қолади. Кейинчалик Ю.М.Мурдахоев (1992), доривор ўсимликларнинг интродукция шароитидаги ўсиш ва ривожланиш хусусиятларини, мослашиш жараёнини уларнинг флористик ареаллари, ҳаётий шакли ва экогеографик тарқалиш хусусиятларига боғлаб ўрганган [2,9].

Биз эса, илмий ишларимиз давомида ўсимликларни интродукцион баҳолаш учун Р.А.Карписонова (1978), И.В.Белоліпов (1976) ва Ю.М.Мурдахоев (1992) ларнинг интродукцион баҳолаш шкалаларини ва фикларини умумлаштирдик [9].

Шунингдек, Б.Ё.Тўхтаев (2009)нинг, Ўзбекистоннинг шўр тупроқларида доривор ўсимликларнинг интродукцияси ва униинг натижаларини баҳолаш, доривор ўсимликларни интродукция жараёнидаги экологик кўрсаткичларини асослаш, шўрга чидамlilik даражаси, уруғ унувчанлиги, қўчат кўкарувчанлиги ва сақланишига асосланган градиациялаш принципига суянган ҳолда, илмий тажрибаларимизда интродуцент ўсимликларни баҳоладик.

Б.Ё.Тўхтаев (2009) томонидан ишланган мазкур шкала 5 кўрсаткичдан иборат бўлиб, уч даражага (кўп, ўртача, кам ёки паст) бўлинган. Кўрсаткичлар ва даражалар турлича баҳоланади ва умумий баҳо 100 баллни ташкил этган. Шўр тупроқларда доривор ўсимликларни интродукцион баҳолаш қўйидаги 1-жадвалга асосан тартибга солинди.

1-Жадвал. Шўр тупроқларда доривор ўсимликлар интродукцияси натижаларини баҳолаш шкаласи

№	Кўрсаткичлар	Кўрсаткичлар даражаси			Юқори баҳо
		1	2	3	
I	Шўрланишга чидамлилиги	Кучли	Ўртача	Паст	30
II	Намликка бўлган талаби	Кам	Ўртача	Кўп	15
III	Юқори ҳароратга нисбатан ҳолати	Чидамли	Ўртача	Чидамсиз	15
IV	Паст ҳароратга нисбатан ҳолати	Чидамли	Ўртача	Чидамсиз	15
V	Табиий ҳолда кўпайиши	Жадал	Ўртача	Кўпаймайди	25

Изоҳ I. Шўрланишга чидамлилиги: 30-кучли; 20-ўртача; 10-паст. Ўсимлик турларининг ўсиши, ривожланиши ва

ҳосилдорлиги асосида баҳоланган. II. Намликка бўлган талаби: 15-кам; 10-ўртача; 5-кўп. Ўсимлик турларининг вегетацияси давомида бериладиган сугорилиш миқдори асосида баҳоланган. III. Юқори ҳароратга нисбатан ҳолати: 15-чидамли; 10-ўртача; 5-чидамсиз. Ўсимлик турларининг йилнинг иссиқ даврларидаги ҳолатига асосан баҳоланган. IV. Паст ҳароратга нисбатан ҳолати: 15-чидамли; 10-ўртача; 5-чидамсиз. Ўсимлик турларининг йилнинг совуқ даврларидаги ҳолатига асосан баҳоланади. V. Табиий ҳолда кўпайиши: 25-жадал; 15-кам; 5-кўпаймайди. Ўсимлик турларининг уруғлари пишиб тўкилиши, илдиэно ва туганак илдиэнонинг кўпайиши асосида баҳоланади.

Муаллиф ўсимликларни интродукцион баҳолашда 20-39 оралиғида баҳо олган ўсимликлар истикболли эмас, 40-59 оралиғида кам истикболли, 60-79 оралиғида истикболли, 80-100 оралиғида ўта истикболли ўсимликлар сифатида баҳолаган [9].

Натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Айнан шу принципга асосланиб, Қорақалпоғистоннинг икки худуди (Элликқалъа ва Кегейли туманлари) да олиб борган илмий тадқиқотларимизда, интродуцентлар икки тур доривор ўсимлик – Оддий беладонна (*Atropa belladonna L.*) ва Оқ кундуз (*Echinops ritro L.*) ни интродукцион жиҳатдан баҳоладик (2-жадвал).

2-Жадвал. Шўр тупроқларда Оддий беладонна (*Atropa belladonna L.*) ва Оқ кундуз (*Echinops ritro L.*) интродукция натижаларини баҳолаш (%%)

№	Ўсимликлар номлари	Кўрсаткичлар					
		шўрланишга чидамлиги	Намликка бўлган талаби	юқори ҳароратга нисбатан ҳолати	паст ҳароратга нисбатан ҳолати	табиий ҳолда кўпайиши	Умумий интродукцион баҳолаш
ўртача шўрланган тупроқлар							
1	<i>Atropa belladonna L.</i>	20	10	15	15	25	85
2	<i>Echinops ritro L.</i>	30	10	10	15	25	90

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Бабаджанов Р. Интродукция древесных растений на Юге Каракалпакстана: Автореф. дис...канд.биол. наук. -Ташкент: 2010.
3. Белюлипов И.В. Краткие итоги первичной интродукции растений природной флоры Средней Азии в Ботаническом саду АНУЗССР.
4. Белюлипов И.В. Опыт интродукции травянистых растений природной флоры Средней Азии (Эколого-интродукционной анализ): Автореф. дис. ... докт. биол. наук. - М.: 1983. –С. 48.
5. Белюлипов И.В. Интродукция травянистых растений природной флоры Средней Азии (эколого-интродукционный анализ). - Ташкент: “Фан”, 1989. –С.148.
6. Бейдеман И.Н. Методика фенологических наблюдений при геоботанических исследованиях. -М.: 1954. –С. 128.
7. Кутлымуратова Г.А. Қорақалпоғистон шароитида истикболли доривор ўсимликларнинг интродукцияси ва биоэкологик хусусиятлари. Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Нукус: 2021. –С. 4.
8. Интродукция и акклиматизация растений. - Ташкент: “Фан”, 1980. Вып. 13. -С. 9-58.
9. Тўхтаев Б.Ё. Ўзбекистоннинг шўр ерларида доривор ўсимликларнинг интродукцияси. Автореф. дис. ... докт. биол. наук. – Ташкент: НПП «Ботаника» АН РУз. 2009.
10. Хазиева Ф.М., Конон Н.Т. Интродукция *Atropa belladonna* (Solanaceae) в Московской области. // Раст. ресурсы. 2009. Т. 45, Вып. 2. – С. 31-36.

РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада Қорақалпоғистон шароитида интродукция қилинган қимматбаҳо *Atropa belladonna L.*, *Echinops ritro L.* доривор ўсимликларнинг биологик хилма-хиллигини сақлаш ва доривор ўсимликларни интродукция қилиш жараёнларини такомиллаштириш, интродукцион баҳолаш шқалалари ҳақида маълумотлар берилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье представлены ценные виды *Atropa belladonna L.* и *Echinops ritro L.*, интродуцированные в условиях Каракалпакстана, и дана информация о сохранении биоразнообразия лекарственных растений, совершенствовании процесса интродукции и шкалы по оценке интродукции.

SUMMARY. This article presents the valuable species *Atropa belladonna L.* and *Echinops ritro L.*, introduced in the conditions of Karakalpakstan, and information is given on the preservation of the biodiversity of medicinal plants, the improvement of the process of introduction and the scale for evaluating introduction.

Шундай қилиб, шўр тупроқларда доривор интродуцент ўсимликларнинг интродукцияси натижаларига кўра:

Оддий белладоннани шўр тупроқларда ўстириш жуда қийин. Ўсимликлар уруғдан экилганда, унувчанлик ўртача 47,7% ва сақланиш 33,3% дан ошмаган ёки кўчатдан экилганда кўқарувчанлик ўртача 54,2% ва сақланиш 4,0% ни ташкил этган. Вегетация давомида ўсимликларнинг ўсиши юқари бўлиб, ҳолати яхшилашган. Қорақалпоғистоннинг экологик шароити ва ўртача шўрланган тупроқларида ўсиб ривожланишга мойил. Бу ўсимликни мазкур худудда интродукция қилиш ва кенг масштабли плантацияларини ташкил қилиш қайд этилган агротехнологик тадбирларни бенуксон бажарган тақдирда истикболли деб топиш мумкин.

Оқ кундуз Қорақалпоғистоннинг шўр тупроқларида истикболли ўсимликлар гуруҳига киритилди. Мазкур интродуцентнинг бу гуруҳга киритилганлигининг сабаби, ўсимлик асосан уруғдан ва вегетатив усул билан ҳам кўпайтирилади. Уруғларнинг унувчанлиги 13,8-62,1% ва сақланиши 62,7-100%, кўчатларнинг кўқарувчанлиги 87,5 дан 100% гача ва сақланиш 72,4-80,0% ни ташкил этган. Шўр ерларда бу турлар вегетация бошидан охиригача яхши ўсган, Тез адаптация бўлади ва биринчи йилдан онтогенезда барча босқичларни ўтайди.

Хулоса. Қорақалпоғистон шароитида интродукция қилинган *Atropa belladonna L.* ва *Echinops ritro L.* ўсимликларини интродукцион баҳолаганда шуни хулоса қилиш мумкинки, ўртача шўрланган тупроқларга экилганда *Atropa belladonna L.* 85 баҳо, *Echinops ritro L.* 90 баҳо билан баҳоланди. Шуни айтиш жоизки, бу ўсимликлар Қорақалпоғистон шароитида интродукция қилинганда истикболли ҳисобланди.

ҚОРАҚАЛПОҚ УСТЮРТИДА *EUPHORBIA SCLEROCYATHIUM* ЦЕНОПОПУЛЯЦИЯЛАРИНИНГ ТАРҚАЛГАН ХУДУДЛАРИ ТАВСИФИ



Sh.B.Tamambetova – *biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Таянч сўзлар: *Euphorbia sclerocyathium*, Устюрт платоси, ценопопуляция, максимал ва минимал ҳарорат, умумий қуёш радиацияси, ўртача йиллик ёғингарчилик.

Ключевые слова: *Euphorbia sclerocyathium*, плато Устюрт, ценопопуляция, максимальная и минимальная температура, общая солнечная радиация, среднегодовые осадки.

Key words: *Euphorbia sclerocyathium*, Ustyurt plateau, cenopopulation, maximum and minimum temperature, total solar radiation, average annual precipitation.

Қириш. Қорақалпоғистон Устюрти Ўзбекистон Республикасининг ғарбида жойлашган бўлиб, шарқдан асосий қисми чўлга айланган Орол денгизи билан чегарадош (1-расм). Устюрт асосан 160-300 м баландликдаги платодан ташкил топган [15]. Унинг шарқда (Ақтумсуқ бурни атрофи, 219 м), марказида (207 м) ва жануби-ғарбида (Қорабаур кўтарилмаси, 275 м) бир нечта баланд жойлар мавжуд. Асосий ботиклари Борса-келмас шўрхоғи (денгиз сатқидан 50 м), Асакаовдан чўкмаси (денгиз сатқидан 29 м) ва Сарикамиш қўли бўлиб саналади [13]. Ўрта Осиёни ва Қозоғистоннинг, шунингдек, Ўзбекистоннинг ботаник-географик районлаштирилишига кўра, Устюрт платоси Шимолий Турон провинциясининг Шимоли-Ғарбий Турон кичик провинциясига тегишли [6; 9].



1-расм. Қорақалпоғистон худудидаги Устюрт платоси Устюртнинг умумий майдони 27,2 млн га бўлиб, шундан 7,2 млн га Қорақалпоғистон худудига тўғри келади [14; 15].

Устюрт иқлими кескин континентал бўлиб, ёзнинг қуруқ иссиқлиги ва қишининг қаттиқ бўлиши билан ажралиб, кучли шамоллар, атмосфера ёғинларининг кам миқдорда бўлиши (70-110 мм/йил), барқарор бўлмаган қор қоплами, юқори ўзгарувчанлик ва йилнинг фасллари ва кунга қараб ҳароратнинг кескин ўзгариши билан характерланади. Мутлоқ максимал ҳарорат +45,5°C (июль), минимал -37°C (январ). Кундалик ҳаво ҳарорати +10°C га ўтиш санаси апрель ойининг учунчи ўн кунлигидир. Қишда тупроқ 5-15 см чуқурликда музлайди. Умумий қуёш радиацияси 130-140 ккал/см² га етади, радиация баланси эса йилига 45-50 ккал/см² ни ташкил қилади. 10°C дан юқори ҳарорат йиғиндис 3000-3400°C га етади. Ўсиш даври 200-210 кун давом этади. Совуқ бўлмаган даврнинг давоми

шимолий қисмида 175-187 кун, жанубий қисмида 187-215 кун. Узоқ муддатли ўртача йиллик ёғингарчилик жанубий қисмида эса 80-120 мм. Бугланиш жуда катта қийматларга (1500-2000 мм) етади. Атроф-муҳит шароитининг ёмонлашиши билан узоқ муддатли қаттиқ қиш ва иссиқ қуруқ ёз кузатилади. 1970-1980 йилларга нисбатан атмосфера ёғинлари миқдори 20-30 мм га, ер ости сувлари 3-12 м чуқурликка қамайди. Тупроқнинг шўрланиши 1,2-1,5 марта ошди.

Euphorbia sclerocyathium – кумли ва тошли чўллarda тарқалган тур саналади. Адабиёт маълумотларга кўра тур рельеф шакллари, тупроқнинг механик таркиби билан ўзаро фарқ қилувчи жойларда ўсади, бироқ шўрланган ва она жинс қатламлари юза жойлашган худудлар тур учун мақбул саналади. [1;5;12].

Қорақалпоғистон худуди: Устюрт платоси – Табансу кудуғи атрофлари, Қорабаур, Қорин-яриқ, Барсакелмас географик пунктларида тарқалган. Ўзбекистондан ташқари Туркманистонда Мангъшлак яриморли ва Қарақумда (Красноводск қўлига яқинида) учрайди (2-расм) [10].

Тур тошлоқ ва кумли чўллarda, шўрланган кулранг-кўнғир ва гипсли тупроқlarda кенг тарқалади.



2-расм. *Euphorbia sclerocyathium* тарқалган худудлар

1982-1983 йилларда Жанубий Устюртда – Қоплонқир давлат қўриқхонаси худудида турнинг биологияси ва экологияси Е.Ю.Шубенкина (1985) томонидан ўрганилган. Муаллиф ўз тадқиқотида ўсимлик илдиз тизимининг турли яшаш жойларидаги ўзгарувчан хусусиятларига эътибор қаратган. Муаллиф Қоплонқир давлат қўриқхонасининг Бурчибурун географик худудида *Euphorbia sclerocyathium* нинг 8 та яшаш жойларини қайд этган, жумладан, шўракли-тасбурунзор, шувокли-шўракзор, қорасаксовулликзор, биорғунзор (2), хар-хил ўтли-илоқзор, қорасаксувллик-боялишзор, боялишли-илоқзорлар таркибида учраши ва қоплаш даражаси 1-5% атрофида бўлишини таъкидланган. Чорвачилиқнинг ривожланиши ўсимлик яшаш жойларига хавф солиши мумкинлигини таъкидлаб ўтган [12].

Материал ва тадқиқот методлари. Тадқиқот объекти *Euphorbia sclerocyathium* –камёб ва муҳофаза талаб тур саналади. Ушбу тур Мангишлоқ, Жанубий Устюрт ва Красноводск платосининг эндемиги ҳисобланади, ареали Устюрт платоси билан чегараланиб туради [1; 7; 12].

Оролбўйи ва Каспий минтақаларнинг ноёб эндеми. Кара-тенгир темир йўл атрофида Красноводск яқинида тавсиф қилинган. Типи Тошкентда сақланади. Ареали бўйича Орол-Каспий тури ҳисобланади [2; 4].

Материаллар 2019-2022 йилларда амалга оширилди. Маршрут тадқиқотлари Қорақалпоқ Устюртининг марказий ва жанубий қисмларидаги турли экотопларни камраб олди.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ботаника институти Миллий гербарий (TASH) фондида сақланаётган *Euphorbia sclerocyathium* гербарий намуналари билан танишилди. Таҳлил натижалари шуни кўрсатдики, бу тур: 1940 йилда Устюрт платоси – Табансу қудуғи атрофларида И.Гранитов, 1945 йилда Шахпахта ҳавзаси қирғоғидаги жарликлар бўйлаб Арифханова, 1962 йили Кара-қудук қудуғи атрофларида Дадабаев, Гиязова, 1974 йили "Барса Келмес" ғарбий соҳилларида Ш.Сапаров, 2011 йилда Жанубий Устюрт худудида Шомуродов ва Хасановлар томонидан тўпланган.

Геоботаник тавсифлар *E. sclerocyathium* тарқалган ценопопуляцияларда 100м² майдонда умумий қабул қилинган методларга нисбатан амалга оширилди.

Ўсимликларнинг номлари www.theplantlist.org веб-сайтдаги сўнги хулосага мувофиқ, ўсимликларнинг ҳаёт шакли "Ўрта Осиё ўсимликлари аниқлагичи" бўйича берилди [3].

Натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Қорақалпоқ Устюртидаги 2019 - 2021 йиллардаги дала тадқиқотлари давомида *Euphorbia sclerocyathium* нинг 5 та ценотик популяцияси аниқланди (3-расм).



3-расм. *Euphorbia sclerocyathium* ценопопуляцияларининг жойлашуви

Таблица 1. Қорақалпоқ Устюртида *Euphorbia sclerocyathium* ценопопуляциясининг координаталари.

ЦП	Ре-гион	Пункт	X (°)	Y (°)
ЦП1	Устюрт	Кара-баур	N42°59.32'	E057°16.33'
ЦП2	Устюрт	Шах-пахта 1	N20°37.51'	E056°19.41'
ЦП3	Устюрт	Шах-пахта 2	N42°36.39'	E056°17.11'
ЦП4	Устюрт	Каплан-кир 1	N41°22.08'	E056°04.01'
ЦП5	Устюрт	Каплан-кир 2	(N41,36164814°	E56,04264649°

Адабиётлар

1. Белоусова Л.С., Денисова Л.В., Никитина С.В. Редкие растения СССР. – Москва: 1979. –С. 83.
2. Красная книга СССР. – Москва.: Изд. Лесная промышленность.1978. -С.165.
3. Определитель растений Средней Азии. I-XI т. -Ташкент: «Фан», 1968-2016.
4. Проханов Я.И. Род *Euphorbia* – молочай. // Флора СССР. –Москва: 1949. Т. 14. -С. 336-337.
5. Проханов Я.И. Систематический обзор молочаев Средней Азии. – М.-Л.: 1933. -С. 30-32.
6. Рачковская Е.И. Природные особенности растительности равнин / Ботаническая география Казахстана и Средней Азии (в пределах пустынной области). – Санкт-Петербург: 2003. -С. 13-18.
7. Редкие и исчезающие виды флоры СССР, Под редакцией Тахтаджян А. -Ленинград: «Наука», 1981. -С. 82-83.
8. Тамамбетова Ш.Б. Состояние ценопопуляций *Euphorbia sclerocyathium* Korovin et Popov на Каракалпакского Устюрта // Proceedings of Global Technovation 5th International Multidisciplinary Scientific Conference. –Berlin, Germany: 2021. -С. 26-28.
9. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Попов В.А. Ботанико-географическое районирование Узбекистана. // Ботанический журнал. -Ташкент, 2016. №10 (11). -С. 1105-1131.
10. Шербасев Б.Ш. Флора и растительность Каракалпакии. – Нукус: «Каракалпакстан», 1988. –С. 188.
11. Шомуродов Х.Ф., Саробаева Ш.У., Ахмедов А. Распространение и современное состояние редких видов растений на Плато Устюрт в Узбекистане // Аридные экосистемы, 2015. Т. 21. №4 (65). -С. 75-83.

Тадқиқотлар натижасида *Euphorbia sclerocyathium* ни турли географик пунктлар билан боғлиқ ҳолда тарқалганлигини ҳисобга олиб шартли равишда ЦП1 (Қорабаур), ЦП2 (Шахпахта-1), ЦП3 (Шахпахта-2), ЦП4 (Қоплонқир-1), ЦП5 (Қоплонқир-2) ценопопуляциялари ажратилди.

Биринчи ценопопуляция (ЦП1) Марказий Устюртнинг Карабаур географик пункти худудида, дала йўли атрофларида тарқалган (N42°59.32', E057°16.33'). Ценопопуляция тарқалган худуднинг рельефи текислик бўлиб, қумлоқ тупроқдан иборат. Геологик-кидирув ишлари, йўл қурилиши ва газ линияларини ўтказилиши натижасида худудда қучли топталган участкалар учрайди.

Иккинчи ценопопуляция (ЦП2) Шахпата географик пунктдан 5 км шимоли-шарқда (N20°37.51', E056°19.41') қайд этилди. Мазкур ценопопуляция учун ҳам биринчи ценопопуляция каби йўл атрофларида тарқалиш ҳосилдир. Мазкур ценопопуляция тарқалган худуд текисликдан иборат. Тупроғи қумлоқ бўлиб, қисман шўроқ худудлар учрайди.

Учинчи ценопопуляция (ЦП3) Шахпахта географик пунктдаги канъен скважинасидан 1 км шимолдаги (N42°36.39', E056°17.11') қуруқ сойнинг атрофида тарқалган. Ценопопуляция тарқалган майдон 2.5 гектарни ташкил этади. Релефи нотекис. Тупроғи гипсли-охақтошли, йирик тошлар аралашган қумлоқ тупроқлар. Шўроқ майдонлар ҳам учрайди.

Тўртинчи ценопопуляция (ЦП4) Жанубий Устюртнинг Қоплонқир худудида (N41°22.08', E056°04.01') тарқалган майдон 3 гектарни ташкил этади. Худуд нотекис, тўлқинсимон тепаликлардан иборат. Тупроғи гипсли, қўпчимали-юмшоқ, шўроқ табиатга эга.

Бешинчи ценопопуляция (ЦП5) Жанубий Устюрт худудидаги Қоплонқир чинки ва Қозоклишўр ботиғи кесимларида (N41,36164814°, E56,04264649°) тарқалган. Ценопопуляция тарқалган майдон 3 гектарни ташкил этади. Ценопопуляция тарқалган майдоннинг рельефи денгиз сатҳидан паст (–46 м). Худуд жануб томон тўлқинсимон тепаликлар тарзида пасайиб боради. Айрим жойларда майда тошли участкалар учрайди.

Хулоса. Қорақалпоқ Устюртидаги дала тадқиқотлари натижаларидан шундай хулоса қилиш мумкинки, *Euphorbia sclerocyathium* ценопопуляциялар тарқалган майдонлар 2-3 гектар бўлиб, экотоплари сифатида йўл бўйлари ва шўроқ ботикликларни келтириш мумкин. Бундай худудларда тур қумлоқ, шўроқ, гипсли-охақтошли, йирик тошлар аралашган қумлоқ тупроқларда тарқалади.

12. Шубенкина Е.Ю. Об *Euphorbia sclerocyathium* Korov. et M. Pop.-молочае жесткозонтиковым. // Изв. АН ТуркмССР, сер. биол. Наук, 1985. №5. –С. 27–32.

13. BSAP. Biodiversity Strategy and Action Plan of Uzbekistan, 1998. – P. 5-188.

14. Kostianoy A.G., Kosarev A.H. The Aral Sea Environment / The handbook of Environmental chemistry. -London, Berlin Heidelberg, 2010. Vol.7. – P. 7-335.

15. Zonn I., Glantz M., Kostianoy A., Kosarev A. The Aral Sea Encyclopedia. Berlin Heidelberg: Springer-Verlag 2009. – P. 1-245. doi: 10.1007/978-3-540-85088-5.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Қорақалпоқ Устюртида *Euphorbia sclerocyathium* ценопопуляцияларининг тарқалган ҳудудлари тавсифи ва хусусияти ҳақида сўз боради. Ценопопуляциялар тарқалган ҳудудларнинг майдони, рельефи, тупроқ таркиби географик пунктлари ва координатлари келтириб ўтилган. Устюрт иклими, максимал ва минимал ҳарорат, умумий куёш радиацияси, ўртача йиллик ёғингарчилик, тупроқнинг шўрланиши кўрсатилган.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждается об описании и характеристике ареалов ценопопуляций *Euphorbia sclerocyathium* в Каракалпакском Устюрте. Указываются географические точки и координаты ареала, топография, состав почв территорий распространения ксенопопуляций. географические точки и координаты ареала, топография, состав почв, территорий распространения ценопопуляций. Были указаны климат Устюрта, максимальная и минимальная температура, общая солнечная радиация, среднегодовые осадки, засоление почв.

SUMMARY. The article discusses the description and characteristics of the areas of *Euphorbia sclerocyathium* coenopopulations in Karakalpak Ustyurt. The geographical points and coordinates of the area, topography, soil composition of the territories of xenopopulation distribution are indicated. geographical points and coordinates of the area, topography, soil composition, territories of coenopopulation distribution. The climate of Ustyurt were indicated maximum and minimum temperature, total solar radiation, average annual precipitation, soil salinity.

Geografiya

O‘ZBEKISTONDA JOYLASHGAN TABIIY TURISTIK OB‘EKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

J.B.Abdiramanov – katta o‘qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

M.R.Usmanov – geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tayanch so‘zlar: tarixiy, arxitektura, diniy, tabiiy yodgorliklar, geologik, geomorfologik, arxeologik yodgorliklari, mo‘jizaviy va g‘ayratomuz maskanlar, “sandıqlar”, “sırtlar”, “supalar”, g‘orlar, tarixiy yodgorliklar va ularning turizmga tutgan o‘rni.

Ключевые слова: исторические, архитектурные, религиозные, природные памятники, геологические, геоморфологические, археологические памятники, чудесные и вдохновляющие места, «сундуки», «поверхности», «супы», пещеры, исторические памятники и их роль в туризме.

Key words: historical, architectural, religious, natural monuments, geological, geomorphological, archaeological monuments, miraculous and inspiring places, "chests", "surfaces", "supas", caves, historical monuments and their role in tourism.

Respublikaning turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida tub burilishlarni kuzatish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimiz tarixida yangi burilish davri bevosita barcha sohalarda olib borilayotgan tub islohatlarning mazmun va mohiyatidan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning kelgusidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilash bilan tavsiflanadi. Binobarin, turizm sohasini isloh qilish va yanada rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, turizm turlari va uning barqaror ishlashini ta‘minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish va “O‘zbekistonning milliy turizm modeli”ni yaratish tizimini tashkil etish mamlakatimiz turizm tarixida yangi bosqichni belgilab beradi. O‘zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish, madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda sohaning boshqa tarmoqlarini, xususan ekoturizm, ma‘rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolanish-sog‘lomlashtirish (rekreatsiya turizmi), ishbilarmonlik, qishloq va agroturizmni, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmi, oilaviy turizm kabilarni rivojlantirish hisobiga turizmning yangi yo‘nalishlarini hududiy tashkil etish va rivojlantirish bugungi kunda soha oldida turgan ustuvor vazifaga aylandi. Binobarin, O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasi muhokamaga qo‘yildi. Hujjatda 2017-2021-yillar oralig‘ida O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi rejasiga turizm tarmog‘ini samarali rivojlantirish masalasi qo‘yilganligi buning yaqqol misolidir [2]. Shuning uchun Prezidentimiz “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bevosita sohani kompleks

rivojlantirishning yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi [1]. Vaholanki, hududlarda turizm imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli iqtisodiyotdagi ulushi past darajada ekanligi ma‘lumdir. Qolaversa tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbol dasturlarida turizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilmagan. Binobarin, kichik hududlar darajasida turizmni majmual tadqiq etish orqaligina sohani iqtisodiyotning muhim bo‘g‘iniga aylantirish imkoniga ega bo‘lish mumkin.

Ma‘lumki, yurtimizda 8238 ta tarixiy qadamjolar, me‘moriy-arxitektura yodgorliklari mavjud. Ammo hududlarda milliy va xalqaro turizmni rivojlantirishning istiqbolli modeli yaratilmagan. Birgina Samarqand viloyati hududida 985 ta arxeologik, 552 ta Arxitektura (tarixiy obida ziyoratgohlar), 34 ta diqqatga sazovor joylar, 36 ta monumental, jami 1607 ta moddiy-ma‘naviy meros obyektlari mavjud [3]. Bu obyektlarning ko‘pchiligidan turizm maqsadida samarali foydalanilmayapti. Chunki, obyektlarda infratuzilma shakllanmaganligi va boshqa sabablarga ko‘ra turizm maqsadida ishlatilmayapti. Ko‘pgina tabiat yodgorliklari inson xo‘jalik faoliyatida foydalanish uchun yem xashak yig‘iladigan, mol boqiladigan, tomorqa yerlari sifatida e‘tibordan chetda qolib ketgan.

Tabiatning noyob yodgorliklaridan turizmga keng foydalanish katta samara beradi. Binobarin, inson bu tabiat bilan chambarchas bog‘liq mavjudot bo‘lib, hamma vaqt uning sir sinoatlari odamni o‘ziga ohangrabodek tortib keladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, inson tabiat qo‘ynidagi sodir bo‘lgan va vujudga kelgan hodisa va jarayonlarni o‘rganishga qiziqishi tabiiy xoldir. Tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar jiddiy tus olgan bir davrda undan oqilona foydalanishning eng samarali yo‘li turizm sohasidir. Shuning uchun Yevropa davlatlarida noyob yodgorliklardan turizm maqsadida keng foydalanib kelmoqda. Tabiatning noyob yodgorliklari atamasini ham birinchi

bo'lib, fanga mashhur nemis sayyohi, geograf va tabiatshunos olim Aleksandr Gumbold XIX asrda kiritgan edi.

Shuni qayd etish lozimki, tabiat tomonidan yaratilgan barcha obyektlarni ham tabiatning noyob yodgorliklari deb bo'lmaydi. Tabiatning noyob yodgorliklariga odatda, kishini o'ziga jalb qiluvchi, ichki va tashqi tabiiy kuchlar yoki insonning muhandislik faoliyati ta'sirida yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan, o'tgan geologik davrlarda vujudga kelgan tog' jinslarining yemirilishi natijasida ochilib qolgan qoya va kesmalarining yer yuzasiga chiqib qolishi, qadimgi o'simlik va hayvonlarning toshqotgan qoldiqlari, izlari, manzarali sharsharalar, g'orlar va ular ichidagi ajoyib hosilalar, ko'llar, daryolar va boshqalar kiradi. Noyob tabiat yodgorliklarining muhim xususiyatlaridan biri ularning ilmiy va geologik tarixiy ahamiyatga egaligidir. Ko'pchilik noyob tabiat yodgorliklarining vujudga kelishida tabiiy omillar (geomorfologik, arxeologik) bilan bir qatorda boshqa omillar ham qatnashadi. Yodgorliklarning vujudga kelishida mazkur omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bunga misol tariqasida O'zbekiston va boshqa hududlarda uchraydigan geologik, geomorfologik, arxeologik yodgorliklari ko'rsatish mumkin.

Toshkent viloyati Xo'jakent qishlog'i yonidagi ohaktoshlardan tashkil topgan qoyalar ham geologik hamda geomorfologik yodgorliklar bo'lib, bu yerlarda qadimiy ajdodlarimiz qurol yasagan ustaxonasi va g'or devorlariga chizib ketgan rasmlar saqlangan. Shuningdek, bunday yodgorliklar guruhiga O'zbekiston janubidagi Ko'hitang tizmasidagi ohaktoshlarda hosil bo'lgan Zarautsoy g'orida ibtidoiy odamlar tomonidan tabiiy bo'yoq bilan 20-30 ming yillar ilgari chizilgan bir qancha hayvonlar, hasharotlar va ov manzaralarini aks ettiruvchi rasmlar ham misol bo'la oladi.

Suv, shamol va quyosh ta'sirida tabiatda uchraydigan noyob manzaralar kishini o'ziga tortadi va bu yaratilgan tabiat yodgorliklari turistlarni xayratga solmasdan qo'ymaydi. Binobarin, san'at muzeylarida saqlanayotgan durdona rasmlarni zavq-shavq bilan tomosha qilinadi, ularni yaratgan rassomlarning mahoratiga qail qolinadi. Chunonchi, tabiat ham o'z holicha "qudratli rassom"dir. Uning uzoq geologik yillar davomida tog' cho'qqilari, go'zal vodiylar, chuqur daralar, ulkan sharsharalar, g'orlar, qoyatoshlar, qaynoq buloqlar va boshqalar shular jumlasidandir. Tabiatning o'ziga xos bu tuhfarini tomosha qilish turistlarni hamma vaqt o'ziga tortadi.

Masalan, Bolqon yarim orolidagi bir g'orning ichidan oquvchi daryoda 6 ta sharshara, Shimoliy Amerikadagi Mamont g'orining ichidan oqib o'tadigan 3 ta daryoning 8 ta sharsharasi bor. Fransiyadagi Bkije nomli g'or ichidagi daryo hosil qilgan sharsharaning balandligi 30 m dan ziyod. Vaholanki, bunday ajoyib g'orlar yurtimizda ko'plab uchraydi. Jumladan, Zarafshon tizmasidagi Chaqlikalon tog'idagi Qirqtov platosining karst g'orlari, Qoratepa tog'ining janubiy yonbag'ridagi Amir Temur g'orlari o'lkamizda turizmning maxsus turi hisoblangan "speloturizm"ni rivojlantirishda o'rni beqiyosdir.

Yurtimiz hududlarida minglab mo'jizaviy va g'ayratomuz maskanlar mavjud. Ammo ular xalqaro turizm maqsadlarida foydalanilmayapti. Masalan, Misring Giarfeh vodiysida, Saksoniya Shveysariyasida shamol kuchi bilan vujudga kelgan tosh darvoza va qo'ziqorinsimon toshlar, Shimoliy Amerikadagi Kolorado vodiysida "Xudolar bog'i" deb atalgan joyda tog' jinslaridan xilma-xil shakllar paydo bo'lgan, bulardan eng g'aroyibi tebranuvchi xarsangtoshdir. Shamollar ta'sirida qimirlaydigan Argentinadagi Tandil toshi turistlarning eng gavjum maskanlaridir.

Hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi o'ziga xos "arxeologik qo'riqxonalar" hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu hududda 300 dan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud.

Qoraqalpog'istonda ziyorat turizmi uchun bugungi kunda qiziqarli istiqbollarni ochilmoqda. Qoraqalpog'iston

hududida ko'plagan tarixiy-arxeologik majmualar, ziyoratchilar uchun jozibali muqaddas qadamjolar mavjud.

Qoraqalpog'iston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma'lum va gavjum bo'lmagan sayohat yo'nalishlarini taklif qilishi mumkin. Orol dengiziga ekstremal ekologik ekskursiyalardan, Nukusdagi I.Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyiga tashrif buyurishgacha - Qoraqalpog'istonning boy merosi O'zbekistonning boshqa mintaqalaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan madaniyat va urf-odatlarini qamrab oladi. Aynan shu sababli Qoraqalpog'istonda barqaror turizmni rivojlantirishga xissa qo'shish uchun mintaqadagi turistik takliflarning barcha turlarini o'rganish, infratuzilma va xizmatlarni takomillashtirish zarur.

Tarixiylik nuqtai nazardan juda qadimga borib taqaluvchi bu hududda miloddan avvalgi 5-ming yillikdan 2-ming yillikka qadar aholi asosan Amudaryo bo'ylarida, Orol va Kaspiy dengizlari bo'ylarida istiqomat qilib kelgan. Ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lganidan boshlab hududda O'rta Osiyoga mansub eng qadimiy qal'alar topilgan. Bulardan Qo'yqirilgan qal'a, Oybo'g'ir qal'a va Burli qal'a xarobalaridan yozma yodgorliklar, tasviriy san'at va haykaltaroshlik yodgorliklari topilgan. Ayniqsa, Xorazmshohlar saroyi joylashgan Tuproq-qal'a so'nggi antik davrning eng ulkan yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Unda mashhur Afrig'iylar saroyi joylashgan edi. Ushbu madaniy yodgorliklarni ko'z qorachig'iday asrash, qayta tiklash ishlarini tadbirli olib borishimiz zarurdir. Qoraqalpog'iston hududida 5 ta muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etish rejalashtirilgan. "Janubiy Ustyurt" davlat qo'riqxonasi Beltov, Oqpetki va Oqdaryo-Qozoqdaryo ikki daryo oraliq I davlat buyurtma qo'riqxonalari, Sudoche davlat buyurtma qo'riqxonasi negizida Sudoche ko'llar tizimi davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil etildi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatda 427 madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 100 tasi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, 268 tasi arxeologik va 59 tasi monument yodgorliklari hisoblanadi. Shuningdek, Nurota tog'ining janubiy yonbag'rida joylashgan Sangijumon toshi o'zining g'aroyibli bilan ulardan qolishmaydi [3]. Turkiston va Morguzar tog'lari tutashgan xushmanzara joyda Zomin tog'-o'rmon davlat qo'riqxonasi joylashgan. Qo'riqxonada yilning barcha fasllarida, yoz-u qishda, o'zining yam-yashil libosi bilan atrofdagi hududdan ajralib turuvchi archazorlar o'sadi. Go'yoki tabiat o'zining bor go'zalligini shu yerga in'om etganday. Archazorlar orasidagi yolg'iz so'qmoqdan borar ekansiz, ko'z oldingizda ajoyib manzara namoyon bo'ladi, ya'ni, xalq orasida "Qirqqiz qal'asi", "Savat ko'targan kelinlar", "Kuyovtosh", "Qirq go'zal" nomlari bilan ma'lum bo'lgan tabiat yodgorliklariga duch kelasiz. Ushbu tabiat yodgorliklari vujudga kelgan hudud Guralash va Zomin massivlari (dengiz sathidan 2000-3200 m balandlikda) deb atalib, Zomin va Sangzor daryolari vodiylarida joylashgan. Qizilto'rg'ay daryosining o'ng tomonida, uning o'zanidan 300-700 m balandlikda joylashgan va tabiatning nodir yodgorliklaridan hisoblangan "Qirqqiz qal'asi" (maydoni 3-4 gektar) bu yerda alohida o'rin egallaydi. Qal'aning janubi-sharqida qiz tasviri haykal sifatida (balandligi 12 m, belining diametri 1 m, yerga tegib turgan etagining diametri 2 m ga yaqin) ko'tarilgan [6].

Jizzax viloyatining Shimoliy Nurota tog' tizmasidagi Qo'ytosh tog'i ham (eng baland joyi To'ng'izlitov, 1905 m) O'zbekistondagi afsonaviy joylardan biri. Bu yerdagi xarsangtoshlar uyumiga uzoqdan nazar tashlansa, ular yoyilib yotgan qo'y podalarini eslatadi.

Tabiat yodgorliklari sirasiga noyob qoyalarni ham kiritish mumkin. Toshkent viloyatining Xo'jakent qishlog'i hududida, Chirchiq daryosining chap qirg'og'ida joylashgan qoyaning chiroyli manzarasi uzoqlardan ko'zga tashlanadi. Qoya toshko'mir davri (taxminan 290-350 mln yil

avval) ohaktoshlaridan tashkil topgan va yangi tektonik harakatlar natijasida yer yuzasiga chiqib qolgan. Karst jarayonlari rivojlanishi natijasida bu yerda turli kattalikkdagi 20 dan ortiq g'or paydo bo'lgan. G'orlarning birida tosh davrida yashagan ibtidoiy odamlar manzilgohi topilgan. Ushbu g'or devorlarida ular tomonidan o'yib ishlangan rasmlar saqlanib qolgan.

Ajoyib manzarali noyob qoyalardan yana biri Jizzax viloyati hududida Sangzor daryosining o'rta oqimida qad ko'targan "Temur darvozasi" dagi qoyadir. U ham toshko'mir davrida ohaktoshlardan shakllangan. Qoyaning nihoyatda ajoyib va sirli manzarasi bu yerdan o'tayotgan har bir yo'lovchilarning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

M.A.Hoshimovning ta'kidlashicha "Temur darvozasi" qadimdan ma'lum bo'lgan. U haqda qadimgi yunon olimi Arrianning yozishicha, Iskandar Maqduniy (Zulqarnayn) Sug'diyona poytaxti Marokandani bosib olgandan so'ng, Tanais (hozirgi Sirdaryo) tomon yurish qilgan. Bu yurishda Iskandarning 30 mingdan ziyod lashkari ushbu darvoza orqali o'tgan. Chunki, bu joy sharqqa borish uchun juda qulay bo'lgan [6].

O'rta Osiyoning tekislik qismida uchraydigan tog'lar (Qoratov, Nuratog', Qoratepa) 500-600 m dan 1000-1200 m gacha, Tyanshan tog'larida 2000-2500 m dan 4000 m gacha, Pomir tog'larida 4000-4600 m gacha ko'tarilgan. Mahalliy aholi bu ko'tarilishlarga "sandiqlar", "sirtlar", "supalar" deb nom qo'ygan. Ularning usti tekis yoki salgina

to'lqinsimon, yonbag'irlari, asosan, darasimon daryolar vodiysi bilan kesilgan bo'lib, o'zanidan tik xarsangtosh ko'tarilgan. Daryolar bilan zich va chuqur kesilgan O'rta Osiyo tog'lari sharoitida bunday tekislangan yuzlarning mavjudligi, ulardan faqat yaylov sifatida foydalanilmoqda. Biroq bu manzaralar sayyohlarni maroqli dam olishini ta'minlaydigan maskanga aylantirish mumkin. Shuningdek, Pskom tizmasining janubi-sharqiy yonbag'irlarida joylashgan bir qancha yuzalar "katta sandiq", "kichik sandiq" nomlari bilan ataladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bizningcha tabiatning noyob yodgorliklaridan turizm maqsadida foydalanish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish lozimdir:

- "O'zbekistonda turizmning milliy modelini" ishlab chiqishda tabiatning noyob yodgorliklaridan turizm foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

- hududlardagi noyob yodgorliklar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish va guruhlashtirish, kadastrlash hamda eng noyob va turizmda jozibador bo'lgan ob'ektlarni turistik marshrutlarga qo'shish;

- mamlakatimizda "eng noyob va eng antiqa tabiat yodgorligi" nominatsiyasi bo'yicha turistik aksiya o'tkazish;

- tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning istiqbol rejalarini ishlab chiqishda qishloq va ovullarda turizm salohiyatini tadqiq etish masalasini inobatga olish va boshqalar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni, 2017.
2. O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni loyihasi. 2017-2021 yillar oralig'ida O'zbekistonda rivojlantirishning besh ta ustuvor yo'nalishi rejasini. -T.: 2017.
3. Komilova N.K., Usmanov M.R. "Jizzax viloyatida turistik destinatsiyalarni tashkil etishning hududiy jihatlari" "Monografiya - Jizzax: JDPU "Tahririy-nashriyot bo'limi nashri", 2023. 208-b.
4. Абдусаломов Ғ. Туризм соҳасида ютуқлар кўп, камчиликлар ҳам йўқ эмас. / "Зарафшон", 24 декабр, 159 (22.797)-сон.
5. Бродский А.А. Охраны природы в Туркистане. -Тошкент: 1993.
6. Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми. -Самарқанд: 2012.
7. Komilova N.K., Matchanova A.E., Safarova N.I., Usmanov M.R., & Makhmudov M.M. 2021. Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. *Estudios de economía aplicada*, 39(6), 12.
8. Usmanov M. 2020. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда "диний туризм" нинг аҳамияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
9. Усманов М.Р., Абдираманов Ж.Б. O'zbekistonda ko'llar tizimida turizmni rivojlantirishning ahamiyatlari. -Нукус: "Илим хэм жэмийет" 2023. № 3. 51-52-б.
10. Абдираманов Ж.Б., Усманов М.Р. Қорақалпоғистон республикасида экотуризмни ривожланишининг бази бир географик жиҳатлари. Ўзбекистонда географик тадқиқотлар: инновацион ғоялар ва ривожланиш йўллари Республика илмий-амалий конференция материаллари. 2023. Жиззах.129-133-б.

REZYUME. Mazkur maqolada tabiiy turistik yodgorliklar va ularning hududiy joylashish xususiyatlari, turizm infratuzilmasi, tarixiy qadamjolar, turli tarixiy yodgorliklar va tabiat tomonidan yaratilgan obyektlarning turizm maqsadidagi ahamiyati tahlil etilib, O'zbekistonda turizmning milliy modelini yaratish hamda ularning turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализировано значение природных туристических памятников и их территориальное расположение, туристическая инфраструктура, исторические места, различные исторические памятники и объекты, созданные природой в туризме, а также выделены создание национальной модели туризма в Узбекистане и их потенциал для развития туризма.

SUMMARY. This article analyzes the importance of natural tourist monuments and their territorial location, tourism infrastructure, historical sites, various historical monuments and objects created by nature in tourism, and also highlights the creation of a national tourism model in Uzbekistan and their potential for tourism development.

IQLIMNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

(Surxondaryo viloyati misolida)

T.A.Abdimo'minov – o'qituvchi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: iqlim, yog'ingarchilik, sovuq kunlar, issiq kunlar, Afg'on shamoli, nafas olish azolari kasalliklari, chang.

Ключевые слова: климат, осадки, холодные дни, жаркие дни, Афганский ветер, респираторные заболевания, пыль.

Key words: climate, precipitation, cold days, hot days, Afghan wind, respiratory diseases, dust.

Surxondaryo viloyati hududining asosiy qismi subtropik, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismi mo'tadil iqlim mintaqasida joylashgan. Viloyat iqlimi xilma-xil bo'lib, janubiy tekislik qismida yog'ingarchilik miqdori kam ammo viloyatning tog'li va tog'oldi hududlarida yog'ingarchilik miqdori ko'p. Bu esa o'z navbatida viloyatda agroiqlim resurslarining notekis taqsimlanganligidan dalolatdir.

Surxondaryo viloyatida ob-havoni kuzatish va tadqiq qilish uchun viloyat gidrometeorologik boshqarmasi (Termiz shahrida), tumanlarda gidrometeorologik stansiya-

lar va gidrologik postlar mavjud. Ularda yog'ingarchilik, shamol, harorat, namlik kabi jarayonlar muntazam kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Viloyat iqlim xaritasini tahlil qilib, yog'ingarchilik viloyat bo'yicha notekis taqsimlanganligini ko'rishimiz mumkin. Muzrabot, Angor, Termiz tumanlari va Termiz shahrida yillik yog'in miqdori 200 mm dan kam. Sherobod, Qiziriq, Bandixon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sho'rchi tumanlari hamda Oltinsoy, Denov, Uzun tumanlarining tekislik qismlarida 200-400 mm atrofida yog'in yog'adi. Boysun, Uzun, Oltinsoy va Denov tumanlarining tog'li

hududlariga yiliga 400-800 mm yog‘in yog‘sa, Sariosiyo tumani hamda Machay daryosining yuqori qismida 800 mm dan ko‘p yog‘in tushushini ko‘rishimiz mumkin.

Yanvar oyining o‘rtacha harorati Termizda +3,0°C bo‘lsa, Sherobodda +4,8°C ni tashkil etadi. Yozda faslida viloyatning tekislik qismi isib ketib, jazirama issiq va quruq kunlar kuzatiladi. Iyul oyining o‘rtacha harorati +29 °C, +32 °C bo‘lib, eng yuqori harorat +42°C, +49°C darajani tashkil etadi. Viloyatning janubiy qismida uning shimoliga nisbatan iyulning o‘rtacha havo harorati ko‘rsatkichi o‘rtasida birmuncha farqlar mavjud. Jumladan Denovda bu ko‘rsatkich +31,1°C, Boysunda +28,3°C, Termizda +33,2°C va Sherobodda 33,5°C gacha o‘zgaradi [1:80].

Viloyatning shimoliy, shimoli-g‘arbiy, g‘arbiy va sharqiy tog‘ va tog‘ oldi zonalarida havo harorati nisbatan yumshoqroq. Dengiz sathidan 1243 m balandlikda joylashgan Boysun shahrida iyul oyining o‘rtacha harorati 28,3°C, yanvar oyining o‘rtacha harorati esa 2,6°C ni tashkil etadi. O‘rtacha yillik havo harorati 15,1°C ga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Surxondaryo viloyatining tekislik qismi tog‘ zonasiga nisbatan quruq va iliq hisoblanadi, yoz jazirama bo‘lib uzoq davom etadi. Viloyatning dengiz sathidan 3000-3200 m baland hududlarida iyul oyi havo haroratining o‘rtacha ko‘rsatkichi 20°C ga, yanvar oyi o‘rtacha harorati esa -6°C, -8°C ga teng. Ba‘zan qishda sovuq havo massalari tog‘lardan o‘tib viloyatning tekislik qismi haroratini -20°C, -24°C gacha pasaytirib yuboradi.

Viloyatda yoz issiq va jazirama kunlarning ko‘pligi bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Viloyatning ayrim hududlarida o‘simliklar vegetatsiya davri yil bo‘yi davom etadi, yoz esa olti oy (apreldan-oktabr)gacha cho‘ziladi. L.N.Babushkinning ma‘lumotiga ko‘ra, 1912 yilning 8 iyulida Termizda havoning harorati 50°C, 1915-yili 21 iyulda 49,6°C ga kuzatilganligi qayd etilgan. Cho‘llarda qumlar yuzasidagi harorat 65°C, ba‘zan 70-75 °C gacha ko‘tariladi.

Viloyatda sovuq bo‘lmaydigan kunlar 226 kundan 266 kungacha davom etadi. Viloyatda harorati +50°C dan yuqori bo‘lgan kunlar 290-320 kunga yetadi. Vegetatsiya davridagi foydali harorat yig‘indisi 55000-6000°C darajani tashkil qiladi. O‘simlikning butun o‘shishi davomida foydali haroratlar yig‘indisi 1500°C dan ortiq. Bunday harorat viloyatda meva-sabzavot, poliz maxsulotlari va ayniqsa texnik ekinlarni yetishtirish uchun qulaydir.

Surxondaryo viloyati tog‘lar orasidagi berk botiqda joylashganligi sababli yog‘inlarning notekis taqsimlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Yog‘in miqdori relyefning tuzilishiga va havo massalarining harakat yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lib, janubi-g‘arbdan (tekisliklardan) shimoli-sharqqa (tog‘larga) tomon yog‘in miqdori ortib boradi. Viloyatning janubidagi tekisliklarga eng kam, yiliga 133-230 mm yog‘in to‘g‘ri keladi. Shimol tomonga brogan sayin yog‘in miqdori ortib, 500-600 mm ga yetadi. Hisor tizmasining janubiy yonbag‘irlariga yiliga 800-900 mm gacha yog‘in yog‘adi.

Viloyatda yog‘inlarning 44,3 foizi bahor faslida, 45,9 foizi qish faslida, 9,0 foizi kuz faslida va 0,8 foizi yoz faslida tushadi. Viloyatning shimoliy hududlarga janubiy qismiga nisbatan yillik yog‘in-sochin miqdori 4-5 marta ko‘p tushadi. Jumladan viloyatning shimoliy zonasida joylashgan Sharg‘un shahrida janubda Amudaryo bo‘yida joylashgan Navshaharga nisbatan 4,8 marta ko‘p yog‘in yog‘adi.

Viloyat hududining murakkab orografik tuzilishiga ega ekanligi bu yerda havo harorati va yog‘in miqdorining taqsimlanishidagi tafovutlar, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining hududiy joylashishi va ixtisoslashuviga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan daryo vodiylari va tekisliklarda sug‘orib ekishga tayangan dehqonchilik va qoramolchilik, yog‘in-sochin nisbatan ko‘proq tushadigan tog‘ yonbag‘irlari va adirlıklarda lalmikor dehqonchilik, yaylov chorvachiligi va parrandachilik, iqlimi nisbatan yumshoq, yog‘in-sochin ko‘p tushadigan tog‘li hududlarda esa mevachilik (olma, jiyda, yong‘oq, do‘lana, bodom, pista,

nok yetishtirish) mahsulotlarini yetishtirish keng rivojlan-tirilgan [1:89].

Viloyatda yoz oylarida g‘arbiy, janubi-g‘arbiy, qish oylarida shimoli-sharqiy tomonlardan shamollar ko‘p esadi. Viloyat janubiy qismining iqlimiga janubi-g‘arbdan esuvchi chang-to‘zonli quruq “Afg‘on” shamoli salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘rta Osiyoning tekislik qismiga sovuq havo massalarining kirib kelishi va sovuq frontning yaqinlashishi “Afg‘on” shamolining vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan.

“Shimoldan esgan sovuq havo massalari zich va og‘ir bo‘lganligidan Parapamiz tog‘laridan o‘ta olmay, tekisliklarda to‘planib, yuqori bosimli markazi vujudga keladi. Hisor va Ko‘hitang tog‘lari bilan to‘silgan Surxondaryo, Kofirihon, Vaxsh havzalarida esa havo iliq, bosim past bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bu hududlarga qarab kuchli g‘arbiy va janubi-g‘arbiy shamollar esadi. Bu shamol janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Afg‘oniston tomondan esgani uchun mahalliy xalq uni “Afg‘on shamoli”, Afg‘onistonda “karaburan” ya‘ni “qora bo‘ron” deb ataladi va Amudaryo havzasining yuqori qismida kuzatiladi. Afg‘on shamoli bir tomondan, janubi-g‘arbdan siljib keladigan va Hisor tog‘ tizmasi oralig‘ida siqilib harakatlanadigan iliq havo massa-sining shimoli-g‘arbdan keladigan sovuq havo frontining aerodinamik tezlashuvi oqibatida paydo bo‘ladi va yiliga 30-70 kun esadi [2].

Bu shamol tog‘lardan oshib tushib, qishda iliq havo, boshqa vaqtlarda esa issiq havo keltiradi. Uning tezligi ayrim vaqtlarda sekundiga 15-20 m ga yetadi, qum va changni to‘zitadi, ba‘zan havoni shu qadar xiralashtiradiki, 100-200 m naridagi hech narsani ko‘rib bo‘lmaydi. Bu shamol bahorda esganda qishloq xo‘jaligiga juda katta zarar yetkazadi” [3:73].

Afg‘on shamoli o‘ziga xos meteorologik hodisalar yordamida kuzatiladi. Afg‘on shamoli esishidan 1-2 kun avval sharqdan esgan kuchsiz shamol natijasida dastlab siyrak chang paydo bo‘lib, asta-sekin quyulashib boradi. Havo harorati ko‘tariladi, nisbiy namlik esa keskin kamayadi. Atmosfera bosimi pasayadi. Havo frontining yaqinlashuvi bilan girdob va quyunlar hosil bo‘ladi, so‘ngra to‘satdan 15-20 m/s va undan ortiq tezlikda esadigan to‘zonli bo‘ron afg‘on shamoli vujudga keladi. Afg‘on shamoli aksariyat garmsel (fenga o‘xshash quruq va issiq shamol) davrini yakunlaydi.

Viloyat hududida afg‘on shamoli tez-tez takrorlanib turadi. Surxondaryo viloyatida “Afg‘on shamoli” yetkazgan talofatlar anchagina bo‘lib xalq xo‘jaligiga katta zarar yetkazadi. Kuchli shamollar ba‘zan ekinzorlarni qum bilan ko‘mib tashlaydi yoki tuproqning unumli qatlamini uchirib ketadi. Shamol tarkibida mayda qum va chang zarralari mavjud bo‘lib, aholi salomatligiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Chang har qanday modda va jismlarning muallaq holatda turadigan qattiq mayda zarrachalardir. Changning asosiy ta‘siri eng avvalo nafas olganda bilinadi. Changli havo bilan nafas olish asosan nafas organlarining zararlanishi; bronxit, prevmakoniz yoki umumiy zararlanish rivojlanishini vujudga keltirishi mumkin. Ba‘zi changlar qo‘shimcha kasalliklari keltirib chiqarish xususiyatiga ega. Bular yuqori nafas yo‘llari, ko‘zning shilliq qavati, teri qoplami kasalliklari kiradi. Changning o‘pka yo‘liga kirishi pnevmaniya ya‘ni, sil o‘pka raking kelib chiqishiga sharoit yaratadi. Bu chang ayniqsa homiladorlar, emizikli ayollar, qariyalar, allergiyasi borlar, surunkali bronxitlar va bolalar sog‘ligi uchun juda xavfli. Har yili Afg‘onistonda havo ifloslanishi bilan bog‘liq kasalliklardan odamlar nobud bo‘ladi. Afg‘oniston sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020-yil shamol ta‘sirida havoning ifloslanishi oqibatida vujudga keltiruvchi kasalliklar qatorida yurak va o‘pka xastaliklaridan 5000 ga yaqin odam vafot etgan [4].

Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma‘lumotlariga ko‘ra viloyatda nafas olish a‘zolari kasalliklari bilan jami 2018-yilda 32565 nafar, 2019-yilda 336.1

ming kishi, 2020-yilda 316.5 ming kishi, 2021-yilda 333.7 ming kishi, 2022-yilda 245.4 ming nafar kishi kasallangan. Bu ko'rsatich viloyat jami aholisining qariyb 12 % qismi yiliga birgina nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanishini ko'rsatib turibdi. Tumanlar kesimida kasallangan bemorlar soni tahlil qilinganda aholi soniga nisbatan tekislikka to'g'ri keluvchi tumanlarda ushbu kasallik bilan kasallanish holatlari ko'p ekanligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval). Masalan: 2019 yilda viloyatda 2578600 kishi istiqomat qilgan bo'lsa, shundan 336100 kishi yoki jami aholiga nisbatan 13% aholi qatlami nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallangan. Eng yuqori ko'rsatgichlar Denov (22.6 %), Sherobod (17.3 %), Jarqo'rg'on (16.5 %), Termiz (16.1 %), Boysun (13.5 %), Uzun (12.6 %), Qumqo'rg'on (11 %) tumanlari hamda Termiz shahri (12.7 %) hissasiga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatich Oltinsoy (6.7 %) va Sariosiyo (7.8 %) tumanlariga tegishli.

2020-yilda jami 2631900 kishidan 316500 nafari shu kasallikka chalingan. Mavjud aholiga nisbatan kasallanish 12 % ni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatichlar Denov (24.4 %), Sherobod (19.9 %), Muzrabot (14.8 %), Termiz (14.3 %), Jarqo'rg'on (12.2 %), Termiz shahri (11.3 %), Boysun (11 %), Qiziriq (10.8 %), Bandixon (10.2 %) tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatich Oltinsoy (3.5 %) va Angor (5.2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2021-yil ko'rsatichlari tahlil qilinganda viloyatda yashovchi 2678000 kishidan 333700 nafarga yaqini nafas olishning turli xil (shu jumladan: o'tkir bronxit, surunkali faringit, nozofaringit, rinit, sinusit, bodomsimon bezlar va adenoidning surunkali kasalliklari, peritonozilyar abscess, allergik rinit (pollinoz), o'pka, yallig'lanishi (zotiljam), surunkali va aniqlanmagan bronxit, emfizema astma, astmatik holat) kasalliklari bilan kasallangan bo'lib, ular jami aholining 12.5 % qismini tashkil qilgan.

1-jadval. Surxondaryo viloyati tumanlar kesimida 2019-2022-yillar davomida nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallangan bemorlar haqida ma'lumot

T/r	Ma' mury-hududiy birlik nomi	2019-2022-yillarda Surxondaryo viloyatida nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallangan bemorlar soni (ming kishi hisobida)											
		2019-yil			2020-yil			2021-yil			2022-yil		
		Jami aholi	Bemorlar soni	Aholiga nisbatan % hisobida	Jami aholi	Bemorlar soni	Aholiga nisbatan % hisobida	Jami aholi	Bemorlar soni	Aholiga nisbatan % hisobida	Jami aholi	Bemorlar soni	Aholiga nisbatan % hisobida
1	Angor	129.3	11.7	9.0	132.4	6.9	5.2	134.7	9.0	6.7	137.4	8.6	6.3
2	Bandixon	-	-	-	71.6	7.3	10.2	76.5	10.6	13.8	78.7	8.5	10.8
3	Boysun	117.7	15.9	13.5	115.9	12.8	11.0	117.5	12.2	10.4	119.7	11.5	9.6
4	Denov	375.7	84.9	22.6	384.6	93.9	24.4	392.2	88.0	22.4	399.9	89.3	22.3
5	Jarqo'rg'on	213.1	35.3	16.5	217.8	26.7	12.2	222.1	23.3	10.5	226.9	16.7	7.4
6	Qiziriq	169.4	15.5	9.1	114.1	12.3	10.8	116.3	14.4	12.4	118.9	14.9	12.5
7	Qumqo'rg'on	237.9	26.3	11.0	235.7	16.9	7.2	238.6	20.6	8.6	243.7	10.0	4.1
8	Muzrabot	147.1	11.8	8.0	144.2	21.3	14.8	141.4	61.4	43.4	138.4	19.8	14.3
9	Oltinsoy	172.1	11.6	6.7	176.4	6.2	3.5	180.2	5.9	3.3	184	6.2	3.4
10	Sariosiyo	201.8	15.9	7.8	206.4	15.4	7.5	213.2	7.7	3.6	217.7	2.9	1.3
11	Termiz	106.7	17.2	16.1	77.1	11.1	14.3	78.6	7.7	9.8	80.3	6.6	8.2
12	Uzun	170.5	21.4	12.6	174.3	15.1	8.6	173.9	16.9	9.7	179.5	4.9	2.7
13	Sherobod	188.8	32.7	17.3	193.3	32.6	16.9	197.3	24.9	12.6	202	22.2	11
14	Sho'rchi	203.4	17.5	8.6	208.5	17.7	8.5	212.7	13.5	6.3	217.9	10.5	4.8
15	Termiz sh	145.1	18.4	12.7	179.6	20.3	11.3	182.8	17.6	9.6	189.5	12.8	6.8
	Jami:	2578.6	336.1	13.0	2631.9	316.5	12.0	2678	333.7	12.5	2734.5	245.4	8.9

Manba: Jadval Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tahlil qilindi.

2021-yilda mazkur kasalliklar bilan eng yuqori ko'rsatgich qayd etilgan tumanlar Muzrabot (43.4 %), Denov (22.4 %), Bandixon (13.8 %), Sherobod (12.6 %), Qiziriq (12.4 %), Jarqo'rg'on (10.5 %) tumanlari hisoblanadi. Eng past ko'rsatgich Oltinsoy (3.3 %) va Sariosiyo (3.6 %) tumanlariga to'g'ri kelishi tahlil qilindi.

2022-yil ko'rsatichlari tahliliga ko'ra viloyatda yashovchi 2734500 kishidan 245400 nafarga yaqini nafas olish organlarining turli xil kasalliklari bilan kasallangan bo'lib, ular jami aholining 8.9 % qismini tashkil qilgan. 2022-yilda ushbu kasallik Denov (22.3 %), Muzrabot (14.3 %), Qiziriq (12.5 %), Sherobod (11.0 %), Bandixon (10.8 %) tumanlarida eng yuqori ko'rsatgich sifatida qayd etilgan. Eng past ko'rsatgich Sariosiyo (1.3 %), Uzun (2.7 %) va Oltinsoy (3.4 %) tumanlariga to'g'ri kelishi tahlil qilindi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatib turibdiki, viloyatning tekislik qismida joylashgan Sherobod, Muzrabot, Qiziriq, Bandixon, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Termiz tumanlari va Termiz shahrida nafas olish a'zolari kasalligi bilan kasallangan bemorlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunga asosiy sabab Amudaryo orqali viloyat

hududiga kirib keluvchi "Afg'on shamoli"dir. U Amudaryoning janubiy qismidagi va Surxondaryo viloyati Kattaqum massividagi qumlarini uchirib atmosfera havosini ifloslaydi. Shuningdek Denov tumanida ham nafas olish a'zolari kasalliklari bilan kasallanish holatlari viloyat o'rtacha ko'rsatgichlaridan ham yuqori ekanligini kuzatdik. Bunga asosiy sabab esa Denovdagi sanoat korxonalaridan chiqayotgan changlar va har xil zararli gazlardir. Shuningdek Denov shahrini kesib o'tgan Denov arig'i va Qizilsuv daryosining chiqindixonaga aylanib qolganligi, bu yerdagi badbo'y hidning shahar va uning atrofidagi yashovchi aholi salomatligiga salbiy ta'sirini sezish qiyin emas albat. Bundan tashqari Denov viloyatdagi asosiy sanoati rivojlangan tuman hisoblanadi. Bu yerdagi yirik zavod va korxonalarining asosiy qismi XX asr 70-80-yillarida barpo etilgan bo'lib, hozirda jihozlari eskirib me'yordan ortiq chiqindi va chang zarrachalarini atmosferaga chiqarmoqda.

Aksincha hududining asosiy qismi tog' va tog'oldi tekisliklaridan iborat bo'lgan Oltinsoy va Sariosiyo tumanlarida nafas olish kasalliklari bilan kasallangan bemorlar soni viloyat o'rtacha ko'rsatgichidan 2-3 barobar kam ekanligi mazkur tumanlar iqlimi yaxshi ekanligidan dalolatdir.

Adabiyotlar

1. Abdunazarov H.M., Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi. O'quv qo'llanma. –Termiz: 2023.178-b.

2. Petrov Yu.V., Egamberdiyev H.T., Alautdinov M., Xolmatjonov B.M. "Iqlimshunoslik". –Toshkent: "Nashr". 2010.

3. Хасанов И., Фуломов П.Н. Ўзбекистон табиий географияси (1- қисм). Ўқув қўлланма. -Т.: "Ўқитувчи", 2007.

4. Abdimominov T.A., Namrayeva D.Kh., & Eshboev A.Kh. (2023). ISSUES OF USING AFGHANI WIND IN SURKHANDARYA REGION. Экономика и социум, (3-1 (106)), 7-13.

РЕЗЮМЕ. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati iqlimining inson salomatligiga ta'siri tahliliy xulosalar asosida baholangan.

РЕЗЮМЕ В данной статье оценивается влияние климата Сурхандарьинской области на здоровье человека на основе аналитических выводов.

SUMMARY. In this article, the impact of the climate of Surkhandarya region on human health was assessed on the basis of analytical conclusions.

QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-GEOGRAFIK JIHATLARI

Sh.H.Bekmetova – *mustaqil tadqiqotchi*

Urganch davlat universiteti

B.B.Aminov – *tayanch doktorant*

O'zbekiston milliy universiteti

Tayanch so'zlar: markaziy Osiyo, ziyorat turizmi, iqlim, tabiiy omillar, Urganch.

Ключевые слова: центральная Азия, паломнический туризм, климат, природные факторы, Ургенч.

Key words: central Asia, pilgrimage tourism, climate, natural factors, Urganch.

Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy qismida joylashgan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni boy tarixiy va madaniy merosga ega noyob hududdir. O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'istonning bir qismini o'z ichiga olgan bu mintaqa azaldan muhim ziyoratgohlar maskani bo'lib, mintaqa va dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qiladi. Bu hududda ziyorat turizmining rivojlanishi uning ijtimoiy-geografik xususiyatlari, jumladan, mintaqaning turli xil diniy an'analari, murakkab etnik-madaniy tarkibi va tabiiy geografiyasi bilan chambarchas bog'liq.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni azaldan turli diniy va madaniy an'analar chorrahasi bo'lib kelgan [1]. Bu qo'shilishning markazida Amudaryo joylashgan bo'lib, u Markaziy Osiyoni keng islom olami bilan bog'lovchi muhim arteriya bo'lib xizmat qilgan. Amudaryo va uning irmoqlari bo'yida mintaqaning boy diniy merosini aks ettiruvchi bir qancha muhim ziyoratgohlar paydo bo'ldi.

Quyi Amudaryodagi eng muhim ziyoratgohlardan biri Nukus shahri bo'lib, bu shaharda XIV asrda yashagan So'fiy Avliyo Nurullohbek maqbarasi joylashgan. Urganch shahri yaqinida XIV asrning mashhur shoiri va faylasufi Pahlavon Mahmud maqbarasi joylashgan bo'lib, u ham muhim ziyoratgohga aylangan.

Janubda Turkmanistonning Ko'hna-Urganch shahri mintaqaning muhim ziyoratgohlaridan biridir [2]. Islom ilmi va madaniyatining yirik markazi bo'lgan qadimiy shahar xarobalarida bir qancha mo'tabar so'fiy avliyolar, jumladan To'rabekxon va Najmiddin Kubro maqbaralari joylashgan. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida so'fiylar bilan bog'liq bo'lgan ushbu ziyoratgohlardan tashqari, boshqa diniy an'analar bilan bog'liq bir qancha muhim ziyoratgohlar ham mavjud. Masalan, Xiva shahrida mintaqadagi zardushtiylik davriga oid ko'plab me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan joylarga aylangan.

Ziyorat namunalarini shakllantiruvchi demografik va etnik omillar Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmi shakllariga hududning murakkab demografik va etnik tarkibi katta ta'sir ko'rsatadi [3]. Viloyatda turli etnik guruhlar, jumladan, o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqalar yashaydi, ularning har biri o'ziga xos diniy va madaniy an'analariga ega.

Ushbu etnik xilma-xillik ziyoratgohlarning geografik taqsimlanishini shakllantirdi, ba'zi ziyoratgohlar va maqbaralar muayyan etnik yoki mintaqaviy kelib chiqishidan bo'lgan dindorlarni jalb qilmoqda. Masalan, Nukus shahridagi Nurullohbek maqbarasi mahalliy aholining salmoqli qismini tashkil etuvchi qoraqalpoq xalqi tomondan alohida e'zozlanadi. Xuddi shunday, Urganchdagi Pahlavon Mahmud maqbarasi ham o'zbekistonlik ziyoratchilarni o'ziga tortadi [4].

Mintaqaning demografik tendentsiyalari ham ziyorat turizmi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Quyi Amudaryoning barqaror urbanizatsiyasi, aholining Nukus va Xiva kabi shaharlarga to'planishi shahar markazlaridan kelayotgan ziyoratchilar sonining ko'payishiga olib keldi. Bundan tashqari, mintaqa va unga yaqin hududlar, keng islom olamiga yaqinligi ziyoratchilarning xarakatlanishini osonlashtiradi.

Shu bilan birga, Quyi Amudaryoning qishloq hududlari ziyorat turizmidagi muhim rol o'ynashda davom etmoqda, kichikroq ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mahalliy dindorlarni o'ziga jalb etib, yaqin atrofdagi qishloq va shaharlardan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qilmoqda. Qishloq-shaharlarning aholi dinamikasi mintaqada murakkab va ko'p qatlamli ziyorat manzarasini yaratmoqda [5]. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy geografiyasi ham hududda ziyorat turizmining rivojlanishida asosiy omil bo'ldi. Mintaqaning Amudaryo bo'yida joylashgani, asrlar davomida asosiy transport yo'lagi bo'lib xizmat qilgani ziyoratchilarning harakatlanishi va qirg'oqlarida muhim ziyoratgohlarning barpo etilishiga xizmat qilmoqda.

Mintaqaning iqlimi va topografiyasi ham ziyorat turizmini rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Quyi Amudaryoning qurg'oqchil, kontinental iqlimi, yozi issiq va qishi yumshoq bo'lishi uni yil davomida ziyorat qilish uchun nisbatan mehmondo'st muhitga aylantirgan. Viloyatning cho'lga o'xshash tekisligi, vohalar va daryo vodiylari bilan chegaralanganligi ham ziyoratgohlarning joylashishiga ta'sir ko'rsatgan, ko'plab ziyoratgoh va maqbaralar savdo yo'llari bo'yidagi strategik joylarda va muhim suv manbalari yaqinida joylashgan.

Shu bilan birga, mintaqaning tabiiy geografiyasi ham ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ba'zi muammolarni keltirib chiqardi. Ayrim ziyoratgohlarning bugungi kunga kelib o'z ahamiyatini yo'qotganligi, shuningdek, ayrim hududlardagi transport infratuzilmasining cheklanganligi ayrim ziyoratchilarning ushbu manzillarga borishini qiyinlashtirdi. Bundan tashqari, mintaqaning suv toshqinlari va qum bo'ronlari kabi tabiiy ofatlarga duchor bo'lishi ba'zan ziyorat tadbirlarini to'xtatib qo'yadi va tabiiy ofatlar xavfini boshqarish strategiyasini amalga oshirishni talab qiladi.

Bunday qiyinchiliklarga qaramay, Quyi Amudaryoning tabiiy geografiyasi mintaqadagi ziyorat turizmining rivojlanishida, bu muhim madaniy hodisaning joylashuvi, qulayligi va mavsumiyligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmining rivojlanishi mahalliy aholiga sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatdi. Ijobiy tomoni shundaki, ziyoratchilar oqimi aholi uchun, xususan, mehmondo'stlik, transport va chakana savdo sohalarida muhim iqtisodiy imkoniyatlar yaratdi.

Mintaqadagi shaharlarda ziyoratchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun mehmonxonalar va boshqa turar joylar qurilishi bilan rivojlanayotgan mehmondo'stlik sanoati rivojlangan. Ziyoratchilarning oziq-ovqat, esdalik sovg'alari va boshqa tovar va xizmatlarga bo'lgan talabi ham joylarda tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Bundan tashqari, ziyorat turizmidan olingan daromadlar mahalliy hokimiyatlarga tarixiy va madaniy obidalarni tiklash va saqlash, shuningdek, infratuzilma va kommunal xizmatlarni yaxshilashga sarmoya kiritish imkonini bermogda. Bu esa umumiy rivojlanishning sifatini ijobiy tomonga o'zgartirmogda.

Biroq, ziyorat turizmining jadal rivojlanishi mahalliy aholi uchun ham bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarmogda [6]. Sayyohlar oqimi suv va energiya ta'minoti kabi mahalliy resurslardan ko'p foydalanmogda va ba'zida mashhur ziyoratgohlarda odamlarning haddan tashqari ko'pligi, tirbandlikka sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, ziyorat turizmining iqtisodiy foydalari har doim ham teng taqsimlanmagan, ba'zi aholi punktlari iqtisodiy imkoniyatlardan chetda qolmogda.

Qolaversa, ziyoratgohlarning tijoratlashuvining kuchayishi mintaqadagi madaniy va diniy merosni asrab-avaylash bilan bog'liq xavotirlarni kuchaytiradi. Muqaddas joylarning tovarga aylanishi va sayyohlarga yo'naltirilgan qulayliklarning ko'payishi bu joylarning haqiqiy tuzulishining o'zgarib ketishi va butunlay yo'qlob ketishi mumkinligi xavotirga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmining barqaror rivojlanishini ta'minlash mahalliy aholi ehtiyojlari, madaniy merosni asrab-avaylash va ushbu muhim sohaning iqtisodiy samarasini muvozanatlashda puxta o'ylangan yondashuvni talab qiladi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni ziyorat turizmi yo'nalishi sifatida rivojlanishda davom etar ekan, uning kelajakdagi yo'nalishini belgilab beruvchi bir qator muhim muammolar va imkoniyatlarga duch kelmogda.

Asosiy vazifalardan biri ziyoratgohlarning madaniy va diniy aslligini saqlash hamda tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va infratuzilmaga bo'lgan talabni qondirish o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlash zaruratidir. Buning uchun mahalliy hokimiyat organlari, diniy yetakchilar va turizm manfaatdor tomonlari o'rtasida ushbu joylarning muqaddasligini himoya qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqish va ziyoratchilar uchun ijobiy tajriba yaratish uchun yaqin hamkorlik zarur bo'ladi.

Yana bir qiyinchilik - bu mintaqaning transport qulayliklarini yaxshilash, xususan, uzoqroq ziyoratgohlarga borishdir. Yo'llar, jamoat transporti va boshqa infratuzilmalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish ziyoratchilarning

harakatchanligini oshirish va mintaqa bo'ylab iqtisodiy foydalaning adolatli taqsimlanishini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida madaniy va diniy turizmga jahon miqyosida ortib borayotgan qiziqishdan foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud. O'zining noyob tarixiy va ma'naviy boyliklaridan foydalangan holda, mintaqa o'zini dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni jalb qiladigan va mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar yaratadigan asosiy ziyoratgoh sifatida ko'rsatish mumkin [7].

Bundan tashqari, mintaqaning xilma-xil etnik-madaniy tarkibi turli diniy va etnik guruhlarining o'ziga xos ehtiyojlari va afzalliklarini qondiradigan ziyorat mahsulotlari va tajribalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu sayyohlik taklifini diversifikatsiya qilishga va mintaqani ziyoratchilarning keng doirasi uchun jozibador qilishga yordam beradi.

Bu imkoniyatlardan unumli foydalanish va muammolarni hal etish uchun Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmini rivojlantirishga kompleks, hamkorlikda yondashish zarur. Buning uchun turli manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat idoralari, diniy muassasalar, turizm operatorlari va mahalliy hamjamiyatlarning ushbu muhim sektorning barqaror va adolatli o'sishini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish talab etiladi [8].

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni o'zining turli xil diniy-madaniy merosi hamda o'ziga xos ijtimoiy-geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ziyorat turizmining boy tarixiga ega. Bu sohaning rivojlanishi mintaqaning murakkab demografik va etnik tarkibi, tabiiy geografiyasi va ziyorat faoliyatining mahalliy jamoalarga ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri bilan shakllangan.

Mintaqa ziyoratgoh sifatida rivojlanishda davom etar ekan, u ham qiyinchiliklarga, ham imkoniyatlarga duch keladi. Madaniy muhofazani turizmi rivojlantirish bilan muvozanatlash zarurligini hal qilish, foydalanish imkoniyati va infratuzilmani yaxshilash hamda diniy va madaniy sayohatlarga ortib borayotgan global qiziqishdan foydalanish Quyi Amudaryoda iqtisodiy rayoni ziyorat turizmining barqaror rivojlanishining kaliti bo'ladi.

Hamkorlikdagi, ko'p manfaatdor tomonlarning yondashuvini qo'llash orqali mintaqa uzoq vaqtdan beri ziyorat turizmini belgilab bergan ijtimoiy-geografik omillardan foydalanishi va ularni jonli, barqaror va madaniy jihatdan boyituvchi turizm sektorini yaratish uchun ishlatishi mumkin.

Bu nafaqat mahalliy mintaqalar aholisiga foyda keltiradi, balki mintaqadagi bebaho diniy va madaniy merosni yanada keng saqlash va targ'ib qilishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Alimov R., & Saidov, A. 2017. Quyi Amudaryo viloyatining madaniy merosi: saqlash muammolari va istiqbollari. *Markaziy Osiyo tadqiqoti*, 36(1), 123-140-b.
2. Berdiyev B. 2019. Quyi Amudaryo mintaqasida etnomadaniy xilma-xillik va uning ziyorat turizmiga ta'siri. *Etnik va madaniyatshunoslik jurnali*, 6(2), 45-60-b.
3. Ishanova Z. 2015. Quyi Amudaryo viloyatida ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish. *Turizm sharhi*, 70(3), 201-215.
4. Jumaev M. 2018. Quyi Amudaryo hududidagi so'fiylar ziyoratgohlarining aslligini saqlash. *Heritage Studies xalqaro jurnali*, 24(4), 365-378-b.
5. Karimov A. 2020. Quyi Amudaryo viloyatida ziyorat turizmi uchun transport va qulaylik muammolari. *Central Asian Business Journal*, 12(1), 89-104-b.
6. Matyoqubov U. va Rahmonov, F. 2016. Quyi Amudaryo viloyatida ziyorat turizmining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. *Turizm geografialari*, 18(2), 150-167-b.
7. Mirzaev N., & Abdikarimov B. 2021. Quyi Amudaryo viloyatida etnik-madaniy xilma-xillik va ziyorat turizmi mahsulotlarini rivojlantirish. *Turizm va madaniy o'zgarishlar jurnali*, 19(3), 264-281-b.
8. Niyozov R. va Eshchanov, B. 2019. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari. *Markaziy Osiyo ishlari*, 6(2), 123-142-b.

REZYUME. Ushbu maqola Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida ziyorat turizmi evolyutsiyasini shakllantirgan ijtimoiy-geografik jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Unda ziyoratchilarni hududga jalb qilgan asosiy diniy va madaniy yodgorliklar, ziyorat qilish tartibiga ta'sir etuvchi demografik va etnik omillar hamda mintaqaning tabiiy landshafti turizmining ushbu turining rivojlanishiga yordam bergan va cheklagan usullar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqola ziyorat turizmining mahalliy hamjamiyatlarga ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini, shuningdek, ushbu sohani yanada rivojlantirish oldida turgan muammolar va imkoniyatlarni o'rganadi.

РЕЗЮМЕ. Целью данной статьи является исследование социально-географических аспектов, определивших эволюцию паломнического туризма в Нижнеамударьинском экономическом районе. В нем обсуждаются основные религиозные и культурные памятники, привлекавшие паломников в регион, демографические и этнические факторы, влияющие на структуру паломничества, а также то, как природный ландшафт региона помогал и ограничивал развитие этого вида туризма. Кроме того, в статье рассматривается социально-экономическое влияние паломнического туризма на местные сообщества, а также проблемы и возможности дальнейшего развития этой отрасли.

SUMMARY. This article aims to study socio-geographical aspects that shaped the evolution of pilgrimage tourism in the Lower Amudarya Economic Region. It discusses the main religious and cultural monuments that have attracted pilgrims to the region, the demographic and ethnic factors that influence the pattern of pilgrimage, and the ways in which the natural landscape of the region has helped and limited the development of this type of tourism. In addition, the article examines the socio-economic impact of pilgrimage tourism on local communities, as well as the challenges and opportunities for further development of this industry.

RELYEFGA OID GEOGRAFIK TERMINLARNING TOPONIMLARDA ISHTIROKI (Dehqonobod tumani misolida)

B.T.Eshboyev – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: toponim, oronim, kamar, dara, dahna, o'r, qir, tepa, tov, soy.

Ключевые слова: топоним, ороним, камар, дара, дахна, ур, кир, край, вершина, гора.

Key words: toponym, oronym, kamar, dara, dahna, ur, edge, mill, mountain, valley.

Geografik nomlar inson yashash tarzining ajralmas qismi sifatida jamiyatning muhim bo'g'inini hosil qiladi. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan buyon atrofdagi geografik obyektlar va tabiat hodisalarini o'rganish asosida ularni turlicha nomlar bilan atashgan.

Kirish. Tilimizning lug'at tarkibi atoqli otlarga boy. Ularning salmoqli qismini joy nomlari tashkil qiladi. Joy nomlari ilmiy tilda toponimlar deyiladi. Joy nomlarini to'g'ri izohlash juda mushkul ish. Buning uchun o'zbek tilini puxta bilish va qo'shni tillardan ham xabardor bo'lishi kerak. Toponimik tadqiqotlar asosida yurtimiz geografiyasi, tarixi, etnografiyasi, leksikasi, madaniyatini bilishda ahamiyati katta. Joy nomlari ham o'zbek tili leksik tarkibining bir qismidir, tarixiy voqealar va kishilar taqdirining ko'zguisidir. Ularni til boyligimiz va madaniy merosimiz sifatida yozib olish va sinchiklab o'rganish lozim. Toponimik turlar ichida oronimlar muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari sifatida toponimika fani sohasida shakllangan g'oya va tushunchalar, o'rganilayotgan muammo bilan shug'ullangan mutaxassislarning ilmiy ishlanmalari xizmat qilgan. Toponimlarni shallanishida orografik terminlarning ahamiyatini toponimist olimlar – V.V.Bartold, E.M.Murzayev, H.H.Hasanov, S.Qorayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining tog'li tumanlaridan biri bo'lib, hududning deyarli barcha qismi tog' va tog'oldi adirlari, tog' oralig'i vodiylaridan iborat. Tog'li hududlarning geomorfologik xususiyatlariga bog'liq holda turli ekzogen jarayonlar, karst, suffoziya, daryolarning yemiruvchanlik faoliyati ta'sirida relyefi nihoyatda parchalangan va shu bilan birgalikda xilma-xil oronimlarni hosil qilgan. Tuman toponimlari tarkibida oronimlar salmoqli o'rin egallaydi, shuningdek oronimlar, orogidronimlarning hosil bo'lishida ham ularning o'rni katta. Hudud oronimlarida shuningdek, o'ziga xos orografik va oronimik terminlar joy nomlarida faol qo'llanilgan bo'lib, toponimik pozitivlik qonuniyati asosida juda ko'plab joy nomlari hosil bo'lgan.

Hudud oronimlari tarkibida relyefning muhim belgilarini anglatuvchi *kamar, dara, dahna, o'r, qir, tepa, tov, soy* va boshqa bir qancha terminlar faol qo'llanilgan. Tog'liklar nutqida *kamar* so'zi tog' yonbag'irining tik jarlikli, o'yiqli, kovak qirmlariga nisbatan qo'llaniladi. Tumanda *kamar* termini asosida *Pachkamar, Daukamar, Qorakamar, Ot-kamar, Qo'shkamar, Kamarqishloq* kabi oronimlar hosil bo'lgan. *Dahna* (forscha-tojikcha) – tog'liklar nutqida ko'p ma'nolarga ega bo'lib, daraning tor, ensiz, siyiq joyi, daraga kirish yo'lining boshi, daraning boshlanish yo tugash nuqtasi, tor jilg'aning o'zani qisqa joyi, ariqning mayda shaxobchalarga bo'lingan joyi, band va h.k. [4:36; 6:103]. sifatida joy nomlarida ishtirok etgan bo'lib, *dahna, dahana, dagana* shaklida toponimlar hosil qiladi hamda

aksar hollarda oronim va gidronimlarda faol qo'llaniladi. *Dahana, Oqdahana, Qoradahana, Qoradagana, Quruqdahna* yuqoridagi sifatarni o'z nomida muhrlagan.

Katta O'radaryo va Langar daryosi oralig'ida parchalangan, yuqori qismida yassi relyefga ega bo'lgan, paleoenning bo'rsimon ohaktoshlaridan tarkib topgan Langar – Qorabel qirlari joylashgan. T.Nafasovning ta'biricha biron so'z sharq joy nomlari sistemasida *langar* singari ko'p tarqalgan va tarixiy emas [5:83]. Qorabel toponimida *qora* – past, qorsiz tog' mazmunini beradi. Umuman oronimiyada *qora* so'zining – past, qorsiz, ba'zan o'simliksiz holatini anglatadi. *Bel* so'ziga "Boburnoma", "Devonu lug'atit-turk" kabi tarixiy asarlarda ham ta'rif berilgan bo'lib, dovon, tog'ning pasaygan qismi tushuniladi [3:186]. Qorabel – past dovonli, o'tish joylari pastroq bo'lgan tog' mazmunini o'zida mujassam etgan.

Qorabel tog'ining eng baland nuqtasi (1292 m) Katta Changarak cho'qqisidir. Forscha-tojikcha *sangak, sangoh - toshloq* so'zining o'zgargan shakli. Toponim dastlab *sangak-changak* shaklida bo'lgan, keyinchalik ko'plik affiksi –*ak* qo'shilib, changarak shaklini olgan. Toponim tarkibidagi so'nggi tovushlar o'zaro o'xshash bo'lganligidan toponim tarkibi o'zgarishga uchragan hamda *k* tovushi *r* tovushiga aylanish jarayoni yuz bergan. *Sangak* so'zining tosh, qoya shakli ham mavjud. Changarak – Toshloqzor, tepalik, o'ngir-cho'ngir toshloqli qoya sifatida izohlanishi mumkin. Shuningdek bu tog'da balandlik ko'lamini kichikroq shu nomdagi cho'qqi ham borki, har ikkala toponimga katta va kichik sifatlovchi so'z qo'shish asosida biridan ikkinchisi farqlanadi. Langar qirlarida Tog'orasoy nomli soylik bo'lib, relyef tuzilishi tog'oraga o'xshash botiq tuzilishda bo'lganligidan shu nomni olgan.

Hisor tog'lari janubiy-g'arbiy tarmoqlarining bir qismini shimolda Katta O'radaryo, janubda esa Kichik O'radaryo vodiysi bilan chegaralangan Bobosurxon – Qorasirt tog'lari hosil qiladi. Bu tog'larning o'rtacha baland mintaqasini 1500-2600 metr balandlikdagi tog'lar hosil qiladi. Sovuqbuloq dovonidan sharqda joylashgan bu mintaqada to'lqinsimon yassi suvayirg'ichlar, egarsimon, tik yonbag'irli qoyatoshli daralar, karst voronkalari va g'orlar xilma-xil relyef shakllarini hosil qiladi. Qorasirt toponimida *qora*–baland, yuqori, *sirt*–tog' ustidagi kichik hajmli tekislik yoki tekisliklar borligini ifodalaydi [7]. Bobosurxon tog'ining o'rtacha balandligi 900-1500 metrni tashkil etadi. Bobosurxon (ba'zan Bobosurxak) nomi ham orografik termin bilan bog'liq toponimdir. *Bobo* so'zi joy nomlarida ulkan, katta, buyuk, muqaddas mazmunida qo'llaniladi. *Surxak-surxon-surxob* hududning qizg'ish tuproqli yoki qizg'ish suvli ekanini bildiradi. Bobosurxon – qizg'ish tuproqli balandlik, tog'lik.

Chaqchar tog'ining janubi-g'arbiy qismi va Qorasirt tog'ining shimoli-sharqiy qismida meridional yo'nalishda Sariqiya tog'i qad ko'targan. *Sari* so'zi fonetik jihatdan *sariq* so'ziga o'xshasa ham ular turli ma'noga ega

omonimlardir. Qozog'iston toponimiyasida sari "keng, cho'zilgan" degan ma'noni ifodalaydi [2:51]. Tojikchaforscha sari – bosh, yuqori ma'nolarida keladi, ostona yoki qirg'oq shaklidagi mo'g'ulcha shakli, taraf, tomon, yo'nalish turini anglatuvchi sari so'zi ham mavjud. Quyi Qashqadaryo turkmanlarining sariq–sari urug'i bor, mang'it, batosh, qo'ng'iroq va boshqa urug'larning ham sari - sarig' nomli urug'i bo'lgan. Toponimning ikkinchi tarkibini hosil qilgan qiya – qoya so'zining o'zgargan shakli. Sariqiya (aslida Sariqo'ya) bosh qoya, baland, yuksak cho'qqi, tik qoya mazmunini ifodalaydi. Sarig'o'rim toponimi Sariqiya toponimiga shaklan o'xshash va mazmun jihatdan ham sinonimdir. Yag'nob tilida g'or, so'g'd tilida g'ar – yirik dumaloq tosh [4:61] ma'nosida qo'llaniladi. Demak Sarig'o'rim oronimi ham tog' yuqorisi, balandlik ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, joyning relyef xususiyatini o'z nomida namoyon etadi.

Dehqonobod tumani Beliboyli qishlog'ining janubida ajoyib shaklga ega bo'lgan Qopqoqli Ovuz tog'i joylashgan bo'lib orografik tuzilishi xuddi qopqoq og'zidek, oval shaklga ega bo'lganligidan shu nom bilan atalgan.

Kichik O'radaryo vodiysining janubi-g'arbida o'rtacha balandlikdagi Oqboshtog' joylashgan. Uning maksimal balandligi 2172 metrga yetadi. Toponim tarkibi oq+bosh: turkiy tillarda oq–baland, yuksak, qorli tog', bosh–oronimiyada baland tog', tog'ning baland qismi, tog' cho'qqisi. Oqbosh topasosga keyinchalik turdosh ot nomi bo'lgan tog' so'zi qo'shib Oqboshtog' nomini olgan. Mahalliy aholi hozir ham Oqbosh deb atashadi. Oqboshtog' - baland tog' mazmuniga ega.

Adabiyotlar

1. Bartold V.V. Sochineniya. Raboti po otdelnim problemam istorii Sredney Azii. t. II ch.2. - M.: «Nauka», 1964. -S. 659.
2. Do'simov.Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: «O'qituvchi», 1977. 174- b.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk (Turkiy so'zlar devoni). III jild. –T.: 1963.
4. Nafasov T. O'zbek nomnomasi. -Qarshi: «Nasaf», 1993. 152-b.
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: «O'qituvchi», 1988. 288-b.
6. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. –T.: «Muharrir», 2009. 432-b.
7. Hasanov H.H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: «Fan», 1965. 17-b.

REZYUME. Ushbu maqolada geografik tadqiqotlarda ko'pincha obyekt vazifasini bajaradigan relyef shakllarini ifodalovchi orografik terminlarning toponimlar hosil bo'lishidagi ahamiyati Dehqonobod tumani toponimlari misolida yoritib berilgan. Hudud oronimlarini hosil qilgan orografik terminlar ilmiy tahlil qilingan va shu asosda toponimlarning etimologiyasi aniqlangan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье на примере топонимов Дехканабадского района подчеркивается значение орографических терминов, представляющих формы рельефа, которые часто служат объектом географических исследований, в формировании топонимов. Научно проанализированы орфографические термины, образовавшие топонимы региона, и на этой основе определена этимология топонимов.

SUMMARY. In this article, the importance of orographic terms representing relief forms, which often serve as an object in geographical research, in the formation of toponyms is highlighted on the example of the toponyms of Dehqanabad district. The orographic terms that formed the toponyms of the region were scientifically analyzed and the etymology of the toponyms was determined on this basis.

SAKRAL GEOGRAFIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

I.B.Safarov – o'qituvchi
Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: sakral, muqaddas, qadimiy, urug', qabila, makon, sirli joylar.

Ключевые слова: сакральный, священный, древний, клан, племя, пространство, мистические места.

Key words: sacral, sacred, ancient, seed, tribe, space, mysterious places.

Qadim davrlardayoq vujudga kelgan geografik tasavvurlarning negizida sakral tasavvurlar turadi. Tarixiy jarayonlarga noan'anaviy qarash uchun ilmiy muomalaga "sakral" (lot. *sacer* yoki *sakri* - muqaddas, tabarruk, ibodat, sig'inish, marosim, ilohiy, sirli) tushunchasi kiritilgan [3:891]. Qadimdan mavjud bo'lgan sakrallik (muqaddaslik) tushunchasi va sakral tasavvurlar Yerda oqil insonning mavjudligi bilan chambarchas bo'g'liq. Umuman qadrlanadigan obyektlarning toifasi va majmuasi sifatidagi sakrallik inson psixikasining, xususan inson idrokining muayyan xususiyatlari tufayli shakllanadi. Bundan tashqari, sakrallik ayrim kishilarning ham, hamjamiyatning ham sotsial-psixologik ehtiyojlariga xizmat qilishi lozim.

Sakral obyektlar qadimdan bir hududda yashaydigan urug'lar, qabilalar, xalqlarning yoki juda katta hududdagi qardosh xalqlarning a'zolari uchun birlashtiruvchi rolni bajargan. Urug'larning sakral joylari oddiy birlashtiruvchi

Bobosurxon tog'ining g'arbdagi davomi hisoblangan Kaypantog' ham xuddi yuqoridagi toponimik mazmunning o'zginasi. Qadimgi eroniy tilda *kaufa*-tog', baland tog', -on, -an suffiksi mavjudlikni bildiradi. Kaypantog' - baland tog', yuksak tog' demakdir. Dehqonobod shaharchasidan g'arbdagi Odamtosh tog' massivi (balandligi 1279 metr) nomi o'xshatish asosida nomlangan. Tog'ning baland qoyali qismi uzoqdan qaraganda odam ko'rinishiga o'xshaganligi uchun unga shu nomni berishgan, *tosh* termini esa tog' yoki qoya ma'nosida qo'llanilgan. Dehqonobod tumanining janubiy qismida Ellikbosh tizmasi joylashgan. Tog' atrofdan keskin ko'tarilgan bo'lib, cho'qqi va qoyalari uzoqdan qaraganda ham yaqqol ko'rinib turadi. Shu tufayli mahalliy aholi tog'ni sercho'qqi tog', cho'qqi va baland qoyalarga serob tog' ma'nosini beradigan Elikbosh nomi bilan atashgani bejiz emas.

Xulosa. Geografik atamalar har qanday regional toponimiyaning asosini tashkil etadi. Geografik atamalarni, xususan har bir atamaning mahalliy aholi nutqidagi ma'nosi va funksiyasini, toponimiyadagi mavqeyini o'rganmasdan turib regional toponimiyani lingvistik jihatdan to'g'ri izohlash mumkin emas. Shuning uchun joy nomlarini, xususan, oronimlarni (tog'lar, yassitog'lar, tog' cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari) geografik jihatdan o'rganish, ilmiy tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Dehqonobod tumani oronimlarining ko'pchiligi relyefning muayyan xususiyatlarini o'z nomida asrlar davomida ma'naviy boylik sifatida saqlab kelmoqda hamda ular geografik tadqiqotlarning muhim manbai sifatida qadrlanmoqda.

obyektlar bo'lgan va ular qadim davrlardan buyon aholi manzilgohlari yaqin-atrofida joylashgan, keyinroq esa aholi manzilgohlarida markaziy o'rin tutgan tabiiy obyektlar bo'lgan. Urug'larning muqaddas joylari hududida urug'ning tabarruk yodgorliklari saqlangan.

So'nggi yillarda turli tabiiy va gumanitar fanlar tutashuvida ilmiy izlanishning ko'pdan-ko'p yangi yo'nalishlari yuzaga kelmoqda. O.Shabliy (1993) diniy jabhaning geografiyaviyligini isbot qilgan holda "sakral geografiya" terminini qo'llaydi [4]. Sayyoramizdagi bunday meroslarni o'rganish va asrash yangi integral ilmiy yo'nalishni - sakral geografiyani (*sacred geography, сакральная география*) shakllantirdi. P.V.Shukanovning fikricha, sakral – falsafiy – ilmiy yondashuvlarni tahlil va sintezi asosida sakral geografiya konkret tarixiy va geografik makonda Borliqning muqaddas-an'anaviy namoyon bo'lishini o'rganadi. Sakral geografiyaning

umumiy obyekt yagona sakral makonning tarkibiy qismi sifatidagi geografik qobiq; turli kuchlar va ularga mos keladigan jarayonlar, hodisalar va ruhiy-ma'naviy va axborot-energetik sajiyadagi muqaddas obyektlar sakral geografik tadqiqotning predmetli o'ziga xosligidir [5:3-6].

Sakral geografiya geografiyaning madaniyatshunoslik, tarix (arxeologiya) va boshqa fanlarning tutashuvida shakllangan tushuncha va ilmiy yo'nalish bo'lib, uning o'rganish predmetini yer yuzasining an'anaviy tabiiy komponentlari emas, balki an'anaviy fizikaviy komponentlariga ega bo'lgan geografik makon, aniqrog'i geografiyaning belgilar-simvolik jihatlari yoki sakral landshaftlar tashkil etadi. Sakral geografiyaning shakllanishi sosial-gumanitar sohada makoniy burilish deb nomlanadigan XX asrning so'nggi choragida olimlarning e'tibori zamon kategoriyasini tadqiq qilishdan makonni yangicha o'qishga o'tish bilan bog'liq bo'ldi.

Geografiya fanlari tizimida rivojlanayotgan sakral geografiya integral ilmiy yo'nalish sifatida ko'pgina mamlakatlarda sekin-asta tadqiqotning alohida, mustaqil sohasiga aylanib bormoqda, sakral geografik tadqiqotlar esa tobora dolzarblashmoqda.

Jahonning deyarli barcha xalqlarida qadim zamonlardan buyon sakral (muqaddas va mo'tabar) qadamjolar maqomiga ega bo'lgan obyektlari mavjud. Bunda shaxsning axloqiy-ma'naviy holati, uning ehtiyoji va ularni qondirish muhim ahamiyatga ega. Insonning ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatining bu jihatlari sakral-ilmiy yondashuvdan foydalanish kontekstida, sakral-geografik bilimlarni shakllanishi misolida o'rganish maqsadga muvofiq (Shukanov, 2012).

Insoniyat tog'lar va daryolarga, g'orlarga, toshlarga, daraxtzorlarga, yo'llarga, buyuk kishilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarga va qabristonlarga, kreatsiya joylariga, o'lim bilan bog'liq bo'lgan voqealar sharafiga qo'yilgan haykallarga, kitoblarga, qadimiy inshootlar xarobalariga, ibodatxonalarga va boshqa madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga **"sakral joylar"** maqomini beradi. Shuningdek, ajdodlar kulti, davlat hokimiyati, ijodiy geniallik (va genial bo'lgan shaxslar), bilim (ayniqsa mistik tushunchadagi bilim), tabiatning buyukligi, jangovar qahramonlik, madaniyat namoyon bo'ladigan joylar bilan bog'liq obyektlar ham muqaddaslik maqomiga ega bo'lishi mumkin. Sakral joylarni ziyorat qilish niyati, turli diniy marosimlar va amallarni o'z ichiga oladigan diniy amaliyotdir. Shunday qilib, sakral maqomga ega bo'lgan geografik obyektlar jumlasiga benazir kishilarning hayoti va tarixiy voqealar bilan bog'liq joylar, memoriallar, madaniy qadriyatlar (muzey, kutubxona), mashhur tabiiy urochishalar, nufuzli o'quv yurtlari va boshqa joylari ham qaralishi mumkin.

Geografik nuqtai nazardan sakral joylar diniy funksiyani bajaradigan tabiiy-antropogen geosistemalar bo'lib, ular birinchi navbatda insoniyatning diniy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek aholining muayyan toifasiga mansub kishilarning bunday joylar bilan munosabatda bo'lishga intilishiga sabab bo'ladigan ziyorat qilinadigan obyektlardir. Hududiy hosilalarning bunday toifasi insoniyat rivojlanishining har bir bosqichda mavjud bo'lgan "sakral joylar" tushunchasiga to'g'ri keladi va barcha hozirgi dinlarda mavjud.

Sakral geografiya – turli geografik obyektlar, muayyan sotsial-madaniy borliqqa, aynan sakrallik toifasiga ega bo'lgan geografik makonning o'zaro nisbati to'g'risidagi bilimlar tizimidir. Sakrallik tushunchasi eng avvalo din va uning bevosita mistikiga taalluqli tomoni bilan bog'liq. Muqaddaslik deyarli hamma vaqt transtsedentlik, mistik va sir bilan bog'liq [2:3].

Sakral geografiyada obyektlarning turlari, ularning geografik o'rni, paydo bo'lishining tarixi, va bu obyektlar bilan bog'liq bo'lgan hozirgi an'analar o'rganiladi. Sakral geografiya – sayyoramizdagi sakrallik toifasidagi muayyan

obyektlarning o'zaro munosabatini aniqlash to'g'risidagi bilimlar tizimi bo'lib, u diniy tizimlardagi hududiy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Sakral geografiyaning o'rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir. Ular – xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo'lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo'qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko'p yillik ziyorat va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko'rinmas kuchlari yaratgan unikal landshtatlardir [1:81-85].

Sakral geografiya – tabiat va madaniyatning birgalikdagi fenomeni, kishilar ziyorat qiladigan tabarruk va muqaddas hududlarning birikmasidir. Quruqlik va suvning qismlari, qurilishlar va mahalliy kishilar ongida muqaddaslik sajiyasiga ega bo'lgan narsalar shunday joylardir. Sakral joylar ziyorat qilish fenomeni mamlakatda keng tarqalgan ritual amaldir. Sakral geografiya - tabiiy, madaniy va tarixiy merosning alohida qadrlanadigan va muqaddas obyektlari to'g'risidagi tarixiy - geografik bilimlar tizimi.

Sakral geografiya – sayyoramizdagi muqaddaslik toifasidagi muayyan obyektlarning o'zaro munosabatini aniqlash to'g'risidagi bilimlar tizimi bo'lib, u diniy tizimlardagi hududiy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Uning o'rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir.

Sakral geografiyaning o'rganish obyektlarini turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalar tashkil etadi. Ular – xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo'lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo'qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko'p yillik ziyoratgohlar va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko'rinmas kuchlari yaratgan unikal landshtatlardir.

Sakral geografiyaning o'rni dinning jamiyatdagi roli bilan belgilanadi. Shu sababli fanning bu tarmog'i madaniy geografiya va xizmat ko'rsatish geografiyasi oralig'ida turadi. Sakral geografiya madaniy geografiyaning bo'limlaridan biri deb hisoblash qabul qilingan. Sakral geografiyaga doir yozilgan ishlarning ko'pida u mazmuniga ko'ra batamom kulturelogik soha bo'lib, badiiy ijodiy, diniy san'at va diniy falsafa, madaniy-tarixiy tadqiqotlarni sintez qiladi. Zero, dinning o'zi insoniyat ma'naviy madaniyatning eng muhim jabhalaridan biri hisoblanadi, uning mavjudligi (faoliyati) – bu dastavval ishlab chiqarish va sakral xizmatlarni iste'moli.

Xulosa, takliflar, tavsiyalar. Geografiya fanlari tizimida rivojlanayotgan, tabiiy, madaniy va tarixiy merosning alohida qadrlanadigan va muqaddas obyektlari to'g'risidagi tarixiy –diniy - geografik bilimlar tizimi bo'lgan sakral geografiyaning vazifalariga muqaddas, alohida qadrlanadigan joylarni, kishilarning muayyan hamjamiyati nazarida ilohiy ahamiyat kasb etadigan diniy yodgorliklarni, muayyan hududda (mamlakatda) diniy vaziyatning shakllanishining tarixiy-geografik jihatlari, makoniy tasavvurlarning ayrim turlarini (sistemalarini) – diniy tizimlaridagi tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o'rganish kiradi. Unda sakral obyektlarining har xil turlari, ularning joylanishi, paydo bo'lish tarixi va xalqlar hayotidagi ahamiyati, shuningdek ular bilan bog'liq diniy-marosim amallarining tizimi o'rganiladi.

Sakral meroslarni o'rganish va asrash bilan shug'ullanayotgan sakral geografiyaning vazifalaridan biri – ichki ziyorat va bilish turizmini rivojlantirish, vatanparvarlikni tarbiyalash, kishilarning salomatligini va ma'naviy hayotini yaxshilashdan iborat. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o'rganishning istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar

1. Абуллаев С.И., Жанкабиллов И.Х., Назаров М.Г. Сакрал география - янги интеграл илимий йўналиш. // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 49-жилд. 81-85-б.
2. Лавренова О.А. Культурный ландшафт: от Земли к Космосу. Ноосферная концепция В.И.Вернадского и понятие культурного ландшафта. //Биосфера. Электронный научный журнал. 2003. № 2. Режим доступа: <http://www.ihst.ru/~biosphere/03-2/Lavren.htm>
3. Латино-русский словарь. – М.: 1976. –С. 891.
4. Шаблий О.И., Висьтак А.И. Сакральная география: становление и проблемы развития. // Проблемы территориальной организации общества: тезисы докл. науч. конф. – Пермь: 1993. – С. 27–28.
5. Шуканов П. Сакрално – наукові основи освітнього процесу. – Полтава: 2012. № 3 (122). –С. 3-6.

REZYUME. Ushbu maqolada sakral geografiya tushunchasi va uning predmeti bo'yicha xorijiy olimlarni "sakral geografiya" terminiga bergan ta'riflari, geografikiya fanlari tizimida rivojlanayotgan sakral geografiyani mustaqil soha sifatida rivojlanayotganligi, Sakral meroslarni o'rganish va asrash sakral geografiyaning vazifalaridan biri – ichki ziyorat va bilish turizmini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье излагаются понятия сакральной географии и определения её предмета, приведенные иностранными учеными к термину "Сакральная география", излагаются предложения и рекомендации по развитию сакральной географии как самостоятельной области в системе географических наук, изучению и сохранению сакрального наследия как одной из задач сакральной географии – развитию внутреннего паломничества и познавательного туризма.

SUMMARY. This article describes the concept of sacral geography and its definitions of foreign scientists for the term "sacral geography", the development of sacral geography as an independent field in the system of Geographic Sciences, the study and preservation of sacral legacies one of the tasks of sacral geography – proposals and recommendations for the development of internal pilgrimage and cognitive tourism.

**МЕХНАТ РЕСУРСЛАРИ ВА УНДАН ФОЙДАЛАНИШ
(Сурхондарё вилояти мисолида)**

З.Н.Тожиева – география фанлари доктори, профессор

Н.С.Пардаев – стажёр ўқитувчи

С.М.Хурсанов – таянч докторант

Ўзбекистон миллий университети

Таянч сўзлар: Сурхондарё вилояти, аҳоли, ишлаб чиқариш кучлари, меҳнатга лаёқатли аҳоли, аҳоли сони, аҳоли такрор барпо бўлиши, меҳнат ресурслари, ишчи кучи, иқтисодий фаол аҳоли, иқтисодий нофаол аҳоли, ишсизлик.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, население, производительные силы, трудоспособное население, численность населения, воспроизводство населения, трудовые ресурсы, рабочая сила, экономическое активное население, экономическое неактивное население, безработица.

Key words: Surkhandarya region, population, productive forces, working-age population, population regeneration, labor resources, workforce, economically active population, economically inactive population, unemployment.

Аҳолининг миқдори ва таркибини доимо табиий тарзда янги авлодлар томонидан кекса авлодлар ўрнини тўлдириши орқали янгиланиши аҳолининг такрор барпо бўлиши ҳисобланади. Бу жараён аҳоли меҳнат ресурслари ва мамлакат ижтимоий- иқтисодий ҳаётида муҳим аҳамият касб этади. Ҳар қайси мамлакатнинг аҳолиси такрор барпо бўлиши бу унинг ишлаб чиқариш кучлари хусусан, меҳнат ресурслари сифатида намоён бўлади [2]. Аҳолининг такрор барпо бўлиши жамиятнинг мавжудлигини, аҳоли сонини ўсиб боришини таъминловчи жараён ва у бевосита ижтимоий-иқтисодий муҳит билан боғлиқ ҳолда содир бўлади. Аҳоли такрор бўлиши жараёни ҳамда меҳнат ресурслари таркиби ижтимоий муҳит учун ҳам муҳим омил саналиб, айни бир пайтнинг ўзида инсонлар ўз ҳаёти учун зарур нарсаларни яратадилар, хизмат кўрсатади ва ишлаб чиқариш жараёнини ҳам ривожлантиради.

Бозор муносабатларининг ривожланиши айрим назарий тушунчалар мазмунини тубдан ўзгартириб юборди. "Меҳнат ресурслари", "иш кучи" кабиларни шундай тушунчалар жумласига киритиш мумкин [7].

Меҳнат ресурслари дунё миқёсида аксарият давлатлар томонидан деярли бир хил таснифланади. Кишилар ёшининг улғайишига қараб меҳнат ресурсларига дастлаб кўшиладилар, сўнгра (ёши ўтгач) ундан чиқадилар. Кўпчилик мамлакатларда, шу жумладан, Ўзбекистонда 16-59 ёшдагилар меҳнат ресурсларига киритилади. Меҳнат ресурслари ўсиши аҳолининг кўпайишига боғлиқ. Аҳоли таркибида ёшлар қанчалик кўп бўлса, меҳнат ресурслари шунчалик тез ўсади. Меҳнат ресурсларини меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли ҳамда иқтисодий банд бўлган ўсмирлар ва нафақахўр катта ёшдаги кишилар ташкил қилади. Яъни унга кўра меҳнат ресурслари иккита қисмга ажратилиб, улар иқтисодий фаол ва иқтисодий нофаол аҳолига бўлинади [3]. Муस्ताқиллик йиллари Ўзбекистон Республикасида ҳам Халқаро Меҳнат Ташкилоти тавсия этган аҳолини таснифлаш тизимига ўтилди, унга кўра аҳолини тизимий тақсимлашда мамлакат меҳнат

ресурслари иқтисодий фаол ва иқтисодий нофаол қисмларга ажратилди. Меҳнат ресурслари аҳолининг ўз руҳий физиологик ва ақлий сифатлари билан моддий неъматлар ишлаб чиқаришга ёки хизматлар кўрсатишга қодир бўлган меҳнатга лаёқатли қисмидир. Меҳнат ресурслари таркибига фақат иқтисодий фаол аҳолигина эмас, шу билан бирга ҳозирда ишламаётган ва иш қидирмаётган меҳнатга қобилиятли шахслар қиради [8].

XX аср охири XXI аср бошларида Ўзбекистонда меҳнат ресурслари ҳар йили 320-350 минг киши атрофида кўпайиб борди. Уларнинг асосий қисмини меҳнат ёшига қадам қўйганлар ташкил этади.

Tayanch so'zlar: ish yuritish, boshqaruv hujjatlari, tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, lokal normativ hujjat, ustav-nizom, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yo'riqnoma, shartnoma, mehnat bitimi, shtat jadvali, ta'tillar grafigi, guvohnoma, dastur, yo'l xaritasi, buyruq, farmoyish, ko'rsatma.

Ключевые слова: делопроизводство, управленческие документы, организационные документы, приказные документы, локальные нормативные документы, устав, правила внутреннего трудового распорядка, инструкции, договоры, трудовые договоры, штатное расписание, график отпусков, свидетельство, программа, дорожная карта, приказ, распоряжение, указание.

Key words: office management, administrative documents, organizational documents, directive documents, local regulatory document, charter-statute, internal labor regulations, instruction manual, contract, labor agreement, staffing table, vacation schedule, certificate, program, roadmap, order, directive, instruction.

Kirish. Ish yuritish hujjatlarining asosiy qismi boshqaruv sohasiga o'ldir. Boshqaruv hujjatlari korxonada, tashkilot, muassasa, xo'jalik birlashmalari va boshqa davlat yoki xususiy boshqaruvdagi tashkiliy tuzilmalarga tegishli hujjatlar hisoblanadi. Ular boshqaruv faoliyatiga oid hujjatlar deb ham yuritiladi. Mazkur toifaga kiruvchi hujjatlar idoralarning ish faoliyatini tashkil etish, yo'naltirish, nazorat qilish; ichki munosabatlarini, xodim va idora munosabatlarini, idoralarda munosabatlarni tartibga solish; rasmiy axborotlarni uzatish, taqdim etish, qayd qilish maqsadlarida rasmiylashtiriladi. Boshqaruv hujjatlarining ayrimlari (ustav, ustav-nizom, ichki mehnat tartiboti qoidalari, jamoat shartnomasi, asosiy faoliyatga oid buyruqlar) *lokal normativ hujjat* bo'lib, ularda tashkilot ichida amal qilinadigan huquqiy me'yorlar, tartibotlar belgilanadi, xodim va tashkilot orasidagi huquqiy munosabatlar tartibga solinadi. Har bir tashkilot o'z faoliyati xususiyatidan kelib chiqib, tashkilotdagi ish jarayoni va mehnat munosabatlariga doir ayrim masalalarni tartibga soluvchi lokal (ya'ni ichki) normativ hujjatlarni mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi [6].

Boshqaruv hujjatlari tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari va xizmat yozishmalaridan iborat bo'lib, biz mazkur maqolamizda tashkiliy va farmoyish hujjatlarining o'ziga xos jihatlari tahlilga tyortamiz.

Adabiyotlar tahlili va metod. O'zbek hujjatshunosligida hujjatlarni tasniflash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar deyarli uchramaydi, ayrim maqolalardagina bu xususda so'z yuritilgan [3]. A.A.Hasanov va R.A.Ishmuxamedova hammuallifligidagi kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan "Ish yuritish" darsligida boshqaruv hujjatlariga nisbatan "tashkiliy-boshqaruv hujjatlari" atamasi qo'llaniladi va mazkur hujjatlar uch toifaga ajratiladi: 1) tashkiliy hujjatlar; 2) boshqaruv hujjatlari; 3) ma'lumot-axborot hujjatlari [2].

"Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasida hujjatlar ma'muriy-boshqaruv faoliyatidagi xizmat mavqeyiga ko'ra to'rt turga ajratib ko'rsatilgan: *tashkiliy hujjatlar; farmoyish hujjatlari; ma'lumot-axborot hujjatlari; xizmat yozishmalari* [1]. Mazkur tasniflash o'zbek hujjatchiligida keng tarqalgan. Idorada qo'llaniladigan hujjatlar orasida tashkiliy va farmoyish hujjatlari alohida o'rin tutadi.

Tashkiliy hujjatlar ishlab chiqarish korxonasi, xizmat ko'rsatish muassasasi, shuningdek, davlat boshqaruvi tashkilotlari, umuman olganda, har qanday davlat yoki xo'jalik birlashmalarining faoliyatini tashkil etish, ularning maqomi, huquq va vazifalarini belgilash, ish jarayonini tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish va baholashga xizmat qiladi. *Ustav-nizom, ichki mehnat tartiboti qoidalari, yo'riqnoma, shartnoma, mehnat bitimi, shtat jadvali, ta'tillar grafigi, guvohnoma, dastur, yo'l xaritasi, sertifikatlar, litsenziyalar* kabi hujjatlar tashkiliy hujjatlar

sirasiga kiradi. Ular barcha idoralarda bir xil mazmun-mohiyat kasb etadi.

Tashkiliy hujjatlarga xos umumiy belgi ular *faoliyatini tashkil etish, yuritish va nazorat qilishga* qaratilgan bo'ladi. Ular tashkiliy tuzilmaning huquqiy maqomini belgilashi, ish beruvchi va xodimlar orasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishi, ish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va baholab borish kabi masalalarni qamrab olishi bilan normativ-huquqiy hujjatlarga o'xshab ketadi. Tashkiliy hujjatlar matn tuzilishi, shakl va mazmuni, rasmiylashtirish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarga juda yaqin. Shu bois mazkur guruhga kiruvchi hujjatlar aksariyati tashkiliy tuzilmaning huquqshunoslari tomonidan tayyorlanadigan lokal normativ hujjatlardir. *Ustav, nizom, yo'riqnoma, ichki mehnat tartiboti qoidalari, jamoat shartnomasi* kabi hujjatlar xo'jalik yurituvchi subyektning jamoaviy faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi *lokal normativ hujjatlar* hisoblanadi. Lokal normativ hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlardan farqi ular faqat muayyan tashkilot doirasida amal qiladi va korxonada, tashkilot, muassasa ichida amal qilinadigan huquqiy normalarni belgilaydi. Lokal normativ hujjatlar mazmun-mohiyati, bajaradigan vazifasi va maqomiga ko'ra normativ-huquqiy hujjatlarga o'xshab ketadi. Lokal normativ hujjatlar matn mazmuni va matn tuzilishi, hujjatning rasmiylashtirilishi normativ-huquqiy hujjatlar bilan deyarli bir xil. Ularning matn mazmuni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi lozim. Ya'ni lokal normativ hujjatlarda normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarning tashkilot (korxonada, muassasa) kesimida amal qilishi bo'yicha aniq me'yorlar belgilanadi.

Farmoyish hujjatlariga manbalarda umumiy ta'rif berilmagan. Davlat tilida ish yuritish amaliy qo'llanmasida buyruq, farmoyish va ko'rsatmalar farmoyish hujjatlariga kirishi qayd etilgan [1]. A.A.Hasanov va R.A.Ishmuxamedova hammuallifligidagi kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan "Ish yuritish" darsligida boshqaruv hujjatlariga nisbatan "tashkiliy-boshqaruv hujjatlari" atamasi qo'llaniladi va mazkur hujjatlar ikkinchi toifasi bo'lgan "boshqaruv hujjatlari"ga 5 ta hujjat turi: *qaror, hal qiluvchi qaror, buyruq, farmoyish va ko'rsatmalar* kiritiladi [2]. Biz "Davlat tilida ish yuritish" amaliy qo'llanmasidagi tasniflashga tayangan holda ish tutdik. Qaror (yoki hal qiluvchi qaror) hujjatini farmoyish hujjatlariga kiritish biron munozarali. Chunki qaror tashkilotlarda bayonnomaning bir qismi sifatida qaraladi. Qonun chiqaruvchi yoki ijro etuvchi organlarning qarorlari alohida hujjat bo'la oladi, biroq ular boshqaruv hujjati emas, normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [4].

Farmoyish hujjatlarini ularning mazmun mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha tavsiflash mumkin: *Korxonada, tashkilot, muassasa kabi yuridik shaxs maqomiga ega tashkiliy tuzilmalarning asosiy faoliyatini rivojlantirish, tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, xodimlar vazifalarini belgilash, o'zgartirish, bekor qilish, tashkilot va xodimlar*

oldiga turli xil vazifalar qo'yish, topshiriqlarning ijro mexanizmlarini belgilash kabi jarayonlarni tartibga solish maqsadida chiqarilgan hamda ijroga yo'naltirilgan topshiriq, vazifa va tavsiyalarni aks ettiruvchi hujjatlarni farmoyish hujjatlari toifasiga birlashtirish mumkin. Farmoyish hujjatlari uch turga bo'linadi: buyruq; farmoyish; ko'rsatma.

Muhokama. Tashkiliy hujjatlar o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan boshqa hujjat toifalaridan farq qiladi. Ularga xos umumiy lingvistik jihatlar quyidagilardan iborat: matn hajmi boshqa hujjat toifalaridan farqli ravishda kengroq bo'ladi, ikki-uch varaqdan ber necha o'n varaqqacha kengayishi mumkin;

huquqiy atamalardan, shuningdek, umumiste'moldagi neytral so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi, zarur hollarda, matnda qo'llanilgan ayrim tushuncha va atamalar izohlab beriladi;

hujjat matni mazmuniga ko'ra rim raqami bilan (I., II., III., IV.) bo'limlarga (yoki boblarga), arab raqami bilan (1., 2., 3., 4.) bandlarga, qavsli harflar bilan (a), b), d), e)) qismlariga va xatboshilar bilan bo'laklarga ajratiladi;

matndagi jummlar, asosan, uchinchi shaxs majhul nisbatdagi o'tgan zamon davom fe'li bilan shakllangan kesim orqali tuziladi: tartibga soladi; ...yagona xizmat ko'rsatuvchi hisoblanadi; ... faoliyat ko'rsatadi; ... yo'l qo'yilmaydi;

ba'zan jummlar ot-kesim bilan shakllanadi: ... ehtiyojni qondirishdir; ... o'z muhriga ega;

bandlarning qismlarini umumiy izohlovchi fe'l – o'tgan zamon davom fe'li bo'lib, qismlarning tugallanmasi harakat nomining (i)sh qo'shimchasi bilan shakllanishi mumkin: xodimning vazifasiga quyidagilar kiradi: a) ishga o'z vaqtida kelish: b) ... bajarish; v) ... ta'minlash kabi;

shartnomalarning kelishuv predmeti ko'rsatilgan kirish qismi birinchi shaxs ko'plikdagi fe'lining o'tgan zamon ko'rinishida shakllanadi: tomonlar shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

Tashkiliy hujjatlar texnik jihatdan rasmiylashtirilishida ham umumiy jihatlar mavjud. Ularning aksariyati rahbar yoki yuqori organ tomonidan imzo va muhr bilan tasdiqlanadi hamda tasdiqlash ustxatiga ega bo'ladi.

Farmoyish hujjatlari matnning qisqaligi, ifodaning hukm, topshiriq yoki tavsiya mazmuniga yo'naltirilganligi bilan tashkiliy hujjatlardan farqlanadi. Farmoyish hujjatlaridan buyruqlar amaliyotda keng tarqalgan, deyarli barcha tashkilotlarda buyruq tayyorlanadi, biroq tashkilotlarning ish yuritish tizimida farmoyish va ko'rsatmalardan foydalanish kam uchraydi.

Buyruqlarda tegishli hujjatlar bilan asoslangan, bajarilishi shart bo'lgan topshiriq – hukm ifodalanadi. Boshqaruv faoliyatida buyruq, odatda, birinchi rahbar (yoki uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxs) tomonidan chiqariladi. Rahbar o'rinbosarlari yoki bo'lim boshliqlari buyruq chiqarish vakolatiga ega emas. Buyruqning bajarilish muddati cheklanmagan bo'ladi (agar buyruqda muddat ko'rsatilmagan bo'lsa). Buyruqda umumjamoaga yo'naltirilgan va ijrosi ta'minlanishi shart bo'lgan talab aks etadi. Tashkilot buyruqlari lokal normativ hujjat bo'lganligi sababli boshqa farmoyish hujjatlariga nisbatan ularning huquqiy maqomi baland hisoblanadi.

Farmoyishlarda adresant (farmoyish beruvchi) vakolatidan kelib chiqadigan holatlar tartibga solinadi, yuklama vazifalar belgilanadi. Ko'proq tavsiyaviy yoki ruxsat berish xarakterida bo'ladi. Rahbar, rahbar o'rinbosarlari va bo'lim boshliqlari farmoyish chiqarish vakolatiga ega. Farmoyishlarning ijro muddati cheklangan (vaqtincha), ular ayrim xodimlarga va bo'limlarga taalluqli bo'ladi. Farmoyish lokal normativ hujjat hisoblanmaydi.

Ko'rsatmalarda esa buyruqlar yoki boshqa normativ hujjatlarda aks etgan topshiriqlarning ijro mexanizmlari, manzili va muddatlariga aniqlik kiritiladi. Rahbar, rahbar o'rinbosarlari va bo'lim boshliqlari tomonidan ko'rsatma

berilishi va u yozma tarzda rasmiylashtirilishi mumkin. Boshqacharoq qilib aytganda, ko'rsatmalar – topshiriqlarning ijrosi bo'yicha yo'riqnoma vazifasini o'taydi.

Farmoyish hujjatlari quyidagi jihatlarini bilan bir-biridan farqlanadi:

BUYRUQ	FARMOYISH	KO'RSATMA
butun tashkilotga tegishli muhim masalaga qaratiladi	biror bo'limga tegishli joriy (vaqtinchalik) masalaga bag'ishlanadi	xodimlarga aniq vazifalar taqsimlashga qaratiladi
birinchi rahbar tomonidan chiqariladi	rahbar, o'rinbosar, bo'lim boshliqlari chiqaradi	rahbar, o'rinbosar, bo'lim boshliqlari chiqaradi
yuqoridan yoki quyidan kelgan hujjatlar asos bo'ladi	rahbar, o'rinbosar va bo'lim boshliqlari vakolatlariga asoslanib chiqariladi	rahbar buyrug'i, yo'riqnoma va topshiriqlar asos bo'ladi
lokal normativ hujjat hisoblanadi	lokal normativ hujjat hisoblanmaydi	lokal normativ hujjat hisoblanmaydi
huquqiy oqibatlariga olib keladi	huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi	huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi
qat'iy hukm, ijrosi ta'minlanishi shart topshiriq	ruxsat berish, tavsiya qilish (mo'ljallangan topshiriq)	topshiriqlarning ijro mexanizmlarini ko'rsatiladi
muddatsiz, doimiy amal qiladi (hujjatda muddat bo'lmasa)	bir martalik, qisqa muddatli masalalarga bag'ishlanadi	ijro muddati hujjatda belgilanadi
yig'ma jildga tikiladi, arxivga o'tkaziladi, tekshirib boriladi	yig'ma jildga tikish mumkin, saqlash muddati belgilanmagan	yig'ma jildga tikish shart emas, saqlash muddati belgilanmagan
hujjat qat'iy tartib raqamiga ega	hujjat shartli ravishda raqamlanadi	hujjatni raqamlash shart emas

Obyektga olingan masalaning muhimligi, qanday tartibda ijro qilinishi, huquqiy tomondan qanday oqibatlariga olib kelishiga qarab farmoyish hujjatlarining mos keluvchi turi tanlab olinadi va rasmiylashtiriladi.

Natijalar. Tashkiliy hujjatlarda jummlar III shaxsda shakllanadi. Hujjatning turi, vazifasi va mazmuniga qarab birlik yoki ko'plikda ifodalanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha Namunaviy yo'riqnoma" [5] ning 10-bandi oxirgi xatboshisi hamda 11-bandida bayonnoma, nizom, yo'riqnoma, dalolatnoma, ma'lumotnoma kabi hujjatlarning uchinchi shaxs nomidan birlik yoki ko'plik sonda bo'lishi belgilab berilgan. Demak, yo'riqnomada belgilanganidek, tashkiliy hujjatlar uchinchi shaxs birlik yoki ko'plik sonda yoziladi.

Farmoyish hujjatlari matni III shaxs buyruq-istak maylidagi fe'l bilan shakllanadi. Biroq amaliyotda asosiy faoliyatga oid buyruqlarning kirish qismi (buyuraman) va farmoyish qismining oxirgi bandi (ijro nazoratini o'z zimmasida qoldiraman) birinchi shaxs birlik sonda bo'lishi ham mumkin.

Tashkiliy va farmoyish hujjatlari matnlari rasmiy uslub talablari doirasida, ya'ni, ixchamlik, aniqlik, mazmuniy

to'liqlik, uslubiy betaraflik kabi tamoyillarga tayanib yaratiladi. Jumlar tuzishda har bir so'z tushunarli bo'lishi va aniq ma'noni ifodalashga bo'yundirilishi lozim.

Tashkiliy hujjatlarning akasriyati va farmoyish hujjatlaridan buyruqlar lokal normativ hujjat hisoblanadi. Lokal normativ hujjatlarning matn tuzilishi boshqa turdagi boshqaruv hujjatlaridan biroz farqlanadi. Chunki ular normativ-huquqiy hujjatlar kabi sof qonunchilik uslubida yoziladi. Lokal normativ hujjatlarda zaruratga qarab hujjat matnida qo'llanilayotgan atama (termin), tushuncha yoki birikma hujjatning kirish qismida izohlansa, boshqa turdagi boshqaruv hujjatlarida qavs ichida izohlab beriladi.

Adabiyotlar

1. Aminov M. va boshqalar. Davlat tilida ish yuritish. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti -2021. 23-24-betlar.
2. Ish yuritish: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik /A.A.Hasanov, R.A.Ishmuxamedova; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: «Voris nashriyot» MCHJ, 2007. - 20-bet.
3. Ruzaqulov J. Ish yuritish hujjatlarning semantik klassifikatsiyasi: <https://cyberleninka.ru/article/n/ish-yuritish-hujjatlarning-semantik-klassifikatsiyasi>.

4. <https://lex.uz/docs/-5378966>.
 5. <https://www.lex.uz/docs/-863120>: 140-son 29.03.1999. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida.

6. <https://www.norma.uz/oz/bizning-sharhlar/korhonaning-lokal-hujjatlari-tugri-rasmiylashtiramiz>.

REZYUME. Mazkur maqolada o'zbek tilida hujjatchilik tizimida tashkiliy va farmoyish hujjatlarining o'ziga xosliklari, lingvistik xususiyatlari, ularning matn tuzilishi, o'zaro o'xshash va farqli jihatlari tahlil etilgan, bajaradigan vazifalari ko'rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются языковые особенности организационных и управленческих документов узбекского языка, их текстовая структура, взаимные сходства и различия, а также рассматриваются их функции.

SUMMARY. This article analyzes the distinctive features and linguistic characteristics of organizational and administrative documents within the Uzbek language documentation system. It examines their textual structure, similarities, and differences, as well as the functions they perform.

TEKST KOMPONENTLERIN BAYLANISTIRIWSHI QURALLAR

G.Dosjanova – filologiya ilimlari kandidati, docent

Berdaq atindaqi Qaraqalpaq mamleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: leksik takror, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon birliklari, kesimlik shakllar, partsellyatli tuzilmalar, kirish so'zlar, bog'lovchilar.

Ключевые слова: лексический повтор, местоимения, хiazматические конструкции, парцелляты, единицы обозначающие место и время, формы сказуемых, вводные части, синонимы, союзы и т.д.

Key words: lexical repetition, pronouns, chiasmatic constructions, parcellets, units denoting place and time, predicate forms introductory clauses, synonyms, conjunctions, ets.

Tekst ayriqsha til birligi bolip tekst lingvistikasi taravini tiykarqi izertlew obyektii esaplanadi. Til biliminde tekstke berilgen anqlamalar har qiyli. Oris tilinde I.Galperinni pikirinshe, tekst qanday da bir juwmaqlangan xabardi bildirip, onii magliwmat beriw, kogeziya, kontinuum, boleklar avtosemantiyasi, retrospekciya ham prospekciya, modalliq, integraciya ham tamamlanganliq siyaqli segiz kategoriyasii korsetedi [4:20]. Biziinshe, tekst bir neshe gaplerdin putinliginen duzilip, juwmaqlangan xabardi bildiriwshi til birligi. Tekst quramindaqi gapler oz ara har qiyli sintaksislik baylanis qurallari jardeminde biringedi. Olarga leksikalik takirar, almasiqlar, xiazmatikalik konstruksiyalar, waqit ham orindi bildiriwshi birlikler, bayanlawishliq formalar, kiris agzalar ham t.b. leksika-grammatikalik birlikler kiredi. Sintaksislik baylanislardii bul turi qospa gap komponentleri arasindaqi grammatikalik baylanisqa uqsap ketedi, tek quramalasqan turde juzege shigadi. Qospa gaplerde sintaksislik baylanis predikaciyaalar arasinda juzege shigadi. Tekstte bolsa sintaksislik baylanis bir putin gapler, quramali sintaksislik putinlikler, abzaclar, bolimler, baplar arasinda juzege kelip, onii mazmunliq ham strukturaliq birligin tamiyinleydi [8:15]. Demek, tekst quramindaqi gapler tek strukturaliq jaqtan emes, al mazmunliq jaqtan da bir-birine saykes keliwin talap etedi. Qaraqalpaq tilini sintaksisine arnalgan sabaqliqta teksti baylanistiriwshi birliklerdin tomendegi turleri korsetiledi: 1. Leksikalik takirar. 2. Sinonimlik qatnas. 3. Almasiqlar. 4. Kiris gap ham kiris agzalar. 5. Daneckerler [3:273].

Korkem tekst komponentlerin baylanistiriwda tomendegi leksikalik-grammatikalik qurallar jiyi qollaniladi.

Bayanlawish formaları tekst putinligin tamiyinleytuwin tiykarqi qurallardii biri. Misali: Dogerekte hesh kim *korinbeydi*. Jazdi qiziqi da *otip ketti*. Atizlar bosap qalghanliqtan adamlardii gawirlisi da *esitilmeydi*. Mashinalar da uli-

Shuningdek, hujjat matnida (asosan buyruqlarda) lavozimli shaxsning ismi familiyasi lavozimidan keyin qavs ichida berilishi, yuklanayotgan topshiriqning aniq shaxsiga emas, shu lavozimni egallab turgan xodimga tegishli ekanligini anglatadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hujjat matnida qo'llanilgan har qanday so'z, tushuncha yoki birikma axborot tashishga xizmat qiladi. Axborot tashishga xizmat qilmaydigan so'z, tushuncha yoki birikmalarni matnda qo'llamaslik lozim. Tashkiliy va farmoyish hujjatlari ham yuqoridagi umumiy talablar doirasida tuziladi.

tasirli bolip jollardi *shaugutqandi qoydi*. Alista gawdiyip juretuwin kombaynlar da *korinbeydi* [1:7].
 Teksttin qurilishindaqi gaplerdi bir-biri menen baylanistiriwda en kop qollanilatuwin birliklerge almasiqlar kiredi. Bunda almasiqlardii atliq, kelbetlik, sanliq, rawish siyaqli manili sozler orinda qollanila aliw ayriqsha ahmiyetke iye boladi:
 Grushin undemedi.
 –Ernazar,-dedi alle nemirde *ol* qaytadan janlanip. – Kewline kelmese, kokeyimde payda bolgan bir boljawimdi aytqim keledi. Bileseñ be, *men seni* birinshi korgende-aq, hazirde tur-tusinnen, *ozindi* tutiw qabileterinenn, suyek qurilishinnan alle qanday bir qiziq hadiyse bayqagandayman. Shin kewlim *sizlerde* – qaraqalpaqlarda Orta Aziyanii basqa xalqlarina qaraganda ayirma bar siyaqli.

Ernazar *onii* boljawlarin bir jaginan marapat tutsa, ekinshi jaginan, qonilas, bir tubirles turkiy tilde soyleytuwin xalqlardan ayirganina ishi ashiqiraganin burkew ushin miyiq tartti. –*Seni ozime* jaqinlatqanim namisiña tiydime?-dedi Grushin onii qiyalin ugip [5:77]. Bul tekst quramindaqi daslepki komponentte Grushinni Ernazar ham qaraqalpaq xalqi haqqinda pikirleri beriledi. Keyingi misallarda Ernazardii kozqarasarlari keltirilgen. Usilay suwretlew arqali avtoridin sezimleri toliq jetkerilgen. Teksttegi baylanisti tomendegi sozler toliq tamiyinleydi. *Grushin – ol, sizlerde – qaraqalpaqlarda, Ernazardi – seni* almasiqlari ozlerinen aldii kelgen gaplerdeqi atliq sozlerdin ornina qollanilgan ham tekst komponentleri arasindaqi baylanisti bekkemlegen.

Leksikalik takirar. Birinshi gapte qollanilgan soz, soz dizbegi yaki gaplerdin keyingi komponentler quraminda takirarlanip qollanilwi arqali tekst qaliplewi mumkin. Korkem soz sheberi leksikalik takirardan aytilip atirgan pikirdi ayriqsha korsetiw, tastiylaw, kenerek sipatlaw maqsetinde paydalanadi [3:30]. Bul arqali teksttin

tásirshéligi artadı. Tómenдеgi tekste grammatikalıq jaqtan bir túrдеgi sózler tákirarlanıp, parallel baylanisli júzege keltirgen: Áy, meniń qutlı dalam, *házir* jıyın-terimnen keyin dem alıp atırsań. *Házir* bul jerlerde adamlardıń dawısı esitilmeydi. *Sen* óz qoynında ónip-ósken nesiybelerdi adamlarğa berip bolǵannan keyin ayaq-qolın bawırına alǵan hayallardaı bolıp kósilip jatasañ. *Sen* ele adamlar súrimge shıǵaman degenshe usı taqilette dem alıp jata bereseń. *Házir* bul átirapta *sen* hám *men* barman. Basqa heshkim joq. *Sen* meniń barlıq ómir tariyxımdı bileseń [1:123]. Bul tekste ana jer hám onıń gózzalıǵı, jer qushaǵında jatırǵan óz jaqınların eske alıwları haqqında ayılǵan. Bul súwretlew arqalı avtordıń sezimleri tolıq jetkerilgen.

Geyde leksikalıq tákirar tekste hár qıylı sintaksislik xızmette keliwi múmkin: Ziyapattıń kúnin-náwbetin *áğa biy* belgileydi. Ol búgingi ziyapatta kimge birinshi tamaq asatsa, sol kelesi náwbetke sózsiz tayarlanadı. *Áğa biy* eskertken múddetke heshkim qosımsha xabar kútpay keliwi tiyis. Eger tazadan qosılıwshılar bolsa, ziyapat waqtında *Áğa biyge* jolǵıp, arzin aytadı [5:14].

Bul quramalı sintaksislik pútinlik quramında *áğa biy* sózi hár túrli sintaksislik xızmette kelip, tekst komponentleriniń óz ara sintaksislik baylanisın támiyinlewde qatnasqan. Birinshi hám ekinshi gáplerde *áğa biy* sózi baslawısh, *áğa biyge* sózi tolıqlawısh xızmetin atqarǵan.

Tákirardıń alliteraciya, assonans, anafora, epifora hám t.b. bir neshe túrleri bar bolıp, olar tekst quramında stilistikalıq xızmet atqaradı.

Xiazmatikalıq konstrukciyalar járdeminde baylanisıw. Xiazm tiykarınan eki gápten ibarat tekst túrinde ushırasadı. Xiazm «X» háribi túrinde belgili bolǵan stillik qural. Birinshi qatar ózgerissiz ekinshi qatarda qaytalanadı. Seslik hám poetikalıq jaqtan bekkem kompoziciya júzege keledi. Bunda jazıwshınıń tiykarǵı maqseti ekinshi gápte berilgen boladı. Birinshi gáp ekinshi gápten anlatılǵan mánini asıra súwretleydi. Mısalı:

Berdimurat xalıq – xalıq Berdaqı [2:15]. Xiazm poeziyada tómenдеgi xızmetlerdi atqaradı: 1. Stillik-semantikalıq xızmet. Bunda eki komponent mazmunı jaǵınan qarama-qarsı boladı, yaqi kerisinshe, bir-birin tolıqtıradı. 2. Ekspressivlik xızmet. Bunda oqıwshı yaqi túnlawshıǵa zawıq baǵıshlaw, pikirdi tez hám uzaq waqt saqlap qalıw názerde tutıladı. Xiazmdı júzege keltiretuǵın bólekler óz ara ornı jaǵınan almasqanda intonaciya da soǵan tán ráwishte almasıp baradı [9:76].

Orın hám waqıttı bildiriwshi birlikler teksti qalıplestiriw hám onıń komponentlerin baylanisırıwǵa sebepshi boladı. Kórkem shıǵarmadaǵı waqiya-hádiyseler belgili bir waqıtta júzege shıǵadı. *Búgin azanda qıstıń birinshi qarı jawdı. Qar júdá ájayıp bolıp jawdı. Keyin bultlar tarqap, aspan kók-kónbek túske endi.* Birinshi gápte *búgin, azanda* lekseması tábiyat qubılısı haqqındaǵı xabaradı bildirgen. Keyingi gáplerde bayanlanǵan qubılıslar tap sol waqt birliginde izbe-izlikte ámelge asqan. Yaǵnıy: azanda - *qar jawdı* - *bultlar tarqap, aspan kók-kónbek túske endi.*

Orındı bildiretuǵın sózler de teksti qalıplestiriwshi qural bola aladı. Ádette, jazıwshılar waqiya bolatuǵın orındı tolıq suwretlewge háreket etedi. Orın mánili leksema

keltirildi me, álbette, onıń kórinisin de bayanlaydı. Mısalı: *Awıldan shıǵıwdan-aq qádimgi toǵay baslanatuǵın edi. Meñlimurat áğa ekewimiz usı toǵaylardıń arası menen kiyatırmız. Kóldiń jiyegine kelgende taqırlıq shatırashtay bolıp kórinde* [6:263]. Parcellyatlar arqalı birigiw. Awızeki tilde, tekste geyde qarım-qatnasqa baylanisli pútin bir gápte úzilis júz beredi. Sóylewshi túnlawshıǵa qanday da bir waqiya haqqında xabar berip atırǵanda, mine sol xabar ishindegi eń áhmiyetli pikirdi basqalarınan ajratıp, óz aldına aytıwǵa háreket etedi. Bul qayta ataw, awızeki tilde intonaciya, pauza, logikalıq pát sıyaqlı qurallar járdeminde ámelge asırılsa, tekste parcellyatlı dizbekler – tekst komponentlerin ekspressivlik-stilistikalıq maqsetke qaray qayta tártiplew arqalı payda boladı. Mısalı: *Men paytaxtta oqıyman. (1). Nókiste (2). Universitette (3).*

Ataw gápler ataw sepligindegi atlıq yamasa atlıqlasqan sózler arqalı bildirilgen qanday da bir waqiya-hádiyse yaqi predmettiń bar ekenligin tástiyıqlap, atap kórsetedi. Ataw gápler kontekstten bólek, dara túrinde qollanılmaydı. Ataw gáp penen kelgen gápler ataw gápke mániles bolǵan ish-háreket waqıylardı bayanlap, onıń mazmunın tolıqtırıp, keńeytip keledi. Mısalı: *Báhár! Pútkil dalanı jasil lipasqa bólep turǵan kók shóplik.*

Sinonim sózler tekst komponentleriniń sintaksislik qatnasın bildiriwde ayrıqsha áhmiyetke iye. Hámme *qatın-qalash* tın ishinde súrmeleklesip, biriniń izinen biri jetisip keldi. Jańa tuwǵan ay kórine sala batıp ketken edi. Lekin, *hayallar* tınıń qaranǵılıǵına qaraǵan joq [10:27]. Keltirilgen tekste sinonim sózler bar ekenligin kóremiz: *qatın-qalash* – hayal. Tekst komponentleriniń sanı tórtew bolıp sinonim sózler olardıń barlıǵında jumshalıp, komponentlerdiń óz ara sintaksislik baylanisın támiyinleydi.

Kiris sózler tekttiń komponentlerin baylanisırıw xızmetin atqaradı. Kiris aǵzalar, tiykarınan sóylewshiniń ózi bildirgen pikirge hár qıylı qatnasların anlatadı: *Birinshiden*, másirip ketkenlikten usılardıń ózin tutıw qıyın boldı, *ekinshiden*, Esbergen bulardıń on segizge shıqqanına isengisi kelmey pısıǵına júrdi [11:224].

Teksttiń qalıplesiwinde dánekerler de áhmiyetli xızmet atqaradı. Dánekerler xızmetine qaray ekige bólinedi: a) gáplerdiń óz ara qatnasın támiyinlewshi dánekerler; b) abzaclar qatnasın támiyinlewshi dánekerler. Dánekerler tekste abzaclarıń semantikalıq hám sintaksislik baylanisların támiyinlewshi qural xızmetin de qosa atqaradı.

Solay etip, tilimizde tekst komponentlerin baylanisırıwda leksikalıq tákirar, sinonimler, almasıqlar, kiris aǵzalar, dánekerler ónimli qollanıladı. Sóylewshi túnlawshıǵa qanday da bir waqiya haqqında xabar berip atırǵanda, mine sol xabar ishindegi eń áhmiyetli pikirdi basqalarınan ajratıp, óz aldına aytıwǵa háreket etedi. Bul qayta ataw, awızeki tilde intonaciya, pauza, logikalıq pát sıyaqlı qurallar járdeminde ámelge asırılsa, tekste parcellyatlı dizbekler, xiazmatikalıq konstrukciyalar arqalı júzege shıǵadı. Tekst komponentlerin baylanisırıwshi qurallar tek kórkem tekste emes, al teksttiń barlıq túrleri, atap aytqanda ilimiy, publicistikalıq, rásmiy is qaǵazlar stiline tán tekstlerde de ushırasadı.

Адебиетлер

1. Айтматов Ш. Повестьлер. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1979.
2. Бердақ. Сайланды шығармалары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1997.
3. Дáwлетов А., Дáwлетов Е., Qudaybergenov М. Házirgi qaraqalpaq ádebiy tili. Sintaksis. – Nókis: «Bilim», 2009.
4. Гальперин И. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: «Наука», 1981, 20-б.
5. Қайыпбергенов Т. Түсиниксизлер. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1979.
6. Қайыпбергенов Т. Шығармалары V томлығы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1980.
7. Qurbonova M., Yuldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: «Universitet», 2014.
8. Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Ташкент: «Фан», 1989.
9. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: «Universitet», 2011.
10. Нызанов М. Душпан. – Нөкис: «Билим», 2014.
11. Сейтов Ш. «Халқабад». I китап. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1977.

REZYUME. Maqolada matn komponentlarini bog'lovchi vositalar haqida so'z yuritgan. Kesim shakllari, olmoshlar, leksik takror, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon birliklari, partsellyatli tuzilmalar, kirish so'zlar, bog'lovchilarning matn komponentlarini bog'lashdagi xizmatlari badiiy asarlardan olingan misollar asosida tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье речь идет о средствах соединения составных частей текста. Здесь проанализированы примеры соединения компонентов текста с помощью различных форм сказуемого, местоимений, лексических повторов, хиазматических конструкций, синонимов, союзов и вводных частей, взятых из литературных произведений.

SUMMARY. The article is about the means of linking components of the text. Here the role of various forms of the predicate, pronouns, lexical repetitions, chiasmatic constructions synonyms, conjunctions and introductory clauses in linking the components of the text is given by analysing examples from literary work.

QORAQALPOQ TILIDAGI SINONIM FRAZEMALARNING BADIY ADABIYOTDAGI USLUBIY XUSUSIYATLARI

O.A.Xaytbayev – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: frazeologik birlik, frazema, kiritma, ayirma, uslubiy bo'yoqdorlik, sema, graditsiya, semantik-stilistik frazeologik sinonimlar.

Ключевые слова: фразеологизм, фразема, включение, вычитание, стилистическая окраска, сема, градиент, семантико-стилистические фразеологические синонимы.

Key words: phraseology, phraseme, inclusion, subtraction, stylistic coloring, Seme, gradient, semantic and stylistic phraseological synonyms.

Tatar yozuvchisi A.Gilyazov asarlarida ishlatilgan frazeologizmlarni alohida tadqiq qilgan Z.Karimova sinonim-frazeologizmlarning to'rt tipini ko'rsatadi. Bular: semantik, stilistik, semantiko-stilistik va absolyut. *Sómsere koelu, karasına batu, kara koep* kabi frazeologizmlarning yomon kayfiyat, g'am-g'ussa, falokatni oldindan sezish kabi ma'nolarni ifodalashi, lekin ularning ma'no qirralariga ko'ra farqlanishi ta'kidlanadi. Birinchisi insonning yomon kayfiyatda ekanligini bildirsa, uchinchisi katta g'am-g'ussa, falokatni sezish ma'nosini bildiradi.

Kontekst bilan bog'liq har bir frazeologizmning o'ziga xos uslubiy yuklamasi mavjud bo'lib, ba'zan biri ikkinchisining o'rnini bosa olmaydi.

Semantik-stilistik frazeologik sinonimlar, bir-birlaridan ham ma'nosi bilan, ham uslubiy xususiyatlari bilan farq qiladiganlari ko'proq uchraydi. Ular, asosan, qahramonning psixologiyasini tasvirlashda foydalaniladi: *jigin chigara, útken bez bulup, bágirne kimerú, tákate koru* kabi. Yozuvchi qahramon hayotidagi burilish nutqtasini tasvirlar ekan, bir qancha sinonimlarni gapning uyushiq bo'laklari kabi ketma-ket qo'llanadi. Matnda emotsionallik, ekspressivlik bunday qo'llanishda borgan sari ortib boradi.

Absolyut sinonimlarda esa semantikasi ham, stilistik bo'yoqlari ham bir xil: *jil dá ismi, yafraq ta selkenmi* kabi [1:15].

Qoraqalpoq adibi Sh.Seyitov o'zining go'zal badiiy asarlari, ulardagi o'ziga xos tasvir vositalari bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadigan yozuvchi. U haqda filologiya fanlari doktori B.Yusupova shunday yozadi: "Sh.Seyitov asarlarining tili juda boy badiiy ijodiy vositalar to'plamining yig'indisi asosida paydo bo'lgan, ularning barcha imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan obrazli, badiiy til, xalq tarixining so'z vositasida chizilgan badiiy kartinasi bo'lib hisoblanadi. U yozuvchining milliy tilga, so'zga, hatto tovushga bo'lgan juda e'tiborli va nozik didining, chuqur va obrazli fikr-o'ylarining, ta'sirchan ko'z qarashlarining ajoyib lisoniy-badiiy tasviri sifatida ko'zga tushadi. Shuning uchun yozuvchi asarlari o'sha badiiy va obrazli tili bilan o'quvchi e'tiborini beixtiyor o'ziga tortib turadi" [2:104].

Qoraqalpoq adibi Sh.Seyitov "Xalqabad" romanida frazeologik sinonimlardan mahorat bilan foydalangan: "Qarindasim" – dep *gegirdegin sozdi mina jatqan Saymbet. Biz jurtqa qoydira almay jursek, raykomda oturip "qudayimuñuz" ne?!* (Sh.Seyitov). *Gegirdegin sozdi (kekiridagini cho'zdi) frazemasi "shovqin solib, dabdabali qilib gapirmoq", "qattiq ovoz bilan, o'dag'aylab gapirmoq"* semalariga ega. Saymbetning xarakteri qirralarini ochib berishda, hatto raykomda ishlaydigan qizga ham o'dag'aylab gapirishini, o'zining mansabi undan katta ekanligini pisanda qilish ma'nolarini anglatish uchun o'rinni foydalangan.

– Men bir nársege túsinbey turman?

– *Qáne-ye, Mádiyar, ne nársá? – Sekretar iyegin sozdi* (Sh.Seyitov).

Misololdagi *iyegin sozdi* frazemasini orqali qahramon nutqida o'zini katta olish, boshqalarni mensimaslik ohangi ifodalanishi bilan birga uning gapirishini kutish, unga navbat berish ma'nolarini ham bildiradi.

...*bağanagı Saymbet: "Ne ushin jabdilesemiz, aldi menen sonı bilip alayıq?" dep sózdi tağı bólip jiberdi. Ispolkom predsedateli Esbergen bul saparı shıdamadı:*

– *Aytamız-ğo, sen, Saymbet, nege shaqıratuğın qorazday moyınıñdı soza bereseñ!* (Sh.Seyitov). O'jarlik bilan o'z fikridan qaytmayotgan, rayispolkom raisidan aytgan fikrining isbotini talab qilayotgan Saymbetning yana aytishishga, gap talashishga g'ashi kelayotgan, o'zining mansabini pisanda qilib, boshqalar unga qarshi gapirishi mumkin emasdek sezayotgan Esbergen Saymbetning ushbu holatini qichqirishga chog'langan xo'rozga (*shaqıratuğın qorazday*) o'xshatishi orqali tasvirning yana ham aniqligi, ifodaliligi ta'minlangan.

Qoraqalpoq tilida "ortiq darajada vahima uyg'otmoq, qattiq qo'rqitmoq" denotativ semalariga ega bo'lgan *zárresin ushurıw, jan iman qalmaw, jan-ıynine ot túsiw* frazemalari sinonim bo'lib keladi: *Sol kókte megir qalağa bir ketkeninde, "qara oris degen basıp kele jatır, onı kórgende sari orıstı janım deysiñ! Óziñ bilgen qazaqtar Awğanstan degen jaqqa awğalı jatır" dep, zárremizdi ushurıp keldi.* (Sh.Seyitov). *Qızıl Ordağa jaqtan quyıñdata shawıp kelip: "Úyiñe ot tústi, qazaq!" dep ayğayladı-aw kep, kókte megir! Jan imanıñız qalmadı, ózimiz künde bir xabardan qorqıp, úreylenip otırған nadandarmız, tipti* (Sh.Seyitov). *Qırım shápeklini kóriwden: "allabárakálla, Pedotov aynığan eken, izimnen quwğınshını jibergen eken", dep, jan imanı qalmağan Qurbannıñ onday emesligin anıq bilgen soñ, dizine dimár eneyin degen edi, attan hám betier jortadı-á!* (Sh.Seyitov. Xalqabad). Bu frazemalardagi denotativ sema oldingi frazemaga qaraganda kuchliroq. *Soñ, basqalardıñ jan-ıynine ot tústi, shonjarımız kóship bara jatsa, bizge ne turıs!* (Sh.Seyitov). Mazkur jumladagi *jan-ıynine ot tústi* frazemasida ma'no oldingilarga qaraganda ham kuchliroq ifodalangan.

Atoqli yozuvchi K.Sultanov mazkur frazemaga sinonim bo'lgan *júregi tas tóbesine shıqtı* frazemasini yaratadi. Mazkur frazema belgini oldingilarga qaraganda ham kuchliroq ifodalaydi: – *Ne qulsın. Bedewdey kelinshekeñ. Bári bir, Gitler kelse parsha-parshañdı shıgaradı. Berlinge aydap áketedi... Sáliymanıñ júregi tas tóbesine shıqtı* (K.Sultanov).

Qoraqalpoq tilida insonning toqatsizligini ifodalaydigan bir qancha frazemalar mavjud. Masalan: *Toltbay kópshik penen shığanagıñın arasınan tana kózlene sağalap, Jaqannıñ bas ushuna kelip, saqqa júgingenin, jilt-jilt qarap, bir maydan otırğanın, bärin de kórdi, biraq, dim undemedi, úndemegen sayın Jaqannıñ pıtırılap, taqatı*

tawislatuǵının, hawlıǵatuǵının jaqsı biledi (Sh.Seyitov). **Taqatı tawisliw** frazemasına nisbatan **jüregi hawlıriw** frazemasında ma'no kuchliroq ifodalanadı: *Keshe qurı kelgen Elibay menen Kólibay búgin da tańnan urlanıp ketip edi ele xabar joq, sırttan sırtıldı shıǵsa júregi hawlırip, Tolıbay taqat tappay júriw* (Sh.Seyitov). Mazkur jumlada **jüregi hawlıriw** va **taqat tappay júriw** frazemaları ketma- ket ishlatılıb, ma'ning kuchaytirilishiga olib kelgen. **Jüregi lúpildew** frazeması ham ma'ning me'yordan ortıqlıǵını ifodalaydı: *Tolıbay jigittiń júregin lúpildetip, biraz oturdı* (Sh.Seyitov). **Ishi-qarını pıtrlaw** frazeması semantikasıda “butun wujadı bilan” seması ham mavjud bo'lib, uning ma'nosi oldingilarinikiga nisbatan keng: **Ishi-qarını pıtrlap**, *Sayımbet Mádiyardıń keliwin de kúttirmedi* (Sh.Seyitov).

Kewiline tiyiw frazeması semantik tarkibida “birovni xafa qiladigan gap yoki ish-harakat orqalı ranjitmoq” semaları mavjud: *Jaqań ushın bul dúnyada Tolıbaydan qádirdi adam joq, ol tek usı adamnıń kewiline tiyip alıwdan qorqadı* (Sh.Seyitov). **Jüregin daǵlaw** frazemasining ma'nosi oldingi frazemanikidan kuchliroq: *Sıdıq, basın shayqap, aldı menen Nazarbaydıń, soń basqalardıń júregin daǵladı* (Sh.Seyitov). **Jüregin jaralaw** frazemasında esa undan ham kuchli: *Tań jarası da hesh gáp, bir pitse boldı, daq qalǵanı menen de awırtıpaydı, átteń, júrek jarası jaman, balanıń júregin jaralap aldıń ba dep qorqaman* (Sh.Seyitov). *Dáryanıń kenarin toltırıp, kóshken awılday bolıp baratırǵan paroxodtıń mashtında tolqınlanıp oynaǵan qızıl bayraq: “Qádir óz basıńdı qádirsiz qıldıń!” – dep basın shayqaǵanday, júregine biz suqtı* (K.Sultanov). Bu frazema orqalı muallif obrazlılık hosil qilish bilan nutqning ta'sirchanlıǵını oshirishga erishgan. *Biraq muna jurt xalıq qatarı sıylaytuǵın bolsındaǵı adamdı, haw, bunsHELLı de órtey bermek bolıp pa!* (Sh.Seyitov). *Wáx, shoxla kózler júregimdi órtep ketti, jeńgeja-an, ishım tútin!* (Sh.Seyitov). Mana bu misolda **jüregimdi órtep ketti** frazeması tarkibidagi “ört” o'zbek tilidagi “o't”(olov) ma'nosini beradi. Natıjada ko'chma ma'noda olovda yonganda tutun chiqishını ma'noni kuchaytirish maqsadında qo'llangan. Qoraqalpoq tilida “Sırtı pútin, ishi tútin” frazeması mavjud bo'lib, odamning tashqi ko'rinishi xotırjam ko'rinsa ham, ichi to'la dard, alam ekanlıǵını anglatish uchun ishlatiladı. Adib bu o'rında allyuziya usulidan foydalanıb, ya'ni mavjud frazema boshqalarga oldından ma'lum bo'lganlıǵı bois, uning ikkinchi qismini jumlada qo'llash orqalı ta'sirchan ifoda yarata olgan.

Qoraqalpoq tilida “uxlamoq, orom olmoq” ma'nosida bir qancha frazemalar mavjud. Masalan: *Ha demey tań atadı. Úyiniǵe barıp, bir zaman kóz shırımın alıń.* (M.Nızanov). Misoldagi “**bir zaman kóz shırımın alıń**” frazeması “qısqa muddat orom olmoq, mizg'imoq” ma'nolarını ifodalaydı. *“Apam ba!” jaq, Bazar eken! Uzaq künge toń tewip, beldiń qulaǵında oynap, ábden sharshaǵan hayaldıń silesi qatıp atr edi.* (Sh.Seyitov). Quyidagi frazemada ma'no oldingiga nisbatan ham kuchliroq:

Kúni menen mıqshıyıp bel tepkenlerdiń qurıldıı oshaq basın lárzege keltirip atursa da bunıń kirpigi ayqaspadı (Sh.Seyitov). İkkinchi misolda xurrakning kuchlılıǵını ifodalash uchun **oshaq basın lárzege keltiriw** frazeması ishlatılǵan. Qahramonni tasvirlashda shunchalik charchagan bo'lishiga qaramasdan uxlay olmaganlıǵını ko'rsatish maqsadında **kirpigi ayqaspadı** frazemasını qo'llagan. Mazkur o'rında antonim frazemalar qahramon ruhiy holatını ifodalashda mahorat bilan ishlatılǵan va matnning ta'sirchanlıǵını oshirishga xızmat qilgan. Shuningdek, mazkur ma'noda “**kirpigi ilinbedi**” frazeması ham ishlatiladı: *Qudaynazar bajbannıń qısqa tańǵa kirpigi ilinbedi* (M.Nızanov).

Qoraqalpoq tilida nutq ma'nosini, uning bir mazmunıy guruhi bo'lgan mutlaqo gapirmaslik, suhbatda ishtirok etmaslik ma'nosini ifodalaydigan bir qancha frazemalar

mavjud. Masalan: *Tagı kim bar? – Hesh kim mıńq etpedi. – Sizler ne, kolxozǵa qarsumız!* (Sh.Seyitov). *Adilbek lám-lim demedi. Maqsımın ulti Sarıgul tisin-tisine qoyıp shıdadı.* (M.Nızanov). *Eki kempir qol ayaǵın dúziwlep shıqqannan keyin, kúni menen kókiregi tıǵılıp turǵan maqsımın qızları: – Jan anam! – dep anasınıń ústine boyın tasladı.* (M.Nızanov). Mana bu misoldagi “**kókiregi tıǵılıp turǵan**” frazeması ham mutlaqo ovoz chıqarmaslik ma'nosini ifodalaydı. *Otırǵanlar bir birine qarasıp, suwıq demin alıssa, Sayımbetke suw quyıldı da qaldı.* (Sh.Seyitov). Misolda qoraqalpoq tilidagi **únine suw quyılıw** frazeması ma'noni oldingi frazemaga qaraganda kuchliroq ifodalaydı.

Sh.Seyitov asarlaridagi frazeologizmlarning fonostilistik xususiyatlarını tadqiq qilgan tilshunos B.Yusupova shunday yozadı: “Frazeologizmlardagi tovushlar ohangdoshlıǵı asar tili frazeologik tizimining katta bir tomonını tashkil qiladı. Qator kelgen so'zlarning boshida bir xil yoki o'xshash undosh va unli tovushlarning muvofıqlıǵına asoslangan alliteratsiya va assonans usuli bilan hosil bo'lgan frazeologizmlar yozuvchi so'z qo'llash usulining individual, o'ziga xos xususiyatlarını ko'rsatish orqalı qoraqalpoq tili frazeologiyasınıń o'ziga xos bo'lgan fonetik tabiatını, boylıǵını, badiyılıǵını dalıllaydı. Frazeologizmlardagi, shuningdek, yozuvchi asarlari tilidagi bir qancha birliklarning alliteratsiya va assonansdan tashqari boshqa ham ko'pgina fonostilistik xususiyatları maxsus tadqiqotları talab qilib turǵan masalalardan bir bo'lib hisoblanadı” [2:115]. Haqiqatan ham, mutlaqo gapirmaslik, sukut saqlash ma'nosidagi quyidagi frazemaga e'tibor bering: *Izbasqannıń gázebin kózinen oqıǵan Tolıbay da jaǵın jaylawınan jıynap aldı* (Sh.Seyitov). Bunda **jaǵın jaylawınan jıynaw** yangı frazema hosil qilingan va ularning birinchi tovushları bir xil bo'lib, frazemaning ta'sirchanlıǵını, tovushlar uyg'unlıǵını ta'minlagan. Bu o'rında yozuvchi yana yangilik yaratadı. Ilgarigi **jaqların jıynaw** frazeması tarkibiga **shaqqıday** (o'zbek tilida qalamtaroshday) o'xshatishni kiritish bilan frazemaning ta'sirchanlıǵını orttırishga erishgan. **Shaqqı** ning yig'ilganda buklanish holatidan obrazlı ravishda foydalana olgan. Shuningdek, yuqoridagi frazemalarga sinonim quyidagi frazemanı ham nutqqa kiritadı: *GPU lesseń, GPU les, “gúlsheli bala súymege jaqsı”, húkimet seniń sózińdi sóylermeken, meniń sózimdi sóylermeken! – dep edi, Nazarbay pıssıydı da qaldı* (Sh.Seyitov). Misoldagi **pıssıydı da qaldı** frazeması o'zbek tilida yeli chiqıp qoldı ma'nosida ishlatiladı. Bunda qahramonning gapıra olmay qolishını obrazlı tasvirlash orqalı uslubiy o'ziga xoslik yaratgan.

Mana bu misolda ham ma'nodosh frazemalarning gradatsiya hosil qilishını kuzatish mumkin: *Usınday, birew arqaw birew, eris bolıp, birewge birew arqa súyep atırǵan zamanda uyrektiń palapanınday bir óziń bir qumnuń arasında shetlep, neǵıp júrgen adamsań, ya aq úyli etilgen baymısan? degen gúdigin de ayttı* (Sh.Seyitov).

Qoraqalpoq tilida **kewili toq, kewli sharqı pálek, kewili pitıp qalw, kókiregi koteriliw** frazemaları “ishongan holda, xotırjam” semalariga ega: *İnsi Kólibay menen, balası Elibaydıń mergenligine kewili toq, gózese gójektiń kózinen ótkeretúǵının biledi, degen menen, “burın-sońlı adam atıp kórmegen ballar, qolı qaltrıap, “alleneǵıp” tiymey, ya shala tiyip qalsa, qurıdıq!* (Sh.Seyitov). *Ayxannıń da kewli sharqı pálek, Biybayshannıń qaytıp diydinen shıǵarın bilmey atrı:*

– *Nan ushınan pátir, úlkenin soń kiesesı, – dep Biybayshannıń kózi kórmeytuǵın bolǵannan soń aldına esittirip qoydı* (Sh.Seyitov).

Sayımbetler óshimdi alsı alıp keler, ala alması, olarǵa da ópkem jo-oq, táńir jarılqasın, el elligin etip, “óshimdi áperemiz” desip, jigıt atlandıbırǵ anınyıy ózine-aq kewilim pitıp qaldı (Sh.Seyitov “Xalqabad”). *Bunnan isi pitken aqsaqaldıń ispolkomnan qaytqan kókiregi koterileyin degen edi* (Sh.Seyitov).

Bereketi ushiw, ábiger tartıp qalıw frazemalari semantik tarkibida “moddiy jihatdan yetishmovchilikka duchor bo’lish, kambag’alashish” semalari mavjud. Mazkur semalar frazemalarni bir ma’no atrofida birlashtiradi: – *Porxan ag’a ketti de elden bereket ushti, – dedi Qayıpbek* (M.Nizanov). *Biraq, awilda Porxan maqsimni xojalığı dum ábiger tartıp qaldı.* (M.Nizanov).

Úskini quyılıw, qabağı ashılmaw, kókiregi óshıp qalıw frazemalari o’zaro sinonim bo’lib, ularning semantikasida “o’ziga ishonchi qolmaslik, kayfiyati tushish” semalari mavjud. Misollar: *Jigittin úskini quyıldı da qaldı, ya ári demedi, ya beri demedi* (Sh.Seyitov). *Ókinip bolıp, aytpay ketken joldaslarına kóp waqqa deyin qabağı ashılmay júredi* (M.Nizanov). Shuningdek, ushbu mazmunda **ishken ası boylarına taramaw** frazemasi ham ishlatiladi: *Biysharalardǵı ishken ası boylarına taramay, salpawsıp úylerine qaytadı* (M.Nizanov). **Sam-saz bolıw** frazemasi ham yuqoridagilarga sinonim bo’lib keladi: *Lekin, geyde-geyde óz-ózinew kewli qulazıp, dástúrhan basında gáp-sózge aralaspay sam-saz bolıp otırıp qalatuǵın ádetti shıǵardı* (M.Nizanov).

Qoraqalpoq tilida: **“Sút ishıp awız piskew adam qatıqtı da úrlep ishedi** (o’zbekchasi – **sut ichib og’zi kuygan odam qatıqtı ham puflab ichadi**), – degan maqol bor. Uning bir qismini qo’llash orqali butun ma’nosini anglatish tilshunoslikda allyuziya deyiladi. Quyidagi misolga e’tibor bering:

– *Endi awızımız piskew shıǵar aw!*

– *Solay shıǵar. Biraq aytpay kiyaturman* (Sh.Seyitov).

Misoldagi frazeologik birlikning umumtilidagi to’liq variantini aniq anglash uchun o’quvchining shu maqolning tildagi an’anaviy shaklini yaxshi bilishi kerak bo’ladi. Shunday usullarni qo’llash orqali ham nutqning ta’sirchanligini orttirishga erishiladi.

Tildagi ba’zi maqollarni foydalanishda ularning orasiga boshqa komponentlar ham qo’shilishi mumkin. Qoraqalpoq

tilida **“Suwǵa ketken adam tal qarmaydı”** (O’zbek tilida – **cho’kayotgan odam xasga yopishadi**) degan maqol bor. Sh.Seyitov mazkur maqolning orasiga boshqa komponentlarni kiritish orqali uni transformatsiya qilgan: *Sıdıǵqa eremiseń, ol da bir suwǵa ketken adam, bilseń, usı aqırǵı tal qarmawları edı, qolına sen iline qoyıpsañdaǵı!* (Sh.Seyitov).

Qoraqalpoq tilida tili ashshı, tili záhár, tili uwday frazemalari mavjud bo’lib, “gap-so’zlari insonga salbiy ta’sir qiladigan, ko’ngliga og’ir botadigan” ma’nolarga ega. Misollar:

Tünge qaray kún ara keter “urıs”,

Telegramǵa túsken til uwday eken (O.Sátbaev).

Kelinshek bolıwdan ataqlı úsh tuwısqannıń ayırılısqann eske alsa qınjıladı, tili ashshı birewdiń “úsh ayǵırdı shayqastırǵan qasań baytal” dewinen qorqıp, qońsılas kelinsheklerge tiklenip qaray almas edi. (T.Qayıpbergenov). *Kúnnen künge ne bolıp baratarsañ ózi, tiliń záhár, awızına kelgendi sandalay beretuǵın bolǵansañ, anamdı sorǵanıń ayıp pa, meniń ushın ol barlıq nárseden ziyat, turmıstıń mashaqatlarına kónip, pútkil ómirin maǵan arnaǵan, aq sút bergen anam ol meniń, aqırı!* (Alp Sultan).

Qoraqalpoq yozuvchisi M.Nizanov mazkur frazemasi sinonim yangi frazema yaratadi: *Sendey dostum joq meniń. Seniń tilińe julannıń záhári jaǵılǵan* (M.Nizanov). Frazeologik transformatsiya usulidan foydalanish orqali uning tarkibiga ayrim qismlarni kiritgan. Bu o’zgarish frazemaning ta’sirchanligini yanada orttirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, adiblar sinonimi bo’lgan frazemalarni ijod qiladilar va tasvirlanayotgan voqea-hodisaga muvofiq frazeologizmning uslubiy bo’yoqdorligini oshirishda va qahramonlarning portretlarini yaratishda, ularning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatishda mohirona foydalana olgan.

Adabiyotlar

1. Каримова З.С. Поэтика фразеологизмов в прозе Аяза Гилязова. АҚД. – Уфа: 2008. – С. 15.
2. Yusupova B.T. Fonostilistika. Sh.Seyitovtin “Xalqabad” romani tili frazeologiyasini fonostilistikaliq analizi. – Tashkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: 1992. 379-b.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tilini qisqasha frazeologiyaliq sozligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1985. 158-b.
5. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tilini frazeologizmler sozligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2018. 160-b.

REZYUME. Maqolada qoraqalpoq yozuvchilarining tildagi frazemalardan asarning emotsional-ekspressivligini oshirishda, qahramonning ayrim xususiyatlarini bo’rttirib tasvirlashda ulardan ustalik bilan foydalanadilar. Shu bilan birga ularning tarkibiga o’zgartirishlar kiritish, ularni qayta shakllantirish orqali ham ta’sirchanligini orttirishga adiblarning ustalik bilan foydalanishlari misollar asosida ko’rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье каракалпакские писатели мастерски используют фразы в языке для повышения эмоциональной выразительности произведения, отображая определенные черты характера героя. В то же время на примерах показано умелое использование мудрецов для достижения выразительности даже путем внесения изменений в их содержания, их переформулировки.

SUMMARY. In this article, Karakalpak writers masterfully use phrases in the language to enhance the emotional expressiveness of the work, reflecting certain character traits of the hero. At the same time, the examples show the skillful use of sages to achieve expressiveness even by making changes in their content, their reformulation.

VATAN KONSEPTINING GASTRONOMIK NOMLAR BILAN IFODALANISHI

M.R.Xolmo’minova – tayanch doktorant

O’zbekiston milliy universiteti

Tayanch so’zlar: konsept, vatan konsepti, milliy-madaniy tushuncha, lingvokulturemalar, gastronomik nomlar.

Ключевые слова: концепт, концепт родины, национально-культурный концепт, лингвокультуры, гастрономические названия.

Key words: concept, homeland concept, national-cultural concept, linguistic cultures, gastronomic names.

Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to’g’ri va ko’chma ma’nosidan farqli o’laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir. V.V.Vorobyev “lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo’lib, u madaniyat va til o’rtasidagi o’zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o’rganadi [9:76]. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi”, - deb ko’rsatadi. Ushbu

tushunchalarning o’zaro farqli jihatlarini professor O.Yusupov quydagicha izohlaydi. “Lingvokulturema - o’z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi so’zlar, frazeologik birliklar, so’z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko’rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o’sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o’zining mazmun va ifoda

planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi".

Ayrim gastronomik nomlar mavjudki, ularda ham realiyalik xususiyati mavjud. Ularning ba'zilar faqatgina o'zbek xalqiga oid milliy taomlar bo'lsa, ba'zilar mazmun jihatdan shunga yaqin tushunchalardir.

Gastronomiya – madaniyat va oziq-ovqat mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taomlarning umumiy nomini anglatadi. Har bir millat kishisining o'z ta'bi mavjud bo'lib, ta'b va ehtiyoj u yoki bu shaklda lisonda aks etadi. Lisoniy mohiyat esa gastronomik atamalarda voqelanadi. Aynan shu asosga ko'ra, gastronomiya milliylikni ifodalab kela oladi degan nazariya mavjud.

Materiallar va uslublar

Ushbu fikrni ochiqroq bayon qilish uchun o'zbek she'riy matnlarida uchraydigan ayrim gastronomik birliklarni *tahlil qilamiz* hamda vatan konsepti bilan *seman-tik qiyoslaymiz*.

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,

Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon.

Bir *mayizni* qirqa bo'lgan bir tan-u jon,

Kunlaringga qaytay desang – xalq bo'l, elim [3:6].

O'zbekiston mayiz eng ko'p ishlab chiqaruvchi davlatlar qatorida top 10 talikka kiradi. Ularning asosiy qismi turkiy davlatlar. Xususan, 1-o'rinda Turkiya turadi. Shunga qaramasdan, mayiz o'zbek xalqi madaniyati bilan azaldan o'zaro bog'liq. "Bir mayizni qirq bo'lib yemoq" kabi paremiologik birliklar ham shakllangan bo'lib, ular ham ko'p yillik tarixga ega. Ushbu maqol orqali o'zbek xalqi birdamligi va hamjihatligi ochib berilgan bo'lib, millatimizga to'liq xos va bog'liqligini ko'rish mumkin. Ajralmas birlik sifatida mayiz o'rniga boshqa bir so'zni qo'llash mumkin bo'lmagani holda, ma'lum bir ramz sifatida qo'llanilgan. Boshqa tillarda mayiz tushunchasi aynan shu mazmuni bera olmasligi, uning milliy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan boshqa tushunchalar kabi, mayiz ham bu o'rinda vatan konseptini yoritib berishga xizmat qilgan. Matndan tashqari milliylikka ega bo'lmasa-da, matn ichida, ayniqsa, aynan paremiologik shaklda to'g'ridan-to'g'ri shu vazifada kela oladi.

Rizq-u ro'zin sohib aylanar falak,

Sen esa dalangdan topolmay halak –

Bolashta bergali bitta **handalak**,

Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?! [3:36]

Tarvuz, qovun kabi turli poliz mahsulotlari oziq-ovqat mahsuloti sifatida turli madaniyatlar uchun birdek mazmunga ega bo'lib, madaniy xususiyatga ega gastronomik nom sifatida keltirilmaydi. Biroq qovunning yumaloq, maydaroq, xushbo'y, eti yumshoq, ertaroq yetiladigan bir turi hisoblanuvchi *handalak* termini ba'zi o'rinlardan nafaqat madaniy, balki tarixiy ahamiyat ham kasb etadi. She'riy parcha Andijon bilan bog'liq ekanligi pragmatik jihatdan bir paytlar yurtidan olis ketgan Bobur bilan non hamda handalakka bog'liq voqeaga ishora qilayotgani shubhasiz. Bu o'rinda *handalak* milliylikka emas, balki aynan Zahiriddin Muhammad Bobur tarixi bilan bog'lanadi. Bu esa, albatta, Andijon va bevosita O'zbekiston yoki o'zbek xalqi bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Shuning uchun *handalak* lingvokulterma sifatida ham, gastronomik birlik sifatida ham, pragmatik hamda konnotativ mazmuni bilan ham vatan konseptini ifodalab kelmoqda.

Qiz degani ko'ksi to'la o'y bo'ladi,

Yigit bir kun yetilib bo'y bo'ladi.

Bir tandir **non**, o'rtada bir kosa suv,
O'nta o'zbek yig'lsa to'y bo'ladi [3:174].

Natija va muhokama

Non boshqa nomlardan ko'ra ko'proq milliy-madaniy xususiyatga ega. Xitoy, koreys, yapon kabi ba'zi Osiyo xalqlari uchun non shirinlik sifatida ko'rilsa, ba'zi millatlarda deyarli iste'mol qilinmaydi. O'zbek xalqi uchun esa non dasturxonning ajralmas bir qismi sifatida gavdalanadi. Boshqa oziq-ovqat turlari yoki taomlardan farqli non kundalik iste'mol qilinadigan mahsulot hisoblanadi. Shu va boshqa bir qator sabablar tufayli, urush davrida "Toshkent – non shahri" iborasi shakllangan va bugungi kunda ham to'liq ma'nosini saqlab qolgan.

Non so'zi tojikcha „نان“ so'zidan olingan bo'lib, xamirdan yasab, tandirda yoki pechda pishiriladigan yemak ma'nosini anglatadi. Non turkiy xalqlarda "ekmak" so'zining asl kelib chiqishi bu nonning, aniqrog'i bug'doyning birinchi ekilgan narsa ekanidadir. Odam (a.s.) tomonidan birinchi ekilgan, dehqonchilik qilingan narsa bu bug'doy, ya'ni non bo'lgan. Shu sabab turkiy tildagi ekmak so'zining asl varianti ham shudir [7:199]. Ko'rinish turganidek, non etimologik jihatdan ham turkiy xalqlar bilan bog'lanadi. O'zbekiston hududida nonning juda ko'p xillari mavjud bo'lib, ular o'zi tayyorlanadigan uslub hamda joyga nisbatan nomlanadi. Masalan, Samarqandning o'zidagina faqat non mahsulotlarining «noni osiyoyi», «noni po'lati», «noni zargoroni», «noni tafton» «noni obaki», «noni kuloboki», «noni zabanikaf», «noni taroki», «noni xazzini» va boshqa turlari uchraydi. Non insonning kundalik iste'molida turli taomlar bilan yoki o'zicha tanovul qilinadi. Nonlarning pishirish (yopish) usuliga ko'ra: samarqand non, jizzali non, kunjutli non, yog'lik kulcha, patir non, qashqari non, ko'k patir, shirmoy non, shirmoy patir kabi turlari mavjud [5:297-298]. Bundan tashqari, non bilan bog'liq ko'plab frazeologik birliklar, maqola hamda iboralar mavjud. Ularning barchasi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, dunyoqarashimiz hamda hayot tarzimizga oid bo'lib, non lingvokulturologik jihatdan boshqa so'zlarga qaraganda o'zbek madaniyatiga ancha ko'proq aloqador ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun:

«Non gadoyi» frazemasi – variant non gadoyi bo'lib qolmoq; «nonga zor», «kambag'al-qashshoq» [4:59]. Ushbu frazema nonning xalq hayotidagi ta'siri mutlaqo qo'shimcha izohlarsiz ochib beradi. Ruslar uchun kartoshka, xitoylar uchun guruch qanchalik muhim hamda kundalik mahsulot bo'lsa, o'zbek xalqi uchun non xuddi shunday birlamchi hisoblanadi. Ushbu ibora bir tomondan, non bahosi past, moliyaviy jihatdan past taqadagi insonlarning ham qurbi yetadigan oziq-ovqat turidek tasvirlansa ham, asosiy g'oya nonning suv kabi hayotning birlamchi manbai ekanini anglatish, yashab qolish imkoni ekanligini ko'rsatishdir.

O'zbek xalqida non bilan bog'liq qadimiy urf-odatlar ham mavjud. Ulardan biri – non sindirish (yoki ushatish). U nikoh to'yi marosimlarining bir qismi, qiz tomon ya'ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o'z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to'y bilan bog'liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi [4:57]. Bu va bu kabi odatlar bir qancha bo'lib, ularning paydo bo'lishi bir necha asr oldinga borib taqaladi. Bu esa nonning bir necha asrlardan buyon o'zbek millatining ajralmas qismi ekanligini isbotlaydi. Non realiya hisoblanmasa ham milliyligimiz ramzi hamda lingvokulturologik birlik sifatida vatan konseptini ifodalovchi birlik deyish mumkin.

Bizning bo'ston qayda bor,

Shohimardon qayda bor,

So'lim Surxon qayda bor,

Samarqand non qayda bor-a

O'zbekiston qayda bor? [3:213].

Bu she'riy parchada esa o'zbek nonlari ichidan nafaqat hudud ichida, balki tashrif buyuruvchi chet ellik mehmonlar orasida ham ma'lum va mashhur bo'lgan turi keltirilgan. Samarqand noni tayyorlanish usuli, tarixi, ta'm va ko'rinishi bilan boshqalaridan katta farq qiladi. Samarqand noni haqida juda ko'plab afsonalar ham mavjud bo'lib, ularning ba'zilari haqiqiy voqealarga asoslangan. O'zbekiston hududida non qanchalik qadrlil, mashhur hamda an'analarni o'zi bilan me'ros qilib kelayotgan bir gastronomik nom bo'lsa, Samarqand non ular ichida mashhurlikda ham, an'anaviylikda ham eng old o'rinda tura-di. Va aynan shuning uchun vatan konseptining semantik maydoni nonsiz tashkil etilmaganidek, Samarqand non atamasi ham uni tasavvur etish qiyin.

Xulosa. Non, samarqand non, parvarda, pashmak kabi birliklar o'z tarixi va iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek xalqining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ular matndan tashqarida ham milliylikiga egadir. She'riy matnlar ichida esa, bu mazmun yanada yorqinroq ifoda etilib, ma'no yanada kuchayadi;

Adabiyotlar

1. Croft W., & Alan, D. (2007) *Cognitive Linguistics*. Cambridge: CUP.
2. Karimov U. Konsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati. 2017. // O'zMU xabarlarlari.
3. Muhammad Yusuf Saylanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati. 2007.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2020.
5. Qisqacha uy-ro'zg'or ensiklopediyasi (1982). O'zbek sovet ensiklopediyasi.
6. Salakhova R.I. Actualization of the formation of a value attitude towards the Motherland among young people. Current problems of science and education. 2013.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili etimologik lug'ati. “Universitet”. 2009.
8. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics, Volume I Concept Structuring Systems. The MIT Press. 2000.
9. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказочном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону. 2010.

REZYUME. Maqolada lingvomadaniy konseptlarning ayrimlarini tahlil hamda tasnif qilgan holda, Vatan konsepti bilan qiyoslab, tushunchalar orasidagi bog'liqlik ochib berilgan. Shuningdek, ayrim o'rinlarda gastronomik nomlar Vatan konsepti bilan chambarchas bog'liqligi, bu esa lingvokulturalarning atama bilan aloqador ekanini isbotlangan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются и классифицируются некоторые лингвокультурологические концепты, сравниваются их с концептом Родина, выявляется взаимосвязь между концептами. Также доказано, что гастрономические названия тесно связаны с понятием Родина, а значит, и лингвокультуры родственны этому термину.

SUMMARY. The article analyzes and classifies some of the linguistic and cultural concepts, compares them with the concept Homeland, and reveals the relationship between the concepts. Also, in some places, it has been proven that gastronomic names are closely related to the concept Homeland, which means that linguocultures are related to the term.

МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ЎРНИ ҲАҚИДА

А.А.Худайбергенов – филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: фразеологик бирликлар, фразеомикромайдон, фразеомакромайдон, фразеогурух, маданиятлараро мулоқот, структура, семантика, антропоцентризм, концепт.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразеомикрополе, фразеомакрополе, фразеогруппа, межкультурная коммуникация, структура, семантика, антропоцентризм, концепт.

Key words: phraseological units, phraseomicrofield, phraseomacrofield, phraseogroup, intercultural communication, structure, semantics, anthropocentrism, concept.

Тил билан мулоқотда энг муҳим масалалар – бу объектив олам, маданият, тил, уларнинг ўзаро муносабати ва ўзаро таъсири. Аммо бунда олам манзараси моҳиятини оптимал тасаввур этиш учун кенг терминологик ихтиролар талаб қилинади. Уни юзага чиқаришга тўсқинлик этувчи нутқ ҳосил қилиш ва мулоқотнинг яширин қийинчиликлари (маданиятнинг мумкин бўлган амалий конфликтлари ҳақида огоҳлантириш каби) туфайли мумкин бўлмайди. Чунки тил- маданиятни сақлаш воситаси, шунинг учун у тилшунослик нуктаи назардан сўзга, тушунчага, воқеликка, тушунчаларни лексик деталлаштиришга барча ҳар хил ифодаларнинг социомаданий аспектига (масалан, концепт доирасида инсон тушунчасининг барча жиҳатларини тилда кенг камраб олувчи атама сифатида) эквиваленти бўлиши ниҳоятда муҳимдир.

Ҳар хил халқларнинг ҳар хил маданиятлари фарқлари энг қадимги даврлардаёқ сезиларли бўлган. Бундай ҳолда қўйидагича саволлар қизиқиш ўйғотади: ушбу фарқлар нималарда кўринади, улар каердан келиб чиқади, бу фарқлар абадий қайтиб келмаслиги, ёки, аксинча, мулоқот натижасида ҳар хил миллий маданиятлар каерда бир-бирига мос келади [1:89].

Non atamasi bilan bir qatorda qovun hamda handalak kabi gastronomik tushunchalar pragmatik mazmuniga ko'ra, matnda qo'llanilgan yondash so'zlar bilan birgalikda o'zbek xalqining o'tmishi bilan aloqador bo'ladi, va she'riy matnlar tarkibida vatan konsepti bilan aloqasini ko'rsatib turadi;

Ko'k choy va choyxona gastronomik birliklari esa, o'zining uzoq o'tmishi bilan o'zbek millatiga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Milliylikimizning ifodasi ekanligi nafaqat badiiy matn, xususan, she'riy matnlarda keltirilgan, balki o'z holicha ham faqatgina o'zbek xalqi tomonidan emas, balki deyarli butun dunyo tomonidan e'tirof etiladi.

Qisqa qilib aytganda, gastronomik birliklar lingvokulturemalar sifatida vatan konseptining semantik maydoni o'ziga xos o'ringa ega. Mazmun jihatdan konseptni ularsiz shakllantirish qiyin. O'zbek she'riy matnlarida esa bu ma'no qirralari sodda hamda go'zal tarzda yoritib beriladi. Berilgan maqolada esa, asosan, non atamasi bilan bog'liq bo'lgan misollar ko'rib o'tildi.

Маданий ва маданиятлараро мулоқот имкониятлари тилда миллий маданий дунёни акс этирувчи маданиятлар характери ёки, бошқача айтганда, миллий концептосфера билан боғлиқдир [7:18-19].

Унинг ядроси (маркази) ни барча халқларга хос бўлган белгилар ташкил этади ва улар концепт ва константларга нисбатан чегараланган йиғиндисидан шаклланади [2:214-215].

Ер, ватан, дунё, дин, меҳнат, шунингдек, инсоннинг ўзи, эркак, аёл, оила, оналик, оталик, туғилиш, ҳаёт, ўлим ва б. Буларнинг ҳар қайсиси сўз ёки фразеологик бирлик (ФБ) билан ифодаланиб, концептнинг фақат вербал кўринишидир [4:10].

«Инсон» категорияси «реаллик»- «тил» зиддиятида очилади. Бунда шу омилни ҳисобга олиш ниҳоятда зарурки, унга кўра реал дунёдан йўл ҳар қандай тушунчага ва кейинчалик унинг сўз билан ифодаланишига қараб боради. У эса турли халқларда ҳар хил. Ягона олам тил репрезентацияларида турли-тумандир, шу сабабли ҳам уларнинг акс этиши бир-бирига ўхшамайди [3:119-120].

Инсон концептининг функционал ва лисоний ўзига хослиги унинг семантик табиатининг намоён бўлишини

тилнинг ҳар хил сатҳлари ва босқичларида, хусусан, фразеологик босқичда ҳам уни қараб чиқиш зарурлигини такозо этади [5:12].

XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб жаҳонда тилшуносликнинг мустақил соҳаси сифатида таркиб топган фразеологиянинг жадал суръатлар билан ривожланиши кўпгина муҳим масалаларни ўрганишни такозо этади. Уларни ўрганиш эса фразеологиянинг таркибида бўлган бирликлар хусусиятини, фразеологиянинг объекти ва уни ўрганиш методларини тўла очиб бериш ва аниқлаш имконини беради.

Фразеологик бирликлари мазмун структурасида тил ижодкори ва эгаси саналган халқнинг донишмандлиги ва орзу истаклари (булар маданий анъаналар, мифлар ва халқ нақл ва ривоятлари, диний эътиқодлари ва афсоналари. Тарихий воқеалар), шунингдек «прагматик унсур» (эмоциялар, эмоционал реакциялар, субъектив баҳолар мураккаб йиғиндиси, тингловчига нутқий таъсир этиш усуллари, борлиқнинг образли, экспрессив репрезентацияси кабилар) тилнинг миллий ўзига хослигида ўз ифодасини топади. У лисоний ҳодисадир [8:8].

Аммо ҳозирги давр тилшунослик фанида тил бирликлари мазмун томонини тадқиқ этишнинг, унинг асосий фарқланувчи белгиларини тез чуқур ўрганишга бўлган интилишининг катта аҳамиятга эга эканлигига, шунингдек, семасиологик муаммоларни, лексик семантикани ва, айниқса, фразеологияни назарий қайта англашга бўлган кўп сонли уринишларга қарамасдан, фразеология тилшуносликда ҳанузгача энг кам ўрганилган соҳа бўлиб қолмоқда [9:6].

А.В.Кунин таъкидлайдики; «Фразеологик бирликлар компонентлари ўзаро семантик тигиз боғланган оборотлар бўлиб, уларнинг боғланиши даражаси ҳар хил ФБ ларда турли-туман бўлиши мумкин». Дарҳақиқат, бир хил ФБ лар метофорик, метонимик, муболаға характеридаги тўла қайта тушунилган оборотлар бўлса, бошқа бирлари қисман қайта тушунилган оборотлар бўлиб, улар таркибидаги баъзи компонентлар ўз маъносига ҳам ишлатилган бўлиши мумкин [6:24].

Ҳар бир тилнинг фразеологик фонини семантик тасвирлаб беришда систематик тарзда ёндашув энг яхши усулдир. Бунда тасвирлашнинг энг муҳим йўли муайян ФБ нинг қайси фразеосемантик гуруҳга мансублигини топиб олишдир.

Фразеологик гуруҳ таркибини аниқлаб, ундан катта-роқ бирлашма таркибини аниқлаш мумкин, катта бирлашма таркибининг бир қисми ўрганилаётган фразеогуруҳ бўлади, хусусан, фразеомикро майдон фразеомикро майдон таркибига киради. Бу эса фразеологик системанинг иерархиклигининг бир кўринишидир.

Ушбу иерархикликни аниқлашнинг моҳияти фақат фразеосемантик гуруҳ таркибини аниқлашдан иборат эмас, балки умумий муҳим белгилари асосида фразеосемантик гуруҳни, фразеомайдон белгиларини аниқлашдир.

Намуна сифатида *a great gun* («муҳим шахс», «шишқа») фразеосемантик гуруҳи хизмат қилиши мумкин.

Ушбу фразеосемантик гуруҳ «Инсон» фразеомикро майдон таркибига киради, у эса ўз навбатида «Жонлилиқ» микромайдонининг бир қисмидир.

Синонимик қаторларнинг семантик шаклланиши ҳар хил ФБ лар синонимларини қамраб олади, уларнинг компонентлари синоним бўлиши ҳам бўлмаслиги ҳам мумкин.

(as) crazy as a fox – (as) mad as a march hare (ёку as a hatter) («бутунлай ҳалақит бериб», «ишни бузиб»); бу ерда *crazy* ва *mad* сўзлари синонимлардир;

down at heel – out at elbow («қалтис кийинган», «жулдир-жулдир»); бу ерда биринчи ФБ ёкимсиз ташқи кўриниш ва камбағал одам эмас га тегишли бўлади;

of the same kidney – tarred with the same brush («бир хил характердаги одамлар», «бир даланинг мевалари», «бир хамирдан қилинган»); бу ерда биринчи ФБ салбий маънода қўлланган, иккинчи ФБ- доим эмас. Фразеологиянинг системалилик табиатини семантик аниқлаш учун уларнинг фразеогуруҳдаги систем алоқаларига диққат қаратиш зарур бўлади. Улар тур ва хил муносабатда бўлиши мумкин.

Қиёс: *the daughter of Eve (= Eve's daughter)* («Ева қизи», «гўзал жинс вакили») тур маъносида ФБ ва *lady Bountiful* («патронесса-хоним», «меҳр-мурувват билан шуғулланувчи хоним»)- хил маъносидаги ФБ.

Бундай систем муносабатлар ФБ нинг дастлабки структур-семантик тавсифининг бундан кейин ҳам ривожланиши тенденциясининг борлигини кўрсатади.

Масалан, «инсон» микромайдон таркибида хил маъносини билдирувчи қуйидаги фразеологик синонимлар гуруҳлари борлигини кўрсатади.

birds of a father, much of a muchness, tweedledum and tweedledee («бири бошқасининг ўрнида туради»; = «икки жуфт этик»; «бир даланинг меваси»)

Ушбу «Инсон» микромайдонига бошқа синонимик (антонимик) гуруҳлар киради.

а) *faithful Adam* («ишончли қари хизматкор»);

Man Friday («Жума», «содиқ, вафодар хизматкор»);

б) *big boy* (*bug, cheese, noise, shot, wheel*)

great gun («муҳим шахс», «шишқа»);

в) *a cod in the machine*, «майда сошқа»

small beer (*fry*)

ФБ лар орасидаги антонимик алоқалар (фразеологияда семантик муносабатларнинг муҳим кўрсаткичи сифатида) алоҳида семантик-мавзувий доираларда ривожланади: мисол тариқасида, бутунлай-куч:

(as) strong as a horse («ҳўкиздек бақувват») ва

(as) weak as a cat (kitten или water) («зауф»);

- бойлик-камбағаллик:

(as) rich as Croesus («Крез каби бой») ва

(as) poor as a church mouse («черков сичқони каби камбағал»);

- қалб сифатлари:

a heart of gold («олтин юрак») ва *a heart of stone, stone heart, stony heart* («тош юрак»);

- Гўзаллик-хунуқлик:

(as) pretty as a picture («расм каби чиройли») ва *(as) ugly as sin* («марҳум гуноҳ каби қўрқинчли»);

- тажриба-тажрибасизлик:

old bird (= «отилган қарға») ва *spring chicken* («сарик оғизли ўсмир»);

- эмоционал ва интеллектуал сифатлари:

(as) gentle as a lamb («сезгир қўзичоқ») ва *(as) hard as nails* («золим», «тош юрак»); *(as) straight as a die* («тўғри сўзли, ҳалол») ва б.

ФБ ларнинг семантик мақоми учун қайта фикрлаш – энг аввало турғун ўхшатишлар учун.

(as) bold (или brave) as a lion («арслон каби доврорак»);

(as) mute as a fish («балиқ каби сақов»).

Ушбу ўхшатишларнинг барчаси инсонларга тегишли. Бунда биринчи компонент ўз маъносида қўлланилади. Турғун ўхшатишларнинг эркин прототиби сийрак учрайди.

Агар инсон тўғрисида гапирилганда *he is as weak as a kitten* («дармонсиз», «зауф»). Ушбу ўхшатиш ФБ ҳисобланади. Агар у кучукка нисбатан қўлланилса, у эркин бирикма ҳисобланади. Бундай ҳолларда экстралингвистик омил катта роль ўйнайди.

Баъзи ФБ лар компонентлари асл маъноларида қўлланилганда тасаввурдаги объектларни билдиради. Улар компонентлари формал мантига зид ҳолда ва структур-семантик номувофиқлик сабаб маънолари мос келмаса ҳам қўлланилиши мумкин:

- бевосита зидлик шундаки, ушбу тушунчада мавжуд бўлмаган белги ифодаланиши мумкин: *(as) drunk as a boiled owl* («*гипт маст*»); *walking corpse* («*юрадиган скелет*»); «*тирик ўлик*»); бу ФБ оксюморон ҳисобланади.

Шунга ўхшаш ФБ ларнинг қайта мушоҳада этилиши индивидуал-муаллиф оборотидан дарак олган. Бу ходиса иккинчи номинация ҳисобланиб, у контекст билан боғлангандир.

Қиёс: *the green – eyed monster* («*кўк кўзли махлуқ*», «*рашк*»), Шекспиризм «Отелло» га бориб тақалади.

Агар бу ФБ бўлса, индивидуал-муаллиф оборотларидан фарқ қилган ҳолда тургун бирикма сифатида кенг қўлланилади ва ягона қўлланилиш билан чекланиб қолмайди.

Бошқача айтганда, иккинчи фразеологик қайта номинацияга эга бўлганда, қайта фикр қилиниш тушунча маъносининг кенгайиши унинг бириктиш доирасининг кенгайиши оқибатида содир бўлган.

ФБ маъносини қайта тушуниш уни оккозионал қўллашда учраши мумкин. ФБ қўлланишини қиёсланг: *a black sheep* («*бузғунчи қўй*») қуйидаги контекстда:

Адабиётлар

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. -М.: Яз.рус.культуры,1999. –С. 895.
2. Грушевицкая Т.Г. Основы межкультурной коммуникации. - М.: «Гнозис», 2002. –С. 410.
3. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. - М.: «Гнозис», 2003.-С. 299.
4. Дубова М.Е. Структурно- семантический анализ фразеологического поля «речевая деятельность» в русском языке в сопоставлении с английским: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Кострома: КГПИ, 2009. 14-б.
5. Ковшова М.Л. Культурно-национальная специфика фразеологических единиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- М.: МГУ, 1996. –С. 22.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - М.: «Высшая школа». - Дубна: «Феникс», 1996. 119-б.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. - М.: Изд. Центр Академия, 2001.14-15-б.
9. Михайлова О.А. Фразеологическое поле «прекращение жизни человека» в русском и английском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. –С. 15.
10. Тарасова Ф.Х. Сопоставительный анализ фразеологических единиц английского и татарского языков с компонентами, относящимися к фразеосемантическому полю «Пища»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- Казань: КГУ, 1999. –С. 24.

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада маданиятлараро мулоқотда фразеологизмларнинг ўрни ва дунёнинг олам манзарасини лисоний нуқтаи назардан ўрганишда антропоцентрик тамойилларнинг хусусиятлари таҳлил қилинади ва маданиятлараро мулоқот тушунчасининг таърифи ва дунё тилшуносларининг фразеология соҳасига оид билдирган фикрлари ўрганилган.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются роль фразеологизмов в межкультурной коммуникации и особенности антропоцентрических принципов в изучении картины мира с лингвистической точки зрения, а также определение понятия межкультурной коммуникации и мнения мировых лингвистов в данной области.

SUMMARY. In this article analyzes the role of phraseologisms in intercultural communication and the features of anthropocentric principles in studying the picture of the world from a linguistic point of view and the definition of the concept of intercultural communication and the opinions expressed by world linguists regarding the field of phraseology.

РАНГ ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ ИНГЛИЗ ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИНГВОМАДАНИЯТИДА КОНЦЕПТУАЛЛАШУВИ

З.О.Худайбергенова – мустақил тадқиқотчи

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети

Таянч сўзлар: ақ, қара, white, black, лингвомаданият, ранг маънолари, концепт, коннотация, паремиологик бирикма.

Ключевые слова: белый, черный, white, black, лингвокультурология, цветовые обозначения, концепт, коннотация, паремиологические сочетания.

Key words: white, black, linguocultural, color designations, concept, connotation, paremiological combinations.

Маълум бир халқнинг маданиятидаги тушунчаларни аниқлашда инсон ва у ишлатадиган тил уртасидаги муносабат муҳим ҳисобланади. Инсоният тил орқали ўз маданиятини акс эттиради ва шу орқали маълум концептуал тушунчаларни пайдо этади. Тадқиқ қилинаётган инглиз ва қорақалпоқ тилларида ҳар хил концептуал тушунчалар мавжуд ва шулардан ранг ифодаловчи тушунчалар иккала халқ маданиятини акс эттиришда муҳим аҳамият касб этади. Мавжуд бўлган ранглар инсон онги билан боғлиқ бўлиб, улар маълум маданиятни ифодаловчи хусусиятларга эга. Ҳар бир тилдаги ранг тушунчаси ва ранг атамалари муаммоси қўплаб тилшунослар томонидан турли нуқтаи назардан ўрганилган.

А.Вежбицкаянинг (1996) таъкидлашича, рангнинг ҳар хил семантик гуруҳлари тиллар ва маданиятларга нисбатан барқарор бўлиши мумкин, чунки бизнинг умумий инсоний тажрибамизга асосланган

Lanny told briefly about this “red sheep” of his mother’s family. “There aren’t apt to be two American painters such active reds” (U.Sinclair). Бу ерда кулгули самарадорлик black сифатини red сифати билан алмаштириш натижасида юзага келган. Аммо бу ерда бирламчи бириктиш бузилган ва натижада фантастик образ юзага келган, чунки қизил қўйлар бўлмайд.

Шундай қилиб, маъно ўзгариши маънода силжишни билдиради, бу маънонинг торайиши ёки кенгайиши эмас. Ушбу семантик жараёнлар тушунча ҳажмининг ўзгариши билан боғлиқ. Хусусан, бу дастлабки структур-семантик тузилманинг тасвирий имкониятларини фаоллаштириш асосида аналогия воситасида фразеология ҳосил қилиш жараёнида ёрқин кўзга ташланади.

Фразеология тилда, тил эгаси саналган халқ маданиятини репрезентация қилиб асрлар оша яшайди. Фразеологик бирикларда репрезентация қилинадиган концептларнинг маданий хусусиятларини ўрганиш маданиятлараро фарқларни тадқиқ қилишда зарур бўладиган баҳолаш ва қадриятларни тизим сифатида ўрганишга, кишиларнинг менталитети ва дунёқараши ўзига хослигини аниқлашга имкон беради.

фундаментал концептуал моделлар бир хилдир. Ҳар бир халқда дунёни идрок этишнинг ўзига хос хусусиятларини белгиловчи миллий рамзлар мавжуд, ва бунда вазиятнинг стандарти, стереотипи фақат маълум бир этник-маданий жамият учун маълум аҳамиятга эга. А.Вежбицкая ўзининг «Обозначение цвета и универсалии зрительного восприятия» (1996) номли илмий ишида ранг номларининг маъносини аниқлаш, инглиз, поляк ва рус тиллари мисолида “оқ”, “қора” ва бошқа рангларига киритилган маънони тадқиқ қилган. У ўз тадқиқотларининг натижасига кура қуйидаги ранглар учун табиий прототипларни аниқлаган: *қора - тун, оқ - кундуз (қорадан фарқли ўлароқ), кўк / оч кўк - сув, осмон, яшил - табиат, ўсимлик, сариқ - қуёш, қизил - олов, қон, жигарранг - тунроқ*. Шундай қилиб, санаб ўтилган ранг номларининг ҳар бирида коннотациялар ўша табиий прототипларни ва улар она тилида сўзлашувчиларда уйғотадиган ҳиссий фонни ўз ичига

олади [1:282].

Ранг инсон ҳаётининг ажралмас таркибий қисми сифатида дастлаб воқеликни билиш, атроф-муҳитни сифат ва баҳолаш жараёнларида, унинг муҳим қисмларини рамзий қилиш ва концепциялашда муҳим рол ўйнади. Маданиятнинг таркибий қисми сифатида ранг вақт ўтиши билан турли хил аксиологияларнинг маънолари ва коннотацияларининг мураккаб ва хилма-хил тизимига эга бўлди.

Жарқинбекованинг таъкидлашича, тилларни таққослашда аниқланган рангнинг вербализациясидаги фарқлар лингвистик бирликларнинг шаклланишида ҳукмронлик қилувчи омиллар перцептив-физиологик омиллар эмас, балки маданий сабабларга кўра тоифаларга ажратишда жамоавий этник онг ишининг омиллари эканлиги билан боғлиқ [2:109].

Инсон онгида рангга оид маъноларнинг келиб чиқишини кўйидагича таърифлашимиз мумкин. Биринчидан, биз рангнинг воқелик объектига нисбат бериш натижасида юзага келадиган табиий ассоциациялар натижасида ҳосил бўлган маъноларни ўрганамиз. Ранг бу рангга эга бўлган табиат ҳодисаси ёки объекти билан боғлиқ. Бундай маънолар вақт ўтиши билан ўзгармайди ва маданиятга камроқ боғлиқдир. Мисол учун, **қора** ранг **қумир** билан, **оқ** эса **қор** ва **туз** билан боғлиқ бўлиши мумкин. Иккинчидан, биз маданий белги бўлган мураккаб табиатга эга ва одамларнинг менталитетига боғлиқ маъноларни киритамиз.

Ранг борасидаги илмий тушунчани билдирувчи ранг атамалари ҳар бир миллат луғавий таркибининг муҳим қисмини ташкил қилади. Бунда ранг номлари лингвوماданий хусусиятларга эга бўлиб, тилда акс этадиган лексика-семантика, фразеология, паремиологияни қамраб олади. Кўплаб вазиятларда қора ранг инсон психологиясида салбий коннотацияга, оқ ранг эса ижобий коннотациясининг кўрсаткичлари юқори эканлиги билан ажралиб туради. Аммо, рангнинг лингвوماданий жиҳатидан турли тиллар тизимида таҳлил этиш қайд этилган тушунчаларни инкор этиш мумкинлиги борасида мулоҳозаларни юзага келтиради. Бевосита, биз қиёсий тадқиқ этаётган қорақалпоқ тили ва ушбу этносни номланиши «**қара**» сифати «**қалпақ**» оти бирикмасидан ташкил топган. ва қорақалпоқ тили изоҳли луғатида «**қарақалпақ**» сўзи *Қорақалпоғистоннинг асосий аҳолиси* тарзида изоҳланади.

Инглиз халқи маданиятида оқ рангга берилган ижобий рамзий маънолар орасида асосий маънолар диний дастурлар билан белгиланади. Оқ лексемасининг таҳлил қилган луғатларга кўра кўйидаги семантик маъноларни ифодалайди: *поқлик, беғуборлик, маънавият, идрок, нур, ҳаво, абадийлик, тозаланиш, яхшилик, севги, меҳрибонлик, тинчлик, ҳаёт*. Оқ ранг, шунингдек, янгиланиш ҳолатига ўтишни яъни никоҳ, сувга чўмиш, бошлаш маъноларини ҳам англатади. Аммо, оқ ранг ижобий маъно билан бирга салбий маъноларга ҳам эга бўлиб у *таслим бўлиш, қўрқоқлик, қўрқув, бўшлиқ*, ва ўлим маъноларини ифодалаши мумкин.

Инглиз маданиятида **қора** рангнинг рамзий маъноларини кўриб чиққанмизда бу рангга кўпроқ салбий семантик жиҳатларига эғалигини кўришимиз мумкин. Тадқиқ қилинган манбааларга кўра кўйидаги салбий маъноларга ажратилади: *ёмонлик, ҳалокат, йўқ қилиш, қайғу, умидсизлик, бахтсизлик*. Қора рангнинг семантик маъноси шунингдек *асл бўшлиқ, бўшлиқ, сир, жимлик, қайғу, тушкунлик* каби маъноларни ҳам ифодалайди.

Қорақалпоқ халқи маданиятида оқ рангга берилган ижобий рамзий маънолар орасида асосий маънолари бу халқнинг яшаш турмуш-тарзи, чарвочилик ва деҳқончилик маданияти билан белгиланади. Оқ

сўзининг қорақалпоқ тилидаги ижобий маънолари *яхши, тоза, ҳақ, халол, ёмонлиги йўқ, беғуноҳ, айбсиз, оқарган (сут, қатиқ)*, салбий маънолари эса *доқ, кир* ва ўлим ҳисобланади. Қорақалпоқ маданиятида **қара** рангнинг маъноларини ўрганганимизда унинг салбий қийматлари кагта улушга эга эканлигини ўргандик. Луғатлардаги манбааларга кўра қора ранг кўйидаги асосий маъноларни ифодалайди: *чарпа, йирик мол, қайғу, умидсизлик, бахтсизлик*.

Қорақалпоқ тилида «**ақ**» ва «**қара**» лексемаларининг асосий семантикасида инглиз тили каби оқ ранг ижобий, қора ранг эса салбий маъноларини ифодалашини кўришимиз мумкин. **Масалан:**

Колхоздың фермасында ислеўге келисип теңиз таманға көшкен бес хожалықтың бәри де Нуржан зарры сыяқлы ақ кеўил адамлар еди [5:14].

Ғаррылардың биразы уйқыдан жаңа тургандай болып оған ақ пәтиясын берди [6:8].

— *Әй жүзү қара залымлар, — деди де Әбди Жумағұлдың қасына барып басын сүйеди* [8:147].

Аммо, қорақалпоқ тилида оқ рангги ижобий маъносидан ташқари салбий маънода, қора рангги эса ижобий маъноларида ҳам қўлланилади. Масалан, қорақалпоқ тилида «**ақ түсиў**» сўз бирикмаси кишининг кўзига бир нарса тушган, сочи оқарган деган салбий маъноларни англатади. Шунингдек, қорақалпоқ маданиятида дафн маросимида оламдан утган кишини оқ кийинтиради. **Масалан:** *Машинадан тускен врач Периханның көкирегине қол басып азгана турды да: — Кешигиппиз! — деп бетине ақ жасўды* [5:67].

Қора рангига келсак, эрта даврларда қорақалпоқлар таомни учоқда қора қозонда пиширган. Бу ерда «**қара қазан**» сўз бирикмаси ижобий маънони ифодалаб келган. Масалан: — *Бизлер мынаў ошақтың, қара қазанның ийесимиз* [8:246].

Эрта даврлардан қорақалпоқ халқи чарвадор ва деҳқон халқ бўлган ва шунинг тасири натижасида **оқ** ва **қора** лексемалари иштироқиде қўлланиладиган янги сўз бирикмалари ривожланиб борган. Қорақалпоқ тилида **ақ** сўз бирикмасининг кўпчилик қисми ўсимлик номига боғлиқ бўлса, **қара** сўзи қўлланилган қўшма отларнинг кўпчилиги хайвонотлар билан боғлиқ эканини кўрамыз. **Масалан:**

Усимликлар: *ақ бас, ақ бийдай, ақ егин, ақ порық, ақ тал, ақтерек, ақтикен*

Хайвонлар: *қарабайыр, қара жал, қара жорға, қаракер, қарақулақ, қарамал*

Бу шуни кўрсатадики, қорақалпоқ маданиятида **оқ** ранг *деҳқончилик* рамзи ҳисобланса, **қора** ранг *чарвочилик* рамзи ҳисобланади.

Икки тилда ҳам ранг реал ҳаётда ўзига хос жисмоний ҳодисани ифодалайди. Инглиз халқи маданиятида **қора** рангдаги кийим мотам билан боғлиқлигини кўришимиз мумкин. Шунинг билан бирга, қора кийим яъни костюм-шим расмий ишхонада қиядиган ижобий маънони ҳам ифодалаши кўзатилади. Шунинг учун қора кийим *мотам* ёки *расмий кийим* бўлиши мумкин. Масалан:

So for my interview, I selected a long, chunky wool skirt that I bought at the thrift store and a polyester white blouse with puffy sleeves. [11:13].

I've only squeezed out a single tear the entire day, and that was when I saw Cecelia dressed in a simple black dress I bought her for the funeral [11:279].

Her mentor and employer at that time, Joanna Hunter, had gone to work every day as a GP in a black suit [10:56].

Қорақалпоқ маданиятида қора бош кийим яъни **қора қалпоқ** бу қорақалпоқ миллатининг миллийлигини кўрсатувчи миллий бош кийими ҳисобланади. Шуни айтиш жоизки, қорақалпоқ миллатининг қорақалпоқ

деб номланиши ҳам айнан шу қора қалпоқ деган бош кийими билан боғлиқ хисобланади.

Гайып хан қалақтай қысық басына қара қалпақ кийип келипти. Буньсы қарақалпақтың дәстурин қылғаны, қуўдың қуйрығындай сақалы көкирегине басылып, келте мойны бүгилип отырыпты [7:33].

Оқ либос одатда ҳар икки маданиятда ҳам ёш қизлар томонидан *беғуноҳлик* ва *тўй либоси* рамзи сифатида кийилади.

Инглиз тилида **black** ва **white** сўзларнинг **man** яъни одам маъносидаги сўз бирикмаси билан боғлиқлиги алоҳида эътиборга лойиқдир. Мазкур тилдаги **white man** иборасининг ижтимоий-маданий шартлилиги ўзига хос семантикада намоён бўлади. **white man** шунчаки оқ танали одам эмас, оқ ирқнинг вакили. Инглиз тили одатда қора рангнинг ёмон нарса билан, оқнинг яхши нарса билан анъанавий маъноси билан тавсифланади. Масалан: *black sheep* - унинг учун шармандалиқ хисобланган оила ёки гуруҳ аъзоси, *black market* – қора базор, *blackmail* – шантаж, *black soul* – қора дил. Бу иборалар ёмонлик билан боғлиқ хисобланади. Бундан ташқари, бу мотам ранги, ўлим рангидир.

Оқ - бу дунёнинг ранги, келиннинг тўй либосининг ранги, яхши ва соф ҳамма нарсанинг ранги. Ҳар қандай тилдаги фразеологик тузилмаларга таъаллуқли тадқиқотлар марказида маълум бирикмалар англатадиган маъно таҳлили ётади. Ушбу бирикмаларда иштирок этадиган бирликларнинг ўзаро боғланиши маъно ёки мазмунни ёритишига қаратилади. Ушбу турдаги бирикмалар таҳлилида муҳим ўрин тутадиган бирикмалар сифатида паремиологик бирикмалар муҳим аҳамиятга эга. Уларнинг таҳлили лексик-семантик, когнитив, синтактик, структуравий, ижтимоий-лингвистик, прагматик, лингвوماданий сатҳларда олиб борилиши билан ҳам тадқиқотчиларнинг кўпчилиги эътиборида бўлиб келмоқда [4:105].

Биз ўз ишимизда паремиологик бирикмаларида ранга таълуқли лингвوماданий хусусиятга эгаллигини кўзатдик. Улар ҳар бир маданиятнинг урф-одатлари, қадриятларини тилда акс эттирувчи асосий восита саналади. Тадқиқ қилинаётган тиллардаги паремиологик бирикмаларда оқ ва қора рангларини ўз ичига олган ва улар инсон ҳаётида турли соҳаларини, кундалиқ ҳаётини, турмуш тарзи ва характерини, товарак-атрофдаги олам ҳодисаларига қарашларини ифодаловчи мақоллар мавжудлиги кузатилди.

Инглиз ва қорақалпоқ тилларидаги оқ ва қора ранг бирикларида мақоллар ва паремиологик бирикмаларни субъект ва объект ўртасидаги муносабатларда акс этади. Ушбу сифатдаги ранг ифодаловчи тузилмаларда лексик бирликлар аҳамиятли саналади. Бу борада паремиологик бирликлар билан қўлланилган ранг англатувчи тузилмалар коммуникатив-прагматик вазифаларни бажаради. Шу нуқтай назардан таниқли тилшунос Ш.Сафаровнинг таъкидлашича: “Нутқий тузилмалар мазмунидаги семантика ва прагматика муносабатини ҳосил қилувчи омиллар ҳақида гап кетганда, одатда, луғавий бирликларнинг вазифаси муҳокама қилиниб, грамматик воситалар назардан четда қолади. Аслини олганда, грамматик воситаларнинг ҳам семантика ва прагматика ҳудудларидаги вазифавий тақсимоти ўзига хос кўринишга эга [3:94]. Ранг ифодаловчи паремиологик бирликлар шахслар ора суҳбат жараёнининг ажратиб бўлмас бўлаги сифатида баҳоланади.

Инглиз ва қорақалпоқ тилларида қўлланиладиган оқ ва қора рангни ифодаловчи паремиологик бирикмаларни таҳлил қилганимизда, уларнинг бир-бирига ўхшаш

хусусиятларини кўзатишимиз мумкин. Масалан: 1. *Арпа, бийдай ақ болады, Сары қаўын қақ болады.*; 2. *Сорлы жейитке сортақ жер тап болады, Егини көгермей ақ жоқ болады.*; 3. *Жаз ақсыз болмас, Гүз көксиз болмас.*; (*Қорақалпоқ мақоллари*)

Қорақалпоқ тилида қўлланилган мақоллардаги **ақ болады**, **ақ жоқ болады**, **ақсыз болмас** каби парамеиологик бирикмаларда субстантивлашган **ақ** сифати озик-овқат семантикасини ифодалаб келган. Бу шунини кўрсатадики, қорақалпоқ тилидаги «ақ» лексемаси ижобий хусусиятга эга бўлиб, шу халқнинг эрта даврдан дехқончилик билан шуғилланганини кўрсатади.

Инглиз тилида оқ ва қора ранг ифодаси қўлланилган мақолларда ижобий ва салбий хусусиятлар семантикасини кузатишимиз мумкин. Масалан: *Black cows give white milk.*; *Out of a white egg often comes a black chicken.*; *There's a black sheep in every flock.* (*Инглис мақоллари*)

Берилган мисолларда инглиз маданиятида қора ранг ёмонлик, ёвузлик каби салбий семантикага эга бўлишига қарамастан, ҳар бир ёмоннинг қандай да бир яхши фазилати борлиги ифодаланган. Иккала тилда ҳам оқ ва қора ранг бирликлари ижобий ва салбий ифодага эга бўлиши мумкин. Бу инсоннинг ички туйғу ва ташқи кўриниши, яшаш тарзи ва атрофдаги ҳодисаларга нисбатан рухий ҳолатини ифодалашда фаоллашади.

Қорақалпоқ мақолларида оқ ва қора ранг бирликлари

Ижобий	Салбий
1) Есабың ҳақ болса, Жүзиң ақ болар.	1) Қардан да ақ нәрсе жоқ, Усласан қолың тоңдырар.
2) Қазаннан қара нәрсе жоқ, Ишсең қарның тойдырар.	2) Мийнетсиз өмир – қара кемир.
3) Биринши байлық – ден саўлық, Екинши байлық – ақ жаўлық.	3) Жақсы қатын ерин ер қылады, Жаман қатын ерин қара жер қылады.
4) Ер болсаң елиңди бақла, Елиң берген дузың ақла.	4) Өзи қаралының үйи жаралы.
Достың сырын бекем сақла.	5) Қорқаққа күндиз де қараңғы.
	6) Маңлайы қараның аўзы асқа тийсе мурны қанайды.

Инглиз мақолларида оқ ва қора ранг бирликлари

Ижобий	Салбий
1) The white, undefiled mind of a child, is like the rich soil in your garden — both - are - the subjects, of very careful planting, of the first seeds.	1) There's a black sheep in every flock.
2) As white as the driven snow.	2) A white wall is the fool's writing paper.
3) A black man is a jewel in a fair woman's eye.	3) He who blackens others, does not whiten himself.
4) A black shoe makes a merry heart.	4) Every bean hath its black.

Инглиз ва қорақалпоқ тиллари мақолларидаги ранг бирликларида инсоннинг ҳаракати, хулқ-атвори, ҳаётий ҳолатлари ва шахсий хусусиятлари турлича ифодаланган. Паремиологик бирликларнинг бир қисми сифатида ранг рамзийлиги бўлган тил бирикмалари маълум ҳодисалар билан ассоциациялар асосида ўз маъносини топади.

Адабиётлар

1. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. - М.: Русские словари. 1996. -С. 412.
 2. Жаркынбекова Ш.К., // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: материалы междунар. симпозиума, Волгоград, 22-24 мая 2003 г. - 4.1. - Волгоград: 2003. - С. 10-114.
 3. Сафаров Ш. С., Прагматингвистика. - Тошкент: 2008. 94-б.

4. Musayev A.A., diss. Kauzativ konstruksiyalarning kognitiv va lingvopragmatic tahlili (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida). - Nukus: 2023. 140-b.
5. Кайыпбергенов Т. Тэнхэ өзине мәлим сыр: Повестьлер хэм публицистикалык мақалалар - Нөкис: «Қарақалпақстан», 1991. 14-6.
6. Пиржанов У. Ақ тал астындағы ақшам. «Билим» 2015, 8-б.
7. Кайыпбергенов Т. Қарақалпақ дәстаны. Маман бий эпсанасы. – Нөкис: «Билим», 2018. 512-б.
8. Кайыпбергенов Т., Шығармалары 5 томлық. 4-том, Қарақалпақ қызы романы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1980. – 500 б.
9. Кайыпбергенов Т. Қарақалпақпан. Тәуекелшимен романы. – Нөкис: «Билим», 2003. 528-б.
10. Kate Atkinson, Big sky, e-book, <https://www.goodreads.com/book/show/43107933-big-sky>, -P.56.
11. Freida Mcfadden, The Housemaid, e-book, <https://www.goodreads.com/book/show/60556912-the-housemaid>, -P. 13.
12. Қарақалпақ фольклоры. Т.88-100. – Нөкис: «Илим», 2015. 544-б.
13. Martin H. Manser, The Facts On File Dictionary of Proverbs. -New York: 2007. –P. 513.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ АНГЛИЙСКИХ, УЗБЕКСКИХ И КАРАКАЛПАКСКИХ ПРОВЕРБИАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ В ТЕКСТАХ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Н.М.Жалғасов – старший преподаватель

Нукуский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: инсон, мақол, паремиологик бирлик, прагматика, миллий-маданий хусусияти, муқобил, аналог.

Ключевые слова: человек, пословица, паремиологическая единица, прагматика, национально-культурная специфика, эквивалент, аналог.

Key words: human, proverb, paremiological unit, pragmatics, national-cultural specifics, equivalent, analogue.

Культурно маркированное содержание языкового знака создаётся в ходе когнитивно-дискурсивной деятельности человека, которая начинается с замысла высказывания и выбора слов в соответствии с этнокультурными правилами построения речевого общения и заканчивается контролем за словопорождением или словоупотреблением. Особенно это важно помнить исследователям, занимающимися лингвокультурологическими проблемами художественного дискурса. Культурологическая составляющая когнитивно-дискурсивной деятельности заключается в том, что содержание употребляемого слова как бы создаётся заново. По сути дискурса слушающего (или читающего) начинается с сопоставления означаемого (плана выражения) знака с образами соответствующих прототипов, а заканчивается осмыслением и интерпретацией соответствующих культурных концептов [1:196].

В данной статье проанализированы особенности употребления провербиальных образований сравнимых языков в художественном дискурсе.

Так, любого вида речепроизводство базируется на трёх видах предпосылок: во-первых, одно и то же содержание может иметь разную форму изложения, во-вторых, в текстопорождении действует, наряду с общечеловеческими законами производства коммуникативной деятельности, законы, характерные для отдельных социокультур, для носителей данного языка или данной группы людей и, в-третьих, при построении текстов необходимо учитывать их жанровые особенности [8:12]. Всё это обуславливает употребление провербиальных образований с определённой коммуникативной целью и для достижения прагматико-стилистического эффекта:

Мана шу йўл билан, яъни бир ўқ билан икки қуённи отасиз, - деди, - чунончи, фуқаро тинчийди ва Абдулхайрон [Мирмухсин]. В данном контексте прагматическое значение одобрения или совета актуализируется с помощью пословицы *Бир ўқ билан икки қуённи отмоқ* – Одной пулей двух зайцев убить.

Иногда жанр текста определяется его коммуникативно-прагматической функцией, где находит своё выражение авторская интенция [8:13]. Авторская интенция, связанная со структурой паремиологических единиц – частое явление в художественной литературе:

My lord: I stand rebuked. I am sorry: I can say no more. But if you prophesy that I shall be hanged, I shall never be able to resist temptation because I shall always be telling myself that I may as well be hanged for a sheep as a lamb [12:98].

Пословицы могут служить прототипами фразеологических единиц. В этом случае некоторые

компоненты пословиц либо заменяются другими словами, либо просто опускаются. Такие фразеологизмы часто являются авторской инновацией:

Johnny (shakes Chris by the hand): *Speak of the devil, we was just talkin' about you.* Прототипом данной фразеологической единицы является пословица *Speak of the devil and he is sure to appear* – Лёгко на помине.

Заметим, что пословицы в художественном окружении несут не только «теоретический заряд», но и реализуют свой глубокий смысл на практике: *Баланд дорга осилма* – Не по себе берёзу ломить (часто о парне из простой семьи, сватающемся к девушке из богатой семьи) [7:26]:

- Сиздака йигит олдида мен нима бўлибман. Сиз бемалол баландрок дорга осилаверинг! В данном отрывке отрицательная форма пословицы (*осилма* “не вешайся”) изменилась на положительную (*осилаверинг* – “можете вешаться”), что также является авторской интенцией.

В контексте пословица может изменять грамматические формы составляющих компонентов, исходя из времени, наклонения и залога основного глагола. Так, в следующем контексте изменилось время, залог и даже модальность глагола:

If you're, George, you'll go to your office and write me your check for three hundred thousand dollars... You can't be hung more for a sheep than you can for a lamb [10:210].

Самым главным достоянием в жизни человека является его здоровье, о чём говорят пословицы, приобретающие большую популярность в художественных текстах:

Қиш келса, Ментонага даволангани бормасам сира бўлмай қолади. Соғлигинг – давлатинг, бошқаси ҳеч нарсага арзимаиди! [2:15].

Мудрые пословицы учат человека использовать подходящий момент для совершения какого-либо действия:

Бир оз жимликдан сўнг у деди: - Жин урсин, темирни кизиғида босиш керак! [2:77]. Вот другой отрывок с употреблением этой же пословицы:

- Мана кўрарсиз, ҳеч ким ҳеч нарса демайди, - деб ишонтирди хоним. – Фақат темирни кизиғида босиш керак. Пайсалга солиш ярамайди [2:243].

Сплочённость людей – яркий девиз паремий: *Бир ёқадан бош чиқариб* – (одобр.) Все как один [7:37]: Биз ҳаммамиз бир ёқадан бош чиқариб, колхозга ёрдам берайлик, - деди у.

В узбекских и каракалпакских текстах обнаружены паремии с национально-культурной спецификой, которую невозможно передать на другой язык подобной пословичной структурой: *Бир магизни қирқ*

киши бўлиб ебди – Одну изюминку сорок человек поделили:

Кампир енгидан шалдиратиб, келтирган совғасини тўқди ва: - Ўргулай, бир мағизни қирқ киши бўлиб еган, - деди.

Провербиальные образования и устойчивые выражения помогают писателям раскрыть тончайшие детали внешних и внутренних качеств художественных персонажей:

Хоним унинг ақлли, дадил, тегирмонга тушса бутун чиқишини билади: унга ишонса ҳам ажаб эмас [2:229].

Пословичные выражения одобряют постоянное место работы: *Бир ишининг бошини тутмоқ* – найти себе постоянную работу [7:36]:

Леким у ҳалигача бирон ишининг бошини тута олмаган эди [4:78].

